



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA FAKULTETI  
“PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA” KAFEDRASI

“ABDULLA AVLONIYNING MA'RIFATPARVARLIK  
QARASHLARI ASOSIDA BARKAMOL SHAXSNI TARBIYALASH”  
MAVZUSIDAGI

# БИТИРУВ МАЛАКАВИЙ ИШ

**Bajardi:** “Boshlang'ich ta'lif va sport tarbiyaviy ish”  
ta'lif yo'nalishi bitiruvchi 4-kurs talabasi

Omonova Saodat \_\_\_\_\_

**Ilmiy rahbar:**  
**o'qt. Xolov O** \_\_\_\_\_

Termiz 2017

## MUNDARIJA

<b>KIRISH .....</b>	<b>3-7</b>
<b>I-BOB. Pedagogika va psixologiyaga oid adabiyatlarda shaxs tarbiyasi masalalari</b>	
.....	8-33
1.1. Barkamol shaxsni tarbiyalashning maqsad vazifalari .....	8-17
1.2. Sharq allomalari asarlarida tarbiya masalalari .....	17-33
<b>II-BOB. Barkamol shaxsni tarbiyalashda Abdulla Avloniyning ma'rifatparvarlik qarashlaridan foydalanishning shakl va usullari</b>	
.....	34-89
2.1. Abdulla Avloniyning didaktik qarashlari mazmuni .....	34-50
2.2. Abdulla Avloniy qarashlarida barkamol shaxsni tarbiyalashning tajribadagi natijalari .....	51-89
Umumiy xulosa va tavsiyalar .....	90-91
Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati .....	92-93
Ilovalar .....	94-
97	

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbliji.** Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, turli jabhalarda rivojlanish sari ildam odimlab bormoqda. Ushbu jarayon o'z-o'zidan yosh avlod ongiga, dunyoqarashiga, ayniqsa uning ta'lim-tarbiya jarayoniga o'z ta'sirini sezilarli darajada namoyon etib kelmoqda.

Mamlakatimizda ta'lim tizimini isloh qilish borasidagi olib borilayotgan chora-tadbirlarda ham aynan shu jihat talab qilinayotganligi bejiz emas. Chunki har bir millat o'z milliy qadriyatlarini o'zida mujassam etgan milliy-ma'naviy meroslaridan kelajak avlod ta'lim-tarbiya jarayonida samarali foydalanmas ekan, bu o'z-o'zidan ma'naviy qashshoqlikka olib keladi.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov – “Men Abdulla Avloniyning «Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot yo halokat, yo soadat yo falokat masalasidir» degan fikrini ko'p mushohada qilaman. Buyuk ma'rifatparvarning bu so'zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzARB bo'lgaN bo'lsa, hozirgi kunda biz uchun ham shunchalik, balki undan ham ko'ra muhim dolzarbdur. Chunki ta'lim-tarbiya ong mahsuli, lekin ayni vaqtida ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan omildir. Binobarin, ta'lim-tarbiya mazmunini o'zgartirmasdan turib ongni o'zgartirib bo'lmaydi. Ongni, tafakkurni o'zgartirmasdan turib esa biz ko'zlagan oliy maqsad ozod va obod jamiyatni barpo eta olmaymiz”-deb, jamiyat taraqqiyoti uchun tarbiyaning naqadar katta ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlagan edilar.

Har bir jaryonning umrboqiyligi, uning natijasining samarasini albatta dastlabki qadam qay yo'sinda boshlanganligiga boqliq. Shuning uchun ham biz o'z ilmiy izlanishimizni boshlang'ich sinflarning ta'lim-tarbiya jarayonida milliy-madaniy merosimiz namunalaridan, buyuk shaxslarimizning asarlaridan ta'lim-tarbiya jarayonida qanday foydalanish mumkinligi, uning qanday imkoniyati mavjudligini o'rGANISHNI maqsadga muvofiq deb hisobladik.

Bizning ishimizda Abdulla Avloniyning ma'rifatparvarlik qarashlari asosida barkamol shaxs tarbiyasi va asarlaridagi bilim, ta'lim tushunchalarini boshlang'ich

sinflarda qo'llanilayotgani va yana qay holda qo'llash hamda natijalarini organizhdir. Abdulla Avloniyning asarlarida ta'lim-tarbiya, pand-nasihatlar har tomonlama komil insonni tarbiyalaydigan shu bilan birgalikda didaktik tushunchalar yaqqol ko'rinish turadi.

«Turkiy guliston yoxud axloq» asari 1913 yilda yozilgan bo`lib, u axloqiyata`limiy asardir. Muallif bu kitob boshlanishiga «Man xastayamu millatim o`lmish nega bemor?» degan ritorik so`roq qo`ygan va asar davomida ushbu savolga javob berishga harakat qilgan. «Turkiy guliston yoxud axloq» asari «Axloq», «Tarbiya», «Yaxshi xulqlar», «Yomon xulqlar» deb nomlangan qismlarga bo`linadi.

Asarda diyonat, sa`y va g`ayrat, riyozaт, shijoat, qanoat, sabr, nafs, vijdon, iffat, oliyhimmatlik va shu kabi yuksak axloqiy tushunchalar, zulm, nifoq, ta`ma, xasad, loqaydlik, g`iybat, xaqorat, uyatsizlik, namimat (chaqimchilik), adovat kabi yomon xulqlar millat va vatan saodatiga e`tiborsizlik va bepisandlik bilan bog`langan holda muhim ijtimoiy muammo sifatida talqin etilgan.

Yuqorida aytib o'tilganidek, Abdulla Avloniyning asarida inson kamoloti masalasi markaziy masala bo'lib hisoblanadi. Uning asarida insonning jamiyat va hayotda tutgan o'rni, burch va vazifalari haqidagi muammolar o'ziga xos bir tarzda bayon etiladi. Abdulla Avloniy insonning baxt-saodatga, erishuvi faqat bilimga bog'liqligini e'tirof etadi.

Mustaqil mamlakatimizning ham oliy maqsadi har tomonlama etuk barkamol shaxsni voyaga etkazishdir. Biz har ikki jihatdagi mushtarak maqsadni amalgaloshirish uchun boshlang'ich sinifda sinf o'quvchilarni tarbiyalashda Abdulla Avloniyning ma'rifatparvarlik qarashlari asosida barkamol shaxsni tarbiyalashni maqsadga muvofiq deb hisobladik.

hamda pedagogik madaniyatni oshirish maqsadida, mamlakat aholisi o'rtasida ma'rifiy ishlar takomillashtirib boriladi» – deb ta'kidlanadi.<sup>1</sup>

Demak, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablaridan ham kelib chiqadigan bo'lsak, shuningdek xalqning uzoq yillik tarixiy tajribasi ham kelajak avlodni, ertangi kun vorislarini xalqimizning boy tarixiy-ma'naviy meroslari asosida tarbiyalashni, ta'lif berishni taqazo etadi. Shuning uchun ham “Abdulla Avloniyning ma'rifikatparvarlik qarashlari asosida barkamol shaxsni tarbiyalash” ta'lif tarbiya jarayonini tashkil qilish boshlang'ich ta'lif o'quvchilarini tarbiyalash eng dolzarb muammolardan biridir.

O'rganilgan adabiyotlar va ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadi, boshlang'ich sinflarda “Abdulla Avloniyning ma'rifikatparvarlik qarashlari asosida barkamol shaxsni tarbiyalash” hozirgi kunda barkamol shaxsni tarbiyalash dolzarb muammolardan ekanligi ushbu mavzuda bitiruv malakaviy ish olib borishimizni taqazo etdi.

**Bitiruv malakaviy ishning maqsadi.** Abdulla Avloniyning ma'rifikatparvarlik qarashlari asosida barkamol shaxsni tarbiyalash” ning shakl va usullarini ishlab chiqib, amaliyotda qo'llash, tahlillar asosida ilmiy xulosalar chiqarishdan iborat.

### **Bitiruv malakaviy ishning o'rganilganlik darajasi.**

XX asr boshlarida O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy hayotida pedagogik fikrlarning rivojida Abdulla Avloniy alohida o'rin egalladi, butun faoliyati davrida u o'z xalqiga xizmat qiladigan komil insonni yetishtirish, uning ma'naviyatini shakllantirishga alohida e'tibor berdi. Avloniy ijodi bo'yicha Begali Qosimov, Yusuf Tohiriy, M. Barakaev kabi olimlarimiz Abdulla Avloniy qoldirgan ma'naviy meroslar ustida ilmiy izlanishlar olib borgan.

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T. Sharq, 1997, 55-bet

**Bitiruv malakaviy ishning ob'ekti.** Boshlang'ich sinf ta'lif-tarbiya tizimida Abdulla Avloniyning ma'rifatparvarlik qarashlaridan foydalanish jarayoni.

**Bitiruv malakaviy ishning predmeti.** “Abdulla Avloniyning ma'rifatparvarlik qarashlari asosida barkamol shaxsni tarbiyalash” ning shakl va usullari, vositalari mazmuni.

**Bitiruv malakaviy ishning vazifalari:**

- barkamol shaxsni tarbiyalashning maqsad va vazifalari hamda imkoniyatlarini aniqlash;

-sharq allomalari asarlarida tarbiya masalalaridan foydalanishning shakl va usullarini ishlab chiqish;

-Abdulla Avloniyning jadidlar maktabidagi ta'lif mazmuni va samaradorligini aniqlash;

-Abdulla Avloniyning asarlarida barkamol shaxsni tarbiyalash borasida ilmiy kuzatishlarni boshlang'ich sinflarda olib borish;

**Bitiruv malakaviy ishning ilmiy farazi:** Boshlang'ich sinf o'quvchilarning ma'naviy ahloqiy qarashlarida sezilarli o'zgarish bo'ladi, agarda:

-darslarida milliy ma'naviy meroslarimizdan samarali foydalanilsa ;

-Abdulla Avloniyning «Turkiy guliston yoxud axloq» asaridan darslarida va sinfdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarda ham muntazam foydalanib borilsa:

**Bitiruv malakaviy ishning ilmiy yangiligi:**

Boshlang'ich sinflar ta'lif-tarbiya jarayonida Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asari barkamol shaxsni shakillantirishning asosiy vositasi sifatida o'rganilganligi.

**Bitiruv malakaviy ishning amaliy ahamiyati.**

Mazkur bitiruv malakaviy ishimizda ishlab chiqilgan dars va tadbirlar ishlansmalari, ilmiy tavsiyalarimizdan, boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'zlarining amaliy faoliyatlarida keng foydalanishlari mumkin.

**Bitiruv malakaviy ishimizning metodologik asosi:** O'zbekiston Respublikasining “Ta'lif to'g'risida”gi va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”

Qonunlari, “Davlat ta’lim standartlari”, oliy ta’limi to’g’risidagi Nizomlar va mehyoriy hujjatlar, Abdulla Avloniyning «Turkiy guliston yoxud axloq» «Usuli jadid» «Adabiyot yoxud milliy she’rlar» hamda «Birinchi muallim» (1912), «Turkiy guliston yoxud axloq» (1913), «Ikkinchi muallim» (1915), «Maktab gulistoni» (1917) kabi darslik va o’qish kitoblari, sharq mutafakkirlarining fikrlari, Ozbekiston Respublikasining birinchi prezident I.A.Karimov asarlari, darsliklar, ilmiy tadqiqot ishlari bo’yicha ilmiy-uslubiy ishlar va metodikalar tashkil etadi.

**Bitiruv malakaviy ishning metodlari.** Mavzuga oid tarixiy, pedagogik adabiyotlarni o’rganish, tahlil qilish, umumlashtirish, tajriba-sinov, suhbat, kuzatish, so’rovnoma, tadqiqot natijalarini umumlashtirish.

### **Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi.**

Bitiruv malakaviy ish kirish, ikki bob, to’rt paragraf, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro’yxatidan iborat.

## **I-BOB. Pedagogika va psixologiyaga oid adabiyatlarda shaxs tarbiyasi masalalari.**

### **1.1. Barkamol shaxsni tarbiyalashning maqsad vazifalari.**

Barkamol avlod - ko`nglida, qalb-qo`rida ishonch va iftixor tuyg`ular mavjlanib turgan avloddir. U nafaqat haq-huquqini, balki fuqarolik burchini ham chuqur anglaydi. Xuddi shu anglash, his qilish qaysi ilm dargohida ta'lim olmasin, qay bir sohada mehnat qilmasin, ulug` yurting an'analariga munosib bo`lishga undaydi.

Hech shubhasiz, har qanday millat o`z farzandlarining barkamol bo`lishini orzu qiladi. Aslida barkamollik juda keng tushuncha. Tilimizning izoqli lug`atida barkamollik quyidagicha ta'riflanadi: "jismoniy va aqliy jihatdan kamolot, voyaga yetish, bekamu ko`s st mukammallik holati va hokazo".

Barkamol shaxsni tarbiyalashda muallimning bilimdon bo`lishi, ma'naviy barkamolligi o'quvchi shaxsining shakllanishiga barkamol shaxs bo`lib voyaga etishida ijobjiy ta'sir o'tkazadi. «Qadimgi ajdodlarimiz», - degan edi. O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.A.Karimov Oliy Majlisining birinchi sessiyasidagi ma'rzasida, - komil inson haqida butun bir ahloqiy talablar majmuasini, zamonaviy tilda aytsak, sharqona axloq kodeksini ishlab chiqqanlar". Ya'ni halollik, rostgo'ylik, axloqiy poklik, odamiylik, kamtarlik kabi fazilatlarga ega bo`lishi ularning yaxshi xulqi, ezgu ishlari, bilimliligi, tarbiyasi mukammalligi barkamol shaxsni voyaga etkazishdagi maqsadni amalga oshgani degan edi. Shundan ko'riniib turibdiki shaxsni komol topishida ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik faoliyat olib borayotgan pedagokga bog'liqlik jihatni kata ekanligini anglashimiz lozim. Demak, o'qituvchi jamiyat hayotida etakchi o'rin tutuvchi murakkab shaxs strukturasiga ega bo'lgan insonning kasbiy qiyofasidir. Ijtimoiy turmushning barcha sohalarida erishilgan yutuqlarning zaminida uning mehnatining natijalari yotadi, o'qituvchilar tayyorlash jarayonida, ularning ham pedagogik, ham psixologik tayyorgarligi va bilimli, muomala madaniyati, milliy va milliy psixologik omillarni e'tiborga olish kerak. Yuksak saviyali zo'r mahoratli tarbiyachilargina xalq

orzusidagi barkamol insonni tarbiyalaydi. Ilm insonni yuksaklik sari olib boradi. A. Avloniy ayttanlaridek: "Ilm insonlarning madori, hayoti, porloq kelajagi, rahbari, najotiga aylangan. Ilm o'rganish inson hoyati uchun oliy va muqaddas fazilatdir. Shuning uchun avvalombor ilmli, tarbiyalı bo'lmoq har bir yosh insonning burchi. Bu maqsaddas ko'ngliga eng oliy orzularni jamlab, o'qituvchi ter to'kib ishlaydi. Ularning mehnatini munosib hurmat qilib bor bilimlarini egallamoq kerak. Behbudiy aytanlaridek: "Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdir".

"Kimga qanday pandu nasihat qilsang, unga avvalo o'zing amal qil".

Milliy istiqlol tufayli taraqqiyotning barcha sohalarida jadal rivojlanib borayotgan mamlakatimizda yosh avlodning bilim darajasini jahon andozalari talablariga javob beradigan, fan-texnika yangiliklaridan xabardor, mustaqil fikrlay oladigan, hayotga dadillik bilan kirisha oladigan, tadbirkor, ma'naviy jihatdan barkamol qilib voyaga etkazish dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Milliy uyg'onish, milliy ongning yangilanishi, milliy g'oya va mafkuraning shakllanishi, millatning o'zligini anglashi, har bir shaxsda intellektual salohiyatni kamol toptirish kabi hayotimizning barcha jabhalarida yangicha mezonlar va tamoyillarning rivojlanishi bilan bog'liq jarayonlarni o'z ichiga oladi. Mustaqil davlatchilik asoslarining bunyod etilishi, tom ma'noda umuminsoniy va milliy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy qadriyatlarga asoslangan davlatni shakllantirishda jahonga mashhur allomalar, ma'rifatparvarlarni, din, madaniyat, adabiyot va san'at arboblarini, ya'ni ma'naviyat yulduzlarni yetishtirgan millatimiz vorislari sifatida o'zining buyuk o'tmishiga nazar solmoqda, buyuk ajdodlarning g'oyalari va ibratli ishlarini o'rganish ta'lim-tarbiyada o'z natijasini bermoqda.

Ayniqsa, barkamol insonni tarbiyalash g'oyasi milliy falsafamizning asosiy vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I. A. Karimov "Barkamol avlod orzusi" asarida "Alloh bergen aql-zakovati bilan to'g'ri yo'lni adashmay topa olishga qodir bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalab etishtirsak, o'ylaymanki, o'z maqsadimizga to'la erishgan bo'lamic" - deb ta'kidlagan edilar. Zero, barkamol insonni tarbiyalash hamda jamiyat taraqqiyoti bir-biri bilan

uzviy aloqada. Bu jarayonni bilish esa, inson tafakkurining qadimgi davrlaridan boshlab, bosqichma-bosqich rivojlanishi va shu bilan birga insonning shakllana borganligi haqida to‘la tasavvur hosil qilishga imkon beradi.

Barkamol avlodni tarbiyalash va mukammallikka yetkazish oiladan boshlanadi. Inson o‘z xayotini oilasiz tasavvur qila olmaydi va aynan mana shu oila muhitida u jamiyat a’zosi sifatida kamolotga erishadi. Oiladagi tarbiya muhiti avvalambor oilaviy munosabatlar madaniyatiga bog‘liq bo‘ladi. Oila boshliqlari bilan bolalarning o‘zaro yaxshi munosabati, o‘zaro totuvlik, mehr-oqibat, g‘amxo‘rlik, ya’ni xonodon qariyalariga hurmat e’tibor, oiladagi bolalarning o‘zaro munosabatlari to‘g‘ri tarbiya vositalarining samaradorligi, ota-onaning bolalar tarbiyasiga barobar jonkuyarligi, oilada o‘rnatilgan to‘g‘ri tarbiya va yaxshi odatlar, ota-onaning mehnatga, ijtimoiy hayot xodisalariga to‘g‘ri munosabatda bo‘lishi, o‘z burchiga mas’uliyatni teran his etishlari kabilar oilaviy munosabat, oila madaniyatining nozik qirralaridir. Ularning qay birida mutanosiblik maqomi buzilsa, demak, o‘sha oiladagi sog‘lom muhitga putur yetadi. Oilada sog‘lom muhit va sog‘lom munosabat mavjud bo‘lsa, oilada ham, millat va jamiyatda ham sog‘lom muhit qaror topib barkamol shaxslar etishib chiqadi.

Shaxs har tamonlama barkamol bo‘lishida jamiyat xayotida qaror topgan ijtimoiy va ruhiy muhitning shakllanishi bevosita inson faoliyatiga bog‘liq. Sog‘lom ijtimoiy muhit yaratuvchisi ham inson sanaladi. Inson fikrlash, so‘zlash va mehnat qilish qobiliyatiga ega bo‘lib, ular tufayli boshqa barcha mavjudot va maxluqotdan ustun turuvchi oliy va muqaddas zotdir. Shunday ekan, shaxs ta’lim-tarbiyasida oila, bog‘cha, mahalla bilan bir qatorda o‘quv muassasalarining ham ta’sirchan roli alohida nufuzga egadir. Bularga maktab, o‘rta-maxsus va oliy o‘quv yurtlari hamda boshqa ma’naviy-ma’rifiy muassasalari kiradi. Ta’lim-tarbiya muassasalaridagi ijtimoiy muhit sog‘lom bo‘lsa, talabalarda shakllangan ijtimoiy-axloqiy fazilatlar, ajdodlarga xos qadriyatlarga munosib hayotga tayyorgarlik darajasi va bilim saviyasi, tafakkur doirasi ham yuqori bo‘ladi.

Tadqiqotlarimiz davomida inson bioijtimoiy faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy muxit bosqichlarini tahlil etar ekanmiz, individning ijtimoiy muhit ta'siri ostida orttirgan barcha bilim va tajribalarining asta - sekin ongi-shuuriga singib, ko'nikmaga, so'ngra malakaga va nihoyat inson ijtimoiy mohiyatining eng cho'qqisi bo'lmish sog'lom hayot tarziga aylantirish bugun eng dolzarb vazifalardan biridir. Inson ijtimoiy muhit bosqichlarini o'z taraqqiyoti davomida ketma-ket bosib o'tadi va har bir bosqichda o'ziga xos ijtimoiy va shaxsiy hayoti uchun zarur bo'lgan ma'lumotga, bilim va ko'nikmaga ega bo'ladi. Bu jarayon shaxsning ma'naviy-axloqiy shakllanishiga ta'sir etadi. Uning kundalik hayot mazmuniga aylanadi.

Inson kamolotiga ta'sir qiluvchi hayot uchun zaruriy muhitlarni quyidagicha ifodalash mumkin.

Inson faoliyatining mazmuniga ko'ra, fanda shaxs bilan muntazam aloqada bo'lgan muhit uch guruhga bo'linadi: kichik muhit (oila, maktab, mактаб jamoasi, do'stlar va tanishlar davrasi). Katta muhit (ijtimoiy tabaqalar, kasbiy guruxlar, milliy guruxlar, demografik guruxlar, diniy guruxlar), umumijtimoiy sharoit. Ushbu muhitlar bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, shaxs ma'naviyati shakllanishiga bevosita yoki bilvosita ta'sir etadi.

Ana shu bosqichlarning eng muhimi va birinchisi oila muhitidir chunki oila inson kamolotining bosh bo'g'ini, davlat tizimining eng muhim instituti, jamiyatimiz o'zagi va negizidir. Shuning uchun ham oilani sajdagoh, Vatanostonadan boshlanadi, deymiz.

Oila shaxsning har tamonlama barkamol bo'lib shakllanishiga bevosita ta'sir etadigan kichik muhit bo'lib, kishilik jamiyatining ma'naviy ildizidir. Oiladagi ma'naviy sharoit ijtimoiy muhit bosqichlari bilan uzviy bog'liqdir. Shuning uchun biz, avvalo, ijtimoiy muhit bosqichlariga to'xtab o'tamiz.

Inson o'z hayotini oilasiz tasavvur qila olmaydi va aynan mana shu oila muhitida u jamiyat a'zosi sifatida tarbiya topadi. Oiladagi tarbiya muhiti avvalambor oilaviy munosabatlar madaniyatiga bog'liq bo'ladi. Ya'ni, ota-onalar bilan farzandlarning o'zaro yaxshi munosabati, qariyalarga hurmat-e'tibor, farzandlarning

o‘zaro munosabatlarining to‘gri yo‘naltirilganligi, ota-onaning farzandlar tarbiyasiga masulligi, oilada o‘rnatilgan namunali tartib va ijobjiy urf-odatlar, ota-onaning mehnatga, ijtimoiy hayot hodisalariga to‘gri munosabatda bo‘lishi kabilar oilaviy munosabatlar madaniyatining nozik qirralaridir. Bularning qay birida mutanosiblik buzilsa, demak, o‘sha oiladagi sog‘lom muhitga putur yetadi va nosog‘lom munosabatlarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi.

Barkamol sog‘lgom avlod tarbiyasiga, ma’naviy shakllanishiga ta’sir etuvchi kichik muhitlardan biri oila kishilik jamiyatining ma’naviy-axlokiy o‘zagi hisoblanadi. Ammo, «Yaxshi oila - yaxshi tarbiyalovchi, yomon oila-yomon tarbiyalovchi», deyuvchilar ko‘p holda xato qiladilar. Ba’zida yomon oilalarning farzandlari ham xavas qilsa arziguek kishi, shaxs bo‘lib voyaga yetishadi, tag-tugli oilalarning farzandlari esa ba’zida loqayd, salbiy axloqiy illatlar sohiblari bo‘lib shakllanadilar. Oilaning bolaga o‘tkazadigan ta’sir kuchi nihoyatda ulkandir. Aynan shu munosabatlar oiladagi psixologik «muhit»ni belgilaydi, bolalarning ongi dunyoqarashi, o‘zini-o‘zi anglashi, odamlarga, hayotga munosabatlarini shakllantiradi. Oila bilan bирgalikda ro‘zg’orni tebratish, birga dam olish, oila a’zolarining qiziqishlari-yu ixlosmandliklari bola ongiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi, aql-idrokiga muhrlanadi. O‘zi sezmagan holda bola turmushning turli sohalaridan, xabardor bo‘ladi, o‘rganadi, ko‘nikma hosil qiladi, avvalo odamlar bilan munosabatda bo‘lish, oqilona muomala qilishni o‘rganadi.

Oilada bolalarning ilk hayotiy tajribasi shakllanadi, u muhim ijtimoiy va ma’naviy-ruhiy qadriyatlarni his eta boshlaydi. Aynan oilada bolaning ma’naviyati, ya’ni, axloqiy qiyofasi shakllanadi, ezgulik va yovuzlik, or-nomus va halollik, burch va mas’uliyat haqidagi tasavvurlari paydo bo‘ladi, oq va qorani taniy boshlaydi. Bu fazilatlarni muktab rivojlantiradi, hayot sayqal beradi, ammo ularning asosiy poydevorini oila shakllantiradi («Qush uyasida ko‘rganini qiladi», -deb bejiz aytishmaydi). Va nihoyat, oila muhitida rivojlanayotgan bolalar o‘zlariga kasb-hunar tanlaydilar. Muktabda kasbga yo‘naltirish ishlari oliy darajada bo‘lsa-da, bolaning hayotda o‘z o‘rniga ega bo‘lishida ota-onalarning roli nihoyatda muhim. Bolaga

g‘amxo‘rlik qilish lozim, ammo u xam sizning g‘amxo‘rligingizni his etsin, unga o‘zgalarni hurmat qilish bilan birga o‘zini ham izzatda tutishini uqtirish kerak. Bu hammaga ayon haqiqat, ammo, afsuski, uni ko‘pincha esdan chiqarib qo‘yamiz, xususan - yolg‘iz bolalik oilada «yolg‘izim-yalmog‘izim», -deyishadi. «Yolg‘iz bolag‘a ko‘p hollarda oilaning katta yoshdagi a’zolari ko‘proq e’tibor berib, keragidan ortiq g‘amxo‘rlik qilishadi. Natijada bola erkatoy, serxarxasha, ta’magir bo‘lib qoladi. Barkamol shaxsni tarbiyalashda bola yomon yoki yaxshi xulqli, fe'l-atvorli bo‘lib tug‘ilmaydi. Uning ijtimoiylashuvi jarayonida oila muhiti, jamiyat, ota-onaning, qarindoshlarning, atrof-muhitdagi kishilar munosabatlarining ta’siri hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ayniqsa, ota-onaning o‘zaro munosabati, yurish-turishi muhim ahamiyat kasb etadi. Oiladagi totuvlik, xamjihatlik, o‘zaro hurmat va yordam, shirinsuxanlik, mehnatsevarlik va to‘g‘rilik bolaga ijobiy ta’sir qiladi.

1997 yil 6 oktyabrda Prezidentimizning "Ta'lim - tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni voyaga etkazish to‘g‘risida"gi Farmoni e’lon qilinib, bunda shunday deyiladi: "Ta'lim muassasalarida birinchi navbatda Oliy ta'lim muassasalari professor-pedagogik xodimlar safidan etuk o‘qituvchi kadrlar tayyorlash ularni rivojlangan xorijiy mamlakatlar ta’limidagi ijobiy tajribalarini o‘rganishi uqitishning yangi pedagogik texnologiyalari bilan tanishishi va chet ellarda tajriba orttirishini ta'minlash maqsadida "Ustoz" respublika jamg’armasi tashkil etilsin". Bu farmondan ko‘rinib turibdiki barkamol shaxs tarbiyasida avvalo tarbiyachilarning o‘rni beqiyosligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimovning «Har qaysi inson Alloh taolo ato etgan noyob qobiliyat va isde'dodini avvalo o‘zi uchun, oilasining, millati va halqining, davlatining farovonligi, baxt-saodati, manfaati uchun to‘liq baxshida etsa, bunday jamiyat shu qadar kuchli taraqqiyotga erishadiki, uning sur'at va samarasini hatto tasavvur ham qilish oson emas»<sup>2</sup> - degan edilar.

Mahallada yaratilgan ijtimoiy-psixologik muxit farzand tarbiyasiiing sayqallanishi, uning shaxs sifatida kamol topishida asosiy o‘rin egallaydi, o‘smirlar

<sup>2</sup> Barkamol avlod orzusi Tuzuvchilar: Sh.Qurbanov, X Saidov, R.Axliddinov. -T.: Sharq, 1999. 173 b.

obro‘li mahalla-oqsoqollaridan hayiqib turadilar, ularning salobati hayot tajribasidan ibrat olib, o‘gitlari ta'sirida o‘zlarini nojo‘ya hatti-harakatlar ta'siridan tiyadilar.

Kimdandir hayiqmagan bola bebosh bo‘lib o‘sishi hech gap emas. Qizlar esa, hayo va iboni dastlab oilada, keyin mahallada o‘rganadilar, kattalardan dakki eshitmay deb ochiq-sochiq ko‘cha-kuyga chiqavermaydilar. Bo‘lajak kelin yoki kuyovlarning qandayligini ota-onalar mahalla keksalaridan surishtiradilar. Shu sababli «Bir bolaga yetti mahalla ota-onadir» degan naql bor.

Istiqlol tufayli yangidan qaddini rostlayotgan mahallalarimiz yangicha mazmun kasb etmoqda, ijtimoiy-madaniy hayotda tub o‘zgarishlar ro‘y berishda muhim omil vazifasini o‘tamoqda. Tamaddunning haqiqiy darajasi mamlakatda tarbiyalanayotgan insonlar qiyofasi bilan belgilanadi. Ajdodlarimizning moziyga muhrlangan faoliyat sarhadlarida bunga aniq dalillar bisyor. Soqibqiron Temur bobomizni, Navoiy, Bobur hazratlarini olaylik. Ularning kamoli uchun davrning shiddatli bo`ronlari ham to`sinq bo`la olmagan. 5 yoshli Alisherning biyron she'r mutolaa qilishlari, Bobur mirzoning o`qli g`azallari, dunyoni lol qoldirgan adolatpesha Temurning 7 yoshidanoq jang sirlarini o‘rganishi, ovchilik, merganlik usullarini egallab olishi haqida juda ko`p manbalarda hikoya qilinadi. Biz ana shunday fikri teran, iqtidori butun, zukko va donishmand ajdodlarning vorislarmiz. Ularning tarixda qoldirgan izlari asrlar osha sayqallanib, biz uchun ibrat maktabi bo`lib yashayveradi.

Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq sog`lom, barkamol avlodni voyaga yetkazish muhim va ustivor vazifaga aylandi. Rivojlanayotgan jamiyatimizning o‘z oldiga qo`yan oliyjanob maqsadi kelajagi buyuk davlatni barpo etish vazifasi shuni taqozo etadi.

Jismonan sog`lom, bilimli, ma'naviy barkamol, yetuk insonni tarbiyalash mavzusi sharq allomalari tomonidan chuqur o`rganilgan. Ibn Sino, Bahovuddin Naqshbandiy, Najmiddin Kubro kabi ulug` allomalarning asarlari va nazariy ta’limotlarida ham yosh vujudni kamol toptirish, tarbiyalashga katta ahamiyat qaratilganligi beziz emas.

Azaldan zukko ajdodlarimiz o`z milliyligini, ma'naviy boyligini saqlabgina qolmasdan, ezgulik, ilmu ma'rifat, mustaqillik singari ezgu g`oyalar sari intilganlar. Millatimizga xos ana shunday intilish, millatparvarlik, vatanparvarlik, insonparvarlik kabi fazilatlar, shuningdek, buyuk mutafakkirlar hamda ma'rifatchilar xatti-harakatlari tufayli xalqimiz har qanday sharoitlarda ham barkamol, ma'nan yetuk farzandlar tarbiyalash vazifasini yoddan chiqarmagan. Bu jarayon bevosita jamiyat rivojlanishining poydevorini mustahkamlash maqsadi bilan ham uzviydir. Ammo bu maqsad nafaqat kundalik faoliyat mezonida balki, jamiyat va oila hayotida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o`zaro uyg`unlashtirishda ham namoyon bo`lgan va bugungi kunda ham o`ziga xos taraqqiyot yo`limizda namoyon bo`lmoqda.

Barkamol avlod - ko`nglida, qalb-qo`rida ishonch va iftixor tuyg`ular mavjlanib turgan avloddir. U nafaqat haq-huquqini, balki fuqarolik burchini ham chuqur anglaydi. Xuddi shu anglash, his qilish qaysi ilm dargohida ta'llim olmasin, qay bir sohada mehnat qilmasin, ulug` yurtning an'analariga munosib bo`lishga undaydi.

Hech shubhasiz, har qanday millat o`z farzandlarining barkamol bo`lishini orzu qiladi. Birinchi Prezidentimiz I. A. Karimov shunday degan edi “Farzandlarimiz bizdan ko`ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo`lishlari shart” degan edildi.

Aslida barkamollik juda keng tushuncha. Tilimizning izoqli lug`atida barkamollik quyidagicha ta'riflanadi: "jismoniy va aqliy jihatdan kamolot, voyaga yetish, bekamu ko`sht mukammallik holati va hokazo".

Darqaqiqat, biz har qanday odamga uning nechog`lik kamolotga erishganiga qarab baho beramiz. Jumladan, barkamol shaxs, barkamol ijod deymiz. Hoyat yetuklikni esa tabiat barkamolligiga qiyoslaymiz.

Davlatimizning bosh siyosati ham kelajak avlodning istiqlolini ta'minlashga, zarur shart-sharoit yaratishga, ularni yetuk insonlar qilib tarbiyalashga qaratilgan. Yuzlab kollej, va litseylar, ko`plab sport inshootlari, komp'yuter va internet kabi zamонавија texnika vositalari yoshlarimiz ixtiyoridadir. Bugun yuksak cho`qqilarga

erishayotgan yoshlarni kuzatib, hayratimiz ortadi. Sport arenalarida, san'at pillapoyalarida erishayotgan yutuqlaridan behad g`ururlanamiz. Har yili adabiyot, san'at, madaniyat, fan va ta'lif sohalarida kashf etilayotgan iqtidorli yoshlar Zulfiyaxonim nomidagi davlat mukofoti laureatlari, "Kelajak ovozi" g`oliblari shular jumlasidandir.

"O`zbekiston madaniyati va forumi" jamg`armasi hamda "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati tashabbusi bilan o`tkazilib kelinayotgan mazkur tanloving nufuzi yildan yilga ortib bormoqda. Buni tanlovda ishtirok etish istagini bildirgan yoshlar sonidan ham bilsa bo`ladi.

"Kelajak ovozi" yoshlar tanlovi - o`z nomi bilan kelajakning yorug` manzillariga intilayotgan iqtidorli yoshlarni kashf eta boshladi. Nigohlarimiz mazkur tanloving mazmun va mohiyatiga qaratildi. Buni qarangki, bugunning yoshlari qalbida o`z yaratuvchanlik ishlari namunalariga ishonch bisyor. Bugungi davr yoshlarini kitob mutolaasiz tasavvur qilib bo`lmaydi. Kitob do`s, kitob, suyanchiq, kitob ma'naviy kamolotimiz tayanchidir. Undan ziyo olamiz, kuch topamiz. Ezgu ishlarga yuksalamiz. Kitob olamidagi buyuk kashfiyotlar, sevgan asarlarimizdagi qahramonlarning kechinmalari, ezgu ishlari qalblarimizni nurlantiradi.

Odamzod o`z yurtini faqat asl boyliklari uchun sevmaydi, har bir inson: "Men nechun sevaman O`zbekistonni" degan teran ma'noli savolga o`zi javob bera olishi, ona zaminining xosiyatini qalban his eta bilishi kerak. Shuning uchun Prezidentimiz "Vatan - yagonadir, Vatan - bittadir", degan g`oyani, shu mo`tabar zaminimizda yashayotgan har bir inson, avvalambor unib-o`sib kelayotgan yosh avlod ongi va tafakkuriga singdirish, uning hayotiy ehtiyojiga aylantirish muhim vazifa ekanligini takror-takror ta'kidlaydilar. Vatan ravnaqi deganda yurtimiz hayotining barcha sohalari bo`yicha rivojlanish va yuksalishi mamlakatimizning jahondagi obro`-e'tibori, yanada ortishini tushunamiz.

Bir so`z bilan aytganda, yurtimiz yoshlarining har bir vakili ertangi kunining yorug` orzulariga eng ezgu umidlar bilan boqa bilishi farz. Toki, yoshlarga bo`lgan

ishonch va umid ustunlari ko`kga bo`y cho`zgan ulkan daraxtlar singari yuksalaversin. Xulosa o`rnida shuni aytishimiz lozimki biz bugun tarbiyalayotgan yoshlarimiz o`zimizning ertangi kunimizdir. Barkamol shaxs tarbiyasida yurtimizda ta'lim-tarbiya olishi va barcha orzu umidlarni amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratilgandir. Yoshlarimizni har tamonlama bilimli, zukko, aqli, odob va axloqi milliylikga xosligini ta'minlashimiz hamda bu borada juda e'tiborli bo'lishimiz shartdir. Sbabi bizning tinchligimizni ko'rolmagan ba'zi kimsalar yoshlarimizni o'z qabih ishlariga sherik qilib olish maqsadidadir. Shunday ekan yoshlarimizning yo'ldan og'ishmay vatanni sevuvchi barkamol shaxs qilib tarbiyalash bilimli, kuchli, aqli, umuminsoniy qadriyatlarimiz asosida yoshlarimizni voyaga etkazish barchamizning bosh maqsadimizdir.

## **1.2. Sharq allomalari asarlarida tarbiya masalalari.**

Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiya, oila va oilaviy tarbiya hamda komil inson haqidagi qarashlari hozirgi kunda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Sharq mutafakkirlari ijodida aks etgan umuminsoniy g'oyalar islomiy ma'naviyat bilan hamo-hangdir. Sharq mutafakkirlarining ilmiy merosida oila va oilada farzand tarbiyasi masalalariga katta e'tibor bergenlar. Inson hamisha odamlar qurshovida yashaydi, ijtimoiy muhit sharoitida uning aqliy rivojlanishi, fikrlash qobiliyati rivojana boradi. Bunda insonning aqliy rivojlanishi uchun sharoitlar bo'lishi kerak. Sharq mutafakkirlari o'z asarlarida bilish hamda inson aqliy tafakkuri masalalariga alohida o'rinnan bergan. Allomalarimiz inson tomonidan borliqni anglanishi, tabiat sirlarini anglashida ilm-fanning rolini hal qiluvchi omil sifatida baholaydi. Sharq allomalar fikricha, inson tanasi, miyasi, sezgi organlari u tug'ilganda mavjud bo'lgan bo'lsa, aqliy bilimi, ma'naviyati, ruhiyati, intellektual va axloqiy sifatlari, xarakteri, dini, urf-odatlari, ma'lumoti tashqi olam, ijtimoiy muhit ta'sirida, odamlar bilan tashkil etayotgan munosabatlari jarayonida shakllanadi.

Sharq mutafakkirlari Ahmad al Farg'oniy, Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Imom Ismoil al-Buxoriy, Iso at-Termiziy, Abu Abdulloh Rudakiy, Abdulqosim Firdavsiy, Ahmad Yassaviy, Mahmud Qoshg'ariy, Mahmud Zamaxshariy, Yusuf Xos Hojib, Najmiddin Kubro Alisher Navoiy kabi buyuk allomalarimiz insonning ta'lim-tarbiyasi, odob-axloqi, muloqoti va boshqa ko'plab qimmatli ma'lumotlarni qoldirganlar.

Pedagogika tarixi qadimgi zamonlardan, hozirgi kungacha bo'lgan turli xil davrlarda tarbiya, mакtab va pedagogika nazariyasining tarqqiyotini davrlar taraqqiyoti talabi

asosida o'rganib keladi. Har bir ijtimoiy tuzum uning kelajagi insoniyat istiqboli, kishilarning turmush darajasini fan va madaniyat taraqqiyoti bilan bevosita bog'liqdir.

Sharq mutafakkirlari inson kamolotida ilmlilik va axloqlilikni eng muhim mezoni deb hisoblaydi. Odobli, axloqli ilimli bo'lismish insonga atrofdagi kishilar o'rtaida muayyan mavqe hamda hurmatga sazovor bo'lismishga yordam beradi. Shunday ekan mutafakkirlarimiz ilm va odobga ega bo'lismining inson hayotidagi rolini ko'rsatib berar ekan, yoshlarimizga buyuk ajdodlarimizning ma'naviy merosidan bahramand qilib borishimiz maqsadga muofiqdir.

Markaziy Osiyo xalqlarining shonli tarixidagi eng yorqin sahifalaridan biri bo'lgan ilk o'rta asrlar haqli ravishda uyg'onish davri deb ataladi. Chunki bu davrdagi ilm-fan, madaniyat, san'at, adabiyot, falsafiy, diniy fikrlar taraqqiyoti insoniyat tafakkur xazinasiga qo'shilgan katta hissa bo'lib, asrlar mobaynida necha-necha avlodlarimizni o'zining sermazmunligi, insonparvarligi bilan hayratga solib kelmoqda. Xususan, O'zbekistonning bugungi mustaqillik sharoitida o'tmish ajdodlarimizning g'oyalari, namunali ishlari muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Musulmonlarning muqaddas kitobi «Qur'on»ning «Zumar» surasining 9-oyatida shunday deyiladi: «Ayting: Biladigan zotlar bilan bilmaydigan kimsalar barobar bulurmu?». Darhaqiqat, faqat aql egalarigina pand-nasihat qila olurlar<sup>3</sup>.

Sharq uyg'onish davrida Markaziy Osiyo xalqlarining fan va madaniyati yangi sharoit va extiyojlar asosida rivojlantirildi. Masalan, savdo va tashqi aloqalarni mustahkamlash borasida karvonlarning kechalari cho'llarda adashmay yurishlari uchun sharq, g'arb, shimol, janub tomonlarni bilish, yulduzlardan, ya'ni qutb yulduzidan yo'lni aniqlash kabi extiyojlar tug'ildi. Davr va ijtimoiy muhit extiyojlarini negizida falakiyot, matematika, tibbiyot xamda ijtimoiy fanlar va qadriyatlarimiz rivojlandi. Ijtimoiy muhitning shakllanishi va rivojida ajdodlarga xos oliy, o'lmash qadriyatlarning xam ahamiyati kattadir.

---

<sup>3</sup> Qur'oni Karim. -T.: G'afur G'ulom, 1992. 33

Qadriyat bu jamiyat, inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan barcha narsa, hodisa va voqyealar, erkinlik, ezgulik, tenglik, tinchlik, haqiqat, ma'rifat, madaniyat, moddiy va ma'naviy boyliklar, obida-yodgorliklar, go‘zallik, axloqiy xislat va fazilatlar, an'ana, urf-odat, udum va boshqalar qadriyat hisoblanadi<sup>4</sup>. Inson butun umri davomida, son-sanoqsiz qadriyatlar olamida yashaydi<sup>5</sup>. Ana shu milliy qadriyatlarimizdan biri O‘rta Osiyo mutafakkirlarining ijtimoiy muhit va ta’lim-tarbiyaning aloqadorligi haqidagi qimmatli fikrlaridir.

Abu Nasr Forobi (873 - 950) o‘rta asr ijtimoiy – falsafiy fikr taraqqiyoti mutafakkir Abu Nasr Forobi nomi bilan bog’liq bo‘lib, uning inson kamoloti xaqidagi ta’limoti ta’lim – tarbiya soxasida katta axamiyatga ega. Mashxur Yunon faylasufi Arastudan keyin Sharqda o‘z bilimi, fikr doirasining kengligi bilan nom chiqargan Forobiyni yirik mutafakkir – «Muallimiy soniy» - «Ikkinch muallim» deb ataydilar. Abu Nasr Forobi (to’liq nomi Abu Nasr Muxammad ibn Muxammad ibn Uzaliq ibn Tarxon al-Forobi) xijriy 260 yil (milodiy 873 yil) da Shosh – Toshkentga yaqin Forob (O’tror) degan joyda xarbiy xizmatchi oilasida tug’ilgan. Forobiya ta’lim tarbiyaga bag’ishlangan asarlarida ta’lim – tarbiyaning muxumligi, unda nimalarga e’tibor berish zarurligi, ta’lim – tarbiya usullari va uslubi xaqida fikr yuritadi. «Fozil odamlar shaxri», «Baxt saodatga erishuv to’g’risida», «Ixso – al - ulum», «Ilmlarning kelib chiqishi», «Aql ma’nolari to’g’risida» kabi asrlarida ijtimoiy – tarbiyaviy qarashlari o’z ifodasini topgan. Forobiya axloqiy fazilatlar deganda bilimdonllik, donolik va muloxazali bo’lish, vijdonlilik, kamtarlik, ko’pchilik manfaatini yuqori qo’yish, xaqiqat, ma’naviy yuksaklikka intilish, adolatliylik kabi xislatlarni tushunadi. Ammo bu xislatlarning eng muxumi xar bir insonning bilimli, ma'rifatli bo’lishidir. Shuning uchun xam Forobiya axloq tushunchasiga aql bilan uzviy bog’liq xolda, tafakkurga asoslangan axloq sifatida qaraydi. Bundan biz Forobiyning axloqni xulq me’yorlari ifodasi sifatidagini emas, balki kishilarning aqliy faoliyatining natijasi sifatida xam talqin etganligini ko’ramiz.

<sup>4</sup> Nazarov. Aksiologiya: Qadriyatlar falsafasi. -T.:Ma'naviyat. 1998. 122 b.

<sup>5</sup> Falsafa: qisqa izohli lug’at. -T.: Sharq, 2002.

Forobiy inson tarbiyada kamolotga yolg‘iz o‘zi erisha olmaydi. U boshqalar bilan aloqada bo‘lish, ularning ko‘maklashuvi yoki munosabatlariga muhtoj bo‘ladi, deb hisoblaydi. Bunga ta’lim-tarbiyani to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish orqali erishish mumkin, chunki maqsadga muvofiq amalga oshirilgan ta’lim-tarbiya insonni aqliy va axloqiy jihatdan kamolga yetkazadi, xususan, inson tabiat va jamiyat qonun-qoidalarini to‘g‘ri bilib oladi va hayotda to‘g‘ri yo‘l tutadi, boshqalar bilan to‘g‘ri munosabatda bo‘ladi.

Demak, Forobiy tarbiyaning asosiy vazifasi jamiyat talablariga javob bera oladigan va shu jamiyat uchun xizmat qiladigan yetuk barkamol insonni tarbiyalashdan iborat deb biladi.

Forobiy ta’lim va tarbiyaga birinchi marta ta’rif bergan olim sanaladi. “Ta’lim degan so‘z insonga o‘qitish, tushuntirish asosida nazariy bilim berish, tarbiya - nazariy fazilatni, ma'lum xunarni egallash uchun zarur bo‘lgan xulq normalarini va amaliy malakalarni o‘rgatishdir” deydi olim. Allomaning ta’kidlashicha, «Ta’lim - degan so‘z xalqlar va shaharliliklar o‘rtasida nazariy fazilatni birlashtirish, tarbiya esa shu xalqlar o‘rtasida tug‘ma fazilat va amaliy kasb-hunar fazilatlarini birlashtirish degan so‘zdir. Ta’lim faqat so‘z va o‘rgatish bilangina bo‘ladi. Tarbiya esa, amaliy ish tajriba bilan, ya’ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalardan iborat bo‘lgan ish-harakat, kasb-hunar, o‘rganishidir»<sup>6</sup>.

Forobiy tarbiya deganda bilimdonlik, donolik va mulohazali bo‘lish, vijdonlilik, kamtarinlik, ko‘pchilik manfaatini yuqori qo‘yish, haqiqat, ma’naviy yuksaklikka intilish,adolatlilik kabi xislatlarni tushunadi. Ammo bu xislatlarning eng muhim har bir insonning bilimli, ma'rifatli bo‘lishidir. Shuning uchun ham Forobiy axloq tushunchasiga aql bilan uzviy bog‘liq holda, tafakkurga asoslangan axloq sifatida qaraydi. Bundan biz Forobiyning axloqni xulq me'yorlari ifodasi sifatidagina emas, balki kishilarning aqliy faoliyatining natijasi sifatida ham talqin etganligini ko‘ramiz.

---

<sup>6</sup> Abu Nasr Forobiy. Baxt-saodatga erishuv haqida. Risolalar. -T.:Fan, 1975, 76 b.

Forobiyning tarbiya yo'llari, usullari, vositalari haqidagi qarashlari ham qimmatlidir. U insonda go'zal fazilatlar ikki yo'l -ta'lim va tarbiya yo'li bilan hosil qilinadi. Ta'lim nazariy fazilatlarni birlashtirsa, tarbiya esa tug'ma fazilat - nazariy bilimlar va amaliy kasb-hunar, xulq-odob fazilatlarini birlashtiradi, ta'lim so'z va o'rganish bilan, tarbiya esa amaliy ish, tajriba bilan amalga oshiriladi, deydi. Har ikkalasi birlashsa, yetuklik namoyon bo'ladi, ammo bu yetuklik bilim va amaliy ko'nikmalarni qay darajada o'rganganligiga qarab paydo bo'ladi, deb ko'rsatadi.

Forobiy ta'limda barcha fanlarning nazariy asoslari o'rganilsa, tarbiyada ma'naviy-axloqiy qoidalar, odob me'yorlari o'rganiladi, kasb-hunarlarga oid malakalar hosil qilinadi, deb uqtiradi. Bu muhim vazifa tajribali tarbiyachilar tomonidan ta'lim-tarbiyaning turli metodlari yordamida amalga oshiriladi.

Forobiy ta'lim-tarbiya ishlarini ikki yo'l bilan amalga oshirishni nazarda tutadi. «Amaliy fazilatlar va amaliy san'at (kasb-hunar) lar va ularni bajarishga odatlanish masalasi»ga kelganda, bu odat ikki yo'l bilan hosil qilinadi: bulardan birinchisi - qanoatbaxsh so'zlar, chorlovchi, ilhomlantiruvchi so'zlar yordamida odat hosil qilinadi, malakalar vujudga keltiriladi, odamdagи g'ayrat, qasd-intilish harakatga aylantiriladi. Ikkinci yo'l (yoki usul) - majbur etish yo'li. Bu usul gapga ko'nmovchi qaysar shaharliklar va boshqa sahroyi xalqlarga nisbatan qo'llaniladi. Chunki o'z istaklaricha, so'z bilan g'ayratga kiradiganlardan emaslar. Ulardan birortasi nazariy bilimlarni o'rganishga kirishsa, uning fazilati yaxshi bo'ladi. Kasb-hunarlarni va juz'iy san'atlarni egallashga intilish bo'lmasa, bunday odamlarni majbur etmaslik kerak. Chunki shahar xalqlariga tarbiya berishdan maqsad - ularni fazilat egasi qilish va san'at ahllariga aylantirishdir<sup>7</sup>.

Demak, Forobiy ta'lim-tarbiyada rag'batlantirish, odatlantirish, majbur etish metodlarini ilgari surgan. Har ikkala usul ham insonni har tomonlama kamolga yetkazish maqsadini ko'zlaydi.

---

<sup>7</sup> Abu Nasr Forobiy. Baxt-saodatga erishuv haqida. Risolalar. -T.:Fan, 1975, b. 77-78.

Xulosa qilib aytganda, Forobiy pedagogik ta'limotning asosida komil insonni shakllantirish, insonning o‘z mohiyati bilan ijtimoiyligi, ya’ni faqat jamiyatda, o‘zaro munosabatlar jarayonida komillikka erishadi, degan falsafiy qarashi yotadi.

Ibn Sino (lot. Avitsenna, 980 - 1037 y.) o‘zining «Shifo kitobi» va «Tabiat durdonasi» asarlarida jismlarning o‘zaro aloqadorligi va bir-biriga ta’siri tushunchalari orqali, Oy, Quyoshning odamlarga, hayvonot va o‘simliklar olamiga ta’siri, yomg‘ir, qor, do‘l, sabzavotlar pishishining tezlashuvi, kishilar tanasida sodir bo‘ladigan o‘zgarishlarning asl sabablarini yoritib bergen.

Ibn Sinoning fikricha, inson omiliga tabiiy va ijtimoiy muhitning ta’siri alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, uning taraqqiyotiga jonli mushohada va ijtimoiy tabaqalarning ta’siri muhim ekanligi qayd etilgan.<sup>8</sup> Voqyelikni ma’naviy o‘zlashtirish inson zotiga xos. Insonning hayvonlardan farqi shundaki, Olloh unga aql in’om etgan. U tufayli inson ezgulikni yovuzlikdan, intellektual yetuklikni yolg‘on-yashiq, adashishdan, do’stni dushmanidan ajrata oladi. Aql nuri insonni tasodifiy kuchlar ta’siridan ozod shaxsga aylantiradi. Aql «donishmandlik tarozisi»dir. Bilish jarayonida sezgi a’zolari va ularga tayangan mushohada aqlning eng yaqin ko‘makchilari vazifasini bajaradi. Mantiq ilmi vositasida inson bilmagan narsasini oldin bilib olgan narsasi orqali bilib boradi, to‘g‘ri tafakkur yuritish ko‘nikmalarini hosil qiladi.

Ibn Sino fikrlarining asl mohiyati shundaki, inson hayot taraqqiyoti davomida olgan barcha bilim, ko‘nikma va malakalarini ijtimoiy muhit ta’sirida jonli voqyelikka aylantirib boradi va uning aytishida inson qanchalik ko‘p bilim egallasa ongi tafakkuri o’sib jamoa hamda jamiyatda tarbiyaviy ya’ni axloqiy sifati namoyon bo’lishini ta’kidlagan.

Shu kabi fikrlarni biz Abu Rayhon Beruniy (973-1048 y.) asarlarida ham uchratishimiz mumkin. Beruniyning ma’naviy-axloqiy qarashlari bilan bog‘liq ta’limotida mehnat, odob-axloq, ta’lim-tarbiya, kasb-hunar, ilm-ma’rifat uzviy mushtaraklikda, bir butunlikda tahlil etilgan. Inson amaliy faoliyatining biron-bir

---

<sup>8</sup> Qarang: Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. K.1. -T.: Yozuvchi. 1996.

sohasi ularning o‘zaro ta’sirisiz amalga oshmaydi, deb yozgani ham bejiz emas, albatta<sup>9</sup>.

Beruniyning ma’naviy-axloqiy ta’limotida ikkiyuzlamachilik, yolg‘onchilik, tuhmat, qo‘pollik, o‘g‘rilik, bir-birining payiga tushish, xudbinlik singari yomon xulqlar toifasiga kiritiladi. Rostlik, odillik,adolat, bular Beruniy fikricha, yuksak ma’naviyat, go‘zal odob-axloq belgisidir. O‘z zararing hisobiga bo‘lsa-da, rost gapir, haqiqatdan yuz o‘girma, har bir narsaga odilona va xolisona yondash, deb ta’lim beradi va o‘zi mazkur g‘oya va ta’limotlarga bir umr sodiqlikning ibrat-namunasiga aylanadi<sup>10</sup>.

Beruniyning fikricha, insonparvarlik - kishilarning ma’naviyat darajasi, u o‘zida ijobiy axloqiy xislatlarni tarbiyalay olishi bilan ham bog‘liq. Aqli odam faqat o‘tkinchi bo‘lmagan aqliy ishlar, qadriyatidan lazzatlanadi. Insonning ma’naviy qiyofasi va turmush tarzi esa uning o‘z his-tuyg‘ularini qanday boshqara olishi bilan bog‘liq.

Abu Rayhon Beruniy insonga tabiatning gultojisi deb qarar ekan, har bir inson aql-zakovatli, yuksak axloqli, bilim-ma'rifatli bo‘lishi lozim deydi. Uning hamma asarlarida inson kamoloti uning tafakkurining rivojlanishi, sog‘lom va jismonan baquvvat bo‘lishiga bog‘liqligi ta'kidlanadi. Beruniyning aqliy tarbiya haqidagi qarashlari uning ilm olish, bilish jarayoni haqidagi fikrlarida o‘z ifodasini topadi.

Beruniy ilmiy bilimlarni egallash jarayonida o‘quvchilarni zeriktirmaslik, yangi mavzularni qiziqarli, asosli, ko‘rgazmali bayon etishni tavsiya etadi. Beruniyning fikricha, aqliy tarbiyani amalga oshirishdan maqsad barkamol insonni tarbiyalashdir. U barcha salbiy illatlarning kelib chiqishidagi asosiy sabab ilmsizlik, deb tushuntiradi. Beruniy o‘z asarlarida jamiyat ravnaqi ma'rifatning rivojlanishiga bog‘liq, degan g‘oyani ilgari surgan. Abu Rayhon Beruniy tarbiya insonning go‘zalligini belgilab berishini odamzod tarbiyasi bilan boshqalarda yaxshi yoki salbiy

<sup>9</sup> Abu Rayhon Beruniy. qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. T.: Fan, 1989, 40 b

<sup>10</sup> Abu Rayhon Beruniy.Hindiston. -T.: Fan, 1966, 25 b.

tasurot qoldiradi deydi, tarbiyalanganlikni muloqot, muomila, izzt ikrom, hurmat, e'zozlash umuman olganda insonparvarlik deya ta'kidlaydi.

“Saxix” yo'nalishining asoschisi eng etuk va mashxur muxaddis Abu Abdullox Muxammad ibn Ismoil al-Buxoriydir. Imom Ismoil al-Buxoriy hadis ilmida “Amir-ul-mo'minin”, “Imom al-muxaddisiyn” (“Barcha muxaddislarning peshvosi”) degan sharaflı nomga sazovor bo'lgan. U 810 yilning 13 mayida (ba'zi manbalarda 810 yilning 20 iyulida) (xijriy 194 yil shavvol oyining 13 kuni) Buxoroda tug'ilgan. Go'dakligida otadan etim qolgan. Dastlabki savodini maktabda chiqargan, 10 yoshidayoq arab tilida yaratilgan kitoblar yordamida xamda roviylardan og'zaki ravishda eshitish asosida xadislarni yodlay boshlagan. Alloma xadis ilmini zo'r ishtiyoy va katta qiziqish bilan o'rgandi. Abdullox ibn al-Muborak, Vaqi' ibn Jarrox kabi olimlar tomonidan to'plagan xadislarni yod olgan, shuningdek, xadis rivoyatchilari xususida so'z yuritilgan bahslarda ishtirot etgan.

Islom dini insonni ma'naviy kamolot sari yetaklovchi ta'limotdir. Shu sababli Qur'oni Karimda ham, xadislarda xam yaxshi xulq-odob qoidalari va ularga kishilarning qat'iy amal qilishlari lozimligi borasidagi qarashlar keng targ'ib etilgan. Imom Ismoil al-Buxoriyning “Al-jome' as-saxix” asarining bir jildiga odob-axloq masalalarini yorituvchi xadislar jamlangan bo'lsa, “Al-adab al-mufrad” (“Adab durdonalari”) nomli asarda ham ijtimoiy turmushda hamda insonlar o'rtasida o'zaro munosabatlarni tashkil etish chog'ida amal qilinishi lozim bo'lgan odob-axloq qoidalari borasida yanada batafsil ma'lumotlar berilgan. Ushbu asar 644 bobda bayon etilgan 1322 ta xadisni o'z ichiga olgan. Yuqoridagi Ismoil al-Buxoriyning asaridan ko'rinib turibdiki tarbiya insonning odob-axloqi ekanligini tushunishimiz qiyin emas.

Mashxur muxaddislardan yana biri vatandoshimiz Muxammad ibn Iso at-Termiziy bo'lib, u 824 yilda Termiz yaqinidagi Bug' qishlog'i (xozirgi Surxondaryo viloyatining Sherobod tumani) da tug'ilgan. Uning oilasi va ota-onasi xaqida ma'lumotlar yo'q. Ba'zi tadqiqotchilar uning otasi asli marylik bo'lgan deb qayd etadilar.

Alloma tomonidan o'ndan ortiq asarlar yaratilganligi ma'lum. Bular qatoridan

“Al-jome’ as-saxix” (“Ishonchli to’plam”), “Ash-shamoil an-nabaviya” (“Payg’ambarning aloxida fazilatlari”), “Al-ilal fi-l-hadiys” (“Hadislardagi illatlar va og’ishlar haqida”) kabi asarlari o’rin olgan bo’lib, ular juda mashxurdir.

Muxammad ibn Iso at-Termiziyy tomonidan yozib qoldirilgan asarlarda o’z ifodasini topgan hadislar xam Imom Ismoil al-Buxoriy tomonidan bayon etilgan xadislari kabi insonni halollik,adolat, e’tiqod, diyonat, poklik, mexnatsevarlik, muruvvatlilik, mexr-shavqat, yoshi kattalar, ota-onas va qarindoshlarga xurmat g’oyalarini ilgari surish xususiyatiga ko’ra shaxs tarbiyasini tashkil etishini ta’kidlaydi.

Najmiddin Kubro (1145-1221) ning maqsadi odamlarni ham jismonan, ham aqlan, ham ruhiy-ma’naviy jihatdan yetuk qilib tarbiyalash bo‘lgan. Ta’lim-tarbiya axloqiy poklik, mardlik, hojatbarorlik g’oyalarini targ‘ib etdi. Ilojni sevish bilan yaxshi insonlarni sevishni birga olib qaradi, nafsni qattiq nazorat etib, ya’ni qoralab, ulug‘ taqvo piri degan nom chiqardi. U insonni «kichik olam» deb. uning kamoloti cheksiz ekanini ta’kidlayli. Biz bu fikrlarni xulosalab tarbiya axloqiy poklik, mardlik, hojatbarorlik kabi tushunchalarni olishimiz mumkin.

Xo‘ja Axmad Yassaviy (XI asrning o‘rtalari) insonni ta’lim-tarbiyasida uni asl komillikka eltadigan din, iymon, xudo yo‘lida fidoiylik, e’tiqodda sobitlik, halollik, poklik g’oyalari ekanini ta’kidlaydi.

Yassaviy insondagi yomon illatlarni nafs bilan bog‘laydi va unga qarshi kurash lozimligini uqtiradi. Nafsni tiyish, mol-dunyoga hirs qo‘yish, ta’magirlilik, badnafslik nokaslik, nodonlik, jaholat va razolatni qattiq qoralaydi. Nafsni tarbiyalash nafaqat insonning shaxsiy xarakteri, balki ijtimoiy muhitga ham salmoqli ta’sir etishini ta’kidlaydi. Uning ta’rificha, nafs «yabon qushdek ko‘lga ko‘nmas» bir narsa. Bu «qush» o‘z hohishicha «parvoz» etaversa odamni kundan-kunga odamiylikdan chiqaraveradi, azim gunoxlarni qilishga sababchi bo’lib, badnom etadi, chunki nafs domiga tushgandan keyin kishi xech narsadan tap tortmaydi, harom-xarishdan xazar etmaydi, boshkalar hisobiga bo‘lsa ham yaxshi yashashni o‘ylaydi, oqibatda u zolim, berahm, riyokor bo’lib qoladi.

Faylasuf shoirni komil insonlikka yetishish boskichlarida kishi intilishlariga xalaqit beradigan barcha to'siqlar, ya'ni shayton vasvasasi tufayli yuzaga keladigan barcha illatlar g'azablantiradi. Ulardan biriadolatsizlikdir.

Mutafakkir g'oyalarining asosiy mazmuni, «bu dunyoning dog'larini insonga yuqtirmaslik», uning «Olloh yaratgan chog'idagi musaffoligini saqlash», bir so'z bilan - komil, barkamol inson qiyofasiga erishish. Umuman, Yassaviyning barkamol inson haqidagi g'oyalari yosh avlodni tarbiyalashda muhim dastur sifatida xizmat qiladi. Mutafakkirning fikrlaridan shuni anglashimiz kerakki tarbiya iymon e'tiqodga sodiqqliq va unga amal qilish ekanligi tushunishimiz kerak.

Bahouddin Naqshbandning ta'lif-tarbiya haqidagi fikrlari g'oyat qadrlidir. U barkamol insonni tarbiyalash dastlab odobdan boshlanishini ta'kidlab shunday degan edi: «Adab hulqni chiroqli qilish, so'z va fe'lni soz qilishdir»<sup>11</sup>. Odab saqlash - muhabbat samarasi, yana muhabbat daraxtining urug'i hamdir. Agar odabdan ozgina nuqsonga yo'l qo'yilsa nimaiki qilsang ham, beadablik ko'rindi. Zero, beadablar yashaydigan ijtimoiy-ruhiy muhit nosog'lom bo'lib, nafaqat insonlarga, balki boshqa jonzotlarga ham salbiy ta'sir etishi tabiiy. Odam o'zini bir xil sifat va ko'riishda olib yurishi lozim, toki odamlarda unga tasarruf (ta'sir kilish) ta'masi paydo bo'lmasin.

Yana bir fikr: «Niyat - kasb qilib topadigan narsa emas, balki, u g'ayb olamidandir. Niyatning haqiqati ixtiyor ostida emas. Agar niyat yo'q bo'lsa, umid natija bermaydi». Sabr va chidamda nog'ora kabi bo'lmok lozimki, u qanchalik shapaloq yemasin, birok o'z adabiga xilof ovoz chiqarmaydi». Bahovuddin Naqshband o'z pedagogik faoliyati davrida mehnat va hunarga alohida e'tibor bergen. Madrasaga qabul qilinadigan bolalardan eng oldin: «Siz Madrasaga qabul qilingansiz, qaysi hunarni bilasiz», -deb so'ragan. Hunarsiz o'quvchilarni biror-bir hunar o'rganishga da'vat etgan, unga yetarli muhit yaratib bergen, so'ngra islom ilmini o'rganish lozimligini ta'kidlagan<sup>12</sup>. Bu fikrlardan ko'riniib turibdiki bolaga ta'lif berish jarayonida uning qiziqishi va bolalarni to'g'ri faoliyat turini tanlashni nazardan qochirmaslik zarurligini va maqsadini bilish zarur ekan.

<sup>11</sup> Muminov I.M. Iz istorii razvitiya obshchestvenno-filosofskoy mo'sli v Uzbekistane. T. 1957. -S.4

<sup>12</sup> Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. K.1. -T.: Yozuvchi. 1996.

Nosir Xisrav<sup>13</sup> (1044-1088) ta'limotida ta'lim-tarbiya jaryonida ijtimoiy muhytning o'rni haqidagi g'oyalari kattalarga izzat, kichiklarga shafqat, ota-onaga xizmat, do'stlik, har bir ishni ilm va akl-zakovatga suyangan holda bajarishga da'vat, jaholat va razolatni la'natlash g'oyalari kuchlidir.

Nosir Xisrav qarashlarining asosiy mohiyati shundan iboratki, ta'lim-tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchining imkoniyatlari hisobga olinishi alohida ahamiyatga egadir. Chunki tarbiyalanuvchi ham tabiiy, ham ijtimoiy jihatdan ta'lim-tarbiyaga xohish bildirmas ekan, uni majburan biror-bir hunarga o'rgatish mutlaqo mumkin emas. Nosir Xisravning fikricha tarbiyada avvalo muhitni yaxshi bo'lismeni zarurligini ta'kidlagan. Nosir Xisravning muhit haqidagi fikrlarini hozirgi kunda pedagog olimlarimiz pedagogika darsliklarida o'qib o'rganmoqdamiz.

Xo'ja Abdulholiq G'ijduvoniy (1103-1179) o'z ta'limotida «Odam halol mehnat bilan yashashi lozim. Halol yegil va shubhadan parhyez etgil, ya'ni halolligi shubhali ovqatdan qo'l tortgil», - deydi<sup>14</sup>.

Tarbiyalanganlik darajasiga erishish shariat, tariqat, ma'rifat va haqiqat bosqichlaridan iboratdir. Shariatsiz tariqatga kirib bo'lmaydi va tariqatsiz haqiqatga erishilmaydi. Shariat-nazariya, tariqat-amaliyotdir. Haqiqat-maqsad, tariqat-uslub, faoliyat shaklidir. Ta'limotda «Shariat-yong'oqning po'chog'i bo'lsa, tariqat po'choq ichidagi mag'izdir», «Shariat-yer, tariqat mazkur yerda ungan daraxt, haqiqat esa shu daraxtning mevasi», «Tariqat-fano, ya'ni o'zidan kechish, haqiqat-baqa, ya'ni botil (buzilgan, behuda ishlardan kechib haq ishlarga bog'lanmoq), «Shariat-qonun, tariqat-yo'l», «Qonun» vujud va qalbni tarbiyalaydi. «Yo'l ko'ngilni poklab, rujni nurlantiradi»<sup>15</sup>, kabi ta'riflar ham mavjud.

G'ijduvoniy qarashlarining asl mohiyati inson ham zohiriyligi, ham botiniy bilimlarga faqat halollik, mehnatsevarlik orqaligina erishadi. Zero insonni o'rabi turgan muhit uning qo'li bilan bunyod etiladi.

<sup>13</sup> Nosir Xisravning bizgacha "Saodatnoma". "Rushinoma". "Safarnoma". "Musofirlarning yo'l ozuqasi". "Birodarlar xoni" "Vanjxiddin". "Kushoshi va raxoshi" kabi arab va fors tillaridagi she'rlari va "Saodatnoma" asari etib kelgan.

<sup>14</sup> Navro'zova G.N., Sharipova O.T. Abdulxoliq G'ijduvoniy komil inson tarbiyasi xaqida. -Buxoro: 1999.

<sup>15</sup> Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. K.1. -T.: Yozunchi. 1996. Shayx Aziziddin Nasafiy. Komil inson G`N.Komilov tarjimasi. -Turkiston. 2000. 1-avgust.

Komil inson tushunchasi o‘rtta asrlarda ishlab chiqilgan bo‘lib, musulmon Sharqida asosan islomiy nuqtai nazardan ta’riflab kelingan.

G‘azzoliy (Abu Hamid Muhammad Ibn Muhammad al-G‘azzoliy, 1059-1111) qarashlarida komil inson tarbiyasi faqatgina g‘oyalar orqali amalga oshishini ilgari suradi. G‘azzoliy inson yetukligini uning borliqni bilish insonning dilida yuzaga keladi va dilida mujassamlanadi, degan qarorga keladi.

Amir Temur ikkinchi Sharq Uyg‘onish davri madaniyati va ma’naviyati, birinchi navbatda, Amir Temur nomi va faoliyati bilan uzviy bog‘liq. Amir Temur islom dinini, shariat qonun-qoidalarini xurofot, bid‘at, johillik, razolat, shakkoklik, diyonatsizlik kabi illatlardan astoydil turib himoya qilgan. Ilmiy, falsafiy, tarixiy manbalarda, hozirgi zamon ilmiy tadqiqotlarida Amir Temuring Movarounnahr, Xurosonning bir necha ming yillik ilm-fan, madaniyati, tarixi, urf-odatlari, an'analar, milliy qadriyatlarini chuqur bilganligi va astoydil hurmat qilganligi haqida aniq ma'lumotlar mavjud<sup>16</sup>.

Sohibqironning ma’naviyat va ma'rifat, din, odob-axloq haqidagi ta’limoti asoslari, murakkab va serqirra hayoti va ijtimoiy-siyosiy faoliyati uning «Tarjimai hol» va «Temur tuzuklari» da chuqur bayon etilgan. Amir Temuringadolat, qadr-qimmat, or-nomus, burch, mas'uliyat, vijdon, imon-e'tiqod, halollik, fidoiylik singari ma'naviy-axloqiy qadriyatlar haqida necha-necha avlodu ajdodlarga dastur va yo‘l- yo‘riq bo‘lib xizmat qiladigan ta’limoti uning «Adovat emas,adolat yengadi», «Adlu ehson bilan jahon gulshani obod bo‘ladi», «Yaxshilarga - yaxshilik qildim, yomonlarni esa o‘z yomonliklariga topshirdim», «O‘z saltanimni shariat bilan bezadim» kabi o‘gitlarida o‘z ifodasini topgan.

Amir Temur nabirasi Mirzo Ulug‘bek Movarounnahrning qariyib qirq yillik hukmdori sifatida ilm-fan, madaniyat va ma'rifat rivojlanishiga alohida e'tibor bilan qaraydi, insoniyat ma'naviy-axloqiy, axloqiy qarashlari va ta'limotlari rivojiga ham beqiyos hissa qo‘shadi.

---

<sup>16</sup> Qarang: G‘oyibov N. Amir Temur davri ma’naviyati: Badia. -T.: G‘.G’ulom nomidagi Adabiyot va sanat nashriyoti, 2001.

Ulug‘bek ta’limotida ilm inson ma’naviyatining asosi ekanligi haqidagi g‘oya yetakchi o‘rin tutadi. Ilm insonni g‘aflat uyqusidan uyg‘otadi, fikrini teranlashtiradi, tafakkuripi o‘tkirlashtiradi. Inson ilm-ma'rifat yordamida ulug‘lar darajasiga yetadi.

Ulug‘bekning fikricha, odob va axloq inson ma’naviyati va ma'rifati kamolotida katta o‘rin egallaydi. Insonlar orasidagi tarbiya o‘zaro munosabat, odamgarchilik, mehr-muhabbat, do'stlik, birdamlik, jasurlik, mardlik, chidamlik, ahillik, vatanni sevish, xalqparvarlik asosida yashash tarbiyalanganlikga bog‘likdir.

Alisher Navoiy (Nizomiddin Mir Alisher Navoiy, 1441-1501 y.)<sup>17</sup> ning ta'lim-tarbiya haqidagi qarashlari Sharqda keng tarqalgan “Vahdat ul-vujud” (borliq va xudoning birligi) ta'limotiga asoslangandir<sup>18</sup>. Bu ta'limotga ko‘ra, borliq, narsa va hodisalar, shu jumladan, inson ham, Olloh tomonidan, yaratilgan, Olloh tabiatda namoyon bo‘ladi, zuhur etiladi<sup>19</sup>. Navoiy talqinida inson boshqa mavjudotlar ichida a'losi, ularning gultoji hisoblanadi. Zeroki u, sezgi va hissiyotlari orqali tabiat va uning sir-asrorini bilishga qodir, ya'ni inson uni o‘rab turgan tabiiy va ijtimoiy muhitga ta'sir etish imkoniyatiga ega. Bu esa faqatgina ta'lim-tarbiya orqali amalga oshiriladi deydi.

Navoiy o‘zining «Xamsa» dostonida inson ta'lim-tarbiyasida ijtimoiy muhitning o‘rni muhim ekanligini ta'kidlaydi. Bu esa, mehnatsevarlik, poklanish, halollik, imon-e'tiqodli bo‘lish orqali amalga oshishi alloma tomonidan ilmiy asoslab beriladi. Uning «Mahbubul-qulub» asarida, inson va uning eng yaxshi fazilatlarini tasvirlab, komil inson timsolini yaratdi. Asarda u insonni komillikka eltuvchi yagona vosita - bu sabr. «Sabr, - deydi u - achchiq, ammo foyda keltiruvchi, u qattiq, ammo ziyor-zahmatlarni daf etuvchi. Sabr -nasihatgo‘y, achitib gapiradigan, kishi tabiat

---

<sup>17</sup> Alisher Navoiyning bizgacha 30 dan ortiq badiiy va tarbiyaga oid boy adabiy va ilmiy msrosi etib kelgan. "Mszon ul-avzon" ("Vaznlar o'chovi") (1492). "Lisonut - tayr" (1498). "Muhokamat-ul-ul-lug'atayn"(1499)."Mahbub-ul-qulub"(1500). "Xazoyinul-maoniy" (1491-1498). "Badoyi ul-bidoe (1500). "Xoloti Sayid Hasan Ardasher"(1490). "Majolisun-nafois" (1491). "Nasoyimul - muhabbat"(«Muhabbat shabadalari», 1496). "Vaqfiya"(1482). "Nazmul-javohir" (1485). "Tarixi anbiyo va hukamo" («Payg‘ambarlar va podsholar tarixi», 1488). "Siroj ul-muslimin" («Musul.monlik nuri», 1488) va boshqa asarlar muallifidir.

<sup>18</sup> Qisqa falsafiy lug‘at.-T.: Sharq, 2002.

<sup>19</sup> A.Navoiy. Mahbub ul-qulub. -T.: 1989.

undan ozor chekadi, lekin amal qilgan oxirida murodiga yetadi. Sabr - tabib, badxo'r dori, bemor undan ozor tortadi, ammo so'ngida sog'liqqa erishadi<sup>20</sup>».

XVI-XVIII asrlarda ham Turkistonda madaniy-ma'naviy yuksalish an'analari davom etdi. Boborahim Mashrab, Mujrim Obid, Shermuhammad Munis, Muhammad Sharif Gulxaniy, Muhammad Rizo Ogahiy, Mirzo Abdulqodir Bedil kabi fan arboblari va atoqli shoir, yozuvchilar asarlarida o'sha davrning ma'naviyati va ma'rifati inson kamoloti haqidagi qimmatli fikrlari keltirilgan.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistonda ta'lif-tarbiya masalarida Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, So'fizoda, Tavallo singari xalqimizning faylasuflari, adiblari, davlat va siyosat arboblari ham kata ma'lumotlar qoldirgan.

Ma'rifatparvarlardan bizga ilmiy, madaniy meros bo'lib kelayotgan «Nodir voqyealar», «Farzandlarga vasiyat», «Kasb va hunarning foydalari haqida», «Buxoro amirlarining tarixi», «Turkiy guliston yohud axloq», «O'tgan kunlar», «Mehrobdan chayon», «Obid ketmon», «Padarkush» kabi ko'plab asarlarda insonlarni yaxshilikka chorlovchi, axloq va odobni kuylovchi, ma'naviyat haqidagi fikr va mulohazalar o'z o'rnini munosib topgan. Mazkur asarlar markazida inson hayoti asosiy o'rin tutadi. Ularda insonning insoniyligi, avvalo, uning ichki ruhiy olamiga bog'liqligi, ana shu ruhiy olam unga kuch-quvvat, qaltis davrlarda ko'mak, irodasini baquvvat qilishda asosiy omil bo'lib xizmat qilishi g'oyasi asoslangan.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz kerakki bizning mutafakkirlarimiz ya'ni buyuk bobokalonlarimiz ta'lif-tarbiyada biz uchun juda kata boylik qoldirganlar. Mutafakkirlarimiz tamonidan aytilgan barkamol shaxsni tarbiyalashda avvalo tarbiya shakllanishida ota-onas, inson yashayotgan atrof-muhit, milliy, diniy qadriyatlar, ta'lif, jamiyatdagi insonparvarlik va adolatparvarlik siyosati muhim ahamiyatga ega.

Pedagogiklarimiz barkamol shaxsni tarbiyashda ta'lif-tarbiya jaroyonida buyuk allomalarimizning o'gitlaridan foydalanishi zarur, zero har birining ta'limiyl-

---

<sup>20</sup> A.Navoiy. Mahbub ul-qulub. -T: 1989.

tarbiyaviy usullari, tarbiya nazariyasi va amaliyoti, ta'lim nazariyasi va amaliyoti, ta'lim tizimini boshqarishda, farzand tarbiyasida mutafakkirlarimizning har-bir asarlari va fikrlari barkamol insonni tarbiyalashda millliylik va oziga xos tarzda ajralib turadi. Shunday ekan sharq allomalri me'rosidan ko'proq foydalanish maqsadga maolikdir.

Bitiruv malakaviy ishimizda Abdulla Avloniyning ma'rifatparvarlik qarashlari asosida barkamol shaxsni tarbiyalshdagi imkoniyatlarini bilish maqsadida Termiz shahridagi 9 - umumiyl o'rta ta'lim matabining boshlang'ich sinf o'qituvchilari bilan suhbat qilib so'rovnama o'tkazdik. Matabning oliv ma'lumotli ko'p yillik tajribaga ega bo'lgan boshlang'ich sinf o'qituvchilaridan 10 nafariga bitiruv malakaiy ishimizning maqsadidan kelib chiqqan holda quyidagi so'rovnomani o'tkazdik.

1. Barkamol avloddni tarbiyalashda Abdulla Avloniyning qarashlaridan foydalanilsa qanday bo'ladi?

A) Yuqori B) O'rta V) Bilmadim

2. Abdulla Avloniyning asarlaridan dars jarayonlarida foydalanib turasizmi?

A) Ha B) Ba'zida V) Yo'q

3. O'quvchilarni axloqiy tarbiyashda Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asaridan foydalanilsa qanday bo'ladi?

A) Yuqori B) O'rta V) Bilmadim

4. Abdulla Avloniyning didaktik qarashlarini qanday darajada baholaysiz?

A) Yuqori B) O'rta V) Bilmadim

### **Barkamol avlod tarbiyasi jarayoida Abdulla Avloniyning ma'rifatparvarlik qarashlaridan foydalanishning amaldagi holatini aniqlash uchun**

1. Barkamol avloddni tarbiyalashda Abdulla Avloniyning qarashlaridan foydalanilsa qanday boladi?

Savoliga qatnashgan 10 nafar o'qituvchidan, 6 nafari 60 % yuqori, 2 nafari 20 % o'rta, 2 nafari 20 %, bilmadim deb javob berishdi.

2. Abdulla Avloniyning asarlaridan dars jarayonlarida foydalanib turasizmi? Savoliga qatnashgan 10 nafar o'qituvchidan, 5 nafari 50 % ha, 5 nafari 50 % ba'zida deb javob berishdi.

3. O'quvchilarni axloqiy tarbiyashda Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asaridan foydalanilsa qanday bo'ladi?

Savoliga qatnashgan 10 nafar o'qituvchidan, 6 nafari 60 % yuqori, 2 nafari 20 % o'rta, 2 nafari 20 %, bilmadim deb javob berishdi.

4. Abdulla Avloniyning didaktik qarashlarini qanday darajada baholaysiz? Savoliga qatnashgan 10 nafar o'qituvchidan, 10 nafari 100 % yuqori deb javob berishdi.

O'tkazilgan so'rovnama natijalarni tahlil etar ekanmiz, darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida Abdulla Avloniyning ma'rifatparvarlik qarshlsridan foydalanish holatiga etarli darajada e'tibor qilinmagan. Oqituvchilar dasturdan tashqariga chiqib ketishga o'rganmagan. Mazkur holat bitiruv malakaviy ishimiz mavzusi doirasida kichik tadqiqotlar olib borishimizga asos bo'ldi.

## **II-BOB. Barkamol shaxsni tarbiyalashda Abdulla Avloniyning ma'rifatparvarlik qarashlaridan foydalanishning shakl va usullari.**

### **2.1. Abdulla Avloniyning didaktik qarashlari mazmuni.**

Abdulla Avloniy o'zbek jadid adabiyotining yirik namoyandalaridan biri bo'lib, XX asr ta'lim-tarbiya ta'taraqqiyotiga o`ziga xos hissa qo'shgandir. Avloniy 30 yildan ortiq vaqt mobaynida ijod qildi. Avloniy o`ziga “Hijron” taxallusini tanlaydi va shu taxallus bilan she`rlar bitadi.

Abdulla Avloniy - shoir, yozuvchi, dramaturg, ammo pedagogika uning hayotidagi muhim sahifani tashkil etadi. U faoliyatning ilk bosqichidan to umrining so`nggi damlarigacha o`qituvchilik qildi, pedagogika fanining ham nazariy, ham amaliy masalalari bilan mustaqil shug`ullandi, darsliklar yaratdi. XX-asr zamonaviy o`zbek pedagogikasining asoschisi, o`zbek tili va adabiyoti o`qitish metodikasi fanining tamal toshini qo`ygan mutafakkiridir. Abdulla Avloniyning didaktik qarashlarini o`rganishdan avval uning hayoti haqida ma'lumotlar keltirishni joiz bildik.

Abdulla Avloniy 1878-yilning 12 iyulida Toshkentning Shayxontohur daha, Mergancha mahallasida tug`ildi. Otasi Miravlon to`quvchi-hunarmand edi. Yosh Abdulla O`qchi mahallasidagi eski maktabda savod chiqardi, 1890-yildan mahalla madrasasasida, so`ng Shayxontahurdagi Abdumalikboy madrasasida Mulla Umar Oxun qo`lida tahsil ko`ra boshladi, ammo oilaviy sharoitning og`irlashuvi o`qishni davom ettirishiga imkon bermadi: 14 yoshidan boshlab mardikorchilik, 18 yoshidan ustalik, suvoqchilik, duradgorlik, pechkachilik ishlari bilan shug`ullandi. Keyinchalik tarjimai holida quyidagilarni yozadi: «Madrasadan chiqib ketsam ham maorif ishlaridan chiqib ketmadim». 1900-yilda Abdullani Toshkentlik bir savdogarning Salomatxon ismli qiziga uylantiradilar, shu yili otasi vafot etib, oilani tebratish mashaqqatlari asosan uning zimmasiga tushadi, endi u faqat bo`sh vaqtlardagina mustaqil mutolaa bilan shug`ullanadi, Rusiyaning turli shaharlarida chiqib turgan gazeta va jurnallar bilan tanishib boradi, «Tarjimon» gazetasini o`qib, zamondan xabardor bo`ldi.

1904-yilda Abdulla Avloniy Mirobod mahallasida eski maktablardan farq qiluvchi usuli jadid maktabi ochdi va o`zi mudirlik hamda o`qituvchilik qildi. Shu vaqtdan uning pedagogik faoliyati boshlandi, maktabning dovrug`i Toshkentning uzoq chekkalariga ham tez tarqaldi. Ushbu maktabning birinchi o`quvchilaridan, uzoq yillar Toshkent Davlat universiteti (hozirgi O`zbekiston Milliy universiteti) pedagogika kafedrasiga mudirlik qilgan, marhum pedagog olim Yusuf Tohiriy mazkur maktab va uning o`qituvchisi A.Avloniy haqida quyidagi xotiralarini yozib

qoldirgan edi: «Shaharning qarama-qarshi chekkasida, temir yo`l ishchilari istiqomat qiladigan Mirobodda yangi tipdagi maktab ochilganligi haqida eshitib qoldik. Tez orada bu maktabning fazilatlari haqidagi shov-shuvlar, uning muallimi Avloniyning dovrug`i butun shaharga tarqaldi. Hammaning tilida: «Miroboddagi maktab 6 oyda o`qish-yozishni o`rgatarmish, jo`g`rofiya, hisob, tabiatni o`rganish degan darslar o`qitilarmish», - degan gap yurardi. Bizga juda sirli tuyulgan bu maktabni va uning donishmand muallimini ko`rishga hammamiz oshiqardik. Nihoyat bir kuni uch-to`rttamiz borishga jazm qildik. Maktab pastakkina, nimqorong`u bo`lib, masjid yo`lagiga joylashgan edi. Xonaning tepasidagi yorug`lik uchun qoldirilgan tuynukdan qish va bahorda qor bilan yomg`ir ham tushib turardi. Lekin xonada o`quvchilar va o`qimoq uchun kelganlar soni ko`p edi. Xayolimizda domlaning allaqanday bir sirli tomoni bor edi. Bizni qotmagina, kichik jussali, qorachadan kelgan, istarasi issiq, cho`qqi soqol bir kishi kutib oldi. Bu nomi tilga tushgan muallim Avloniy edi. O`qishga qabul qilindik. Ko`p o`tmay ko`z oldimizda yangi bir dunyo ochilganiga to`la ishonch hosil qildik. Maktab o`quvchilari o`qish yozishda, hisob masalalarini hal etishda, tabiat hodisalaridan xabardor bo`lishlari, juda ko`p she`r va hikoyalarni yod bilishlari bilan hammamizni lol qoldirishdi. Avloniy maktabi bizdan borgan bolalar bilan liq to`ldi. Shu tariqa bu maktab tobora shuhrat topib bordi».

A. Avloniy birinchilardan bo`lib ushbu maktabiga rus tilini o`quv predmeti sifatida kiritdi. Bunday usuli jadid maktablari xalq o`rtasida qanchalik shuhrat qozonmasin, mustamlakachi ma`murlarning katta qarshiliklariga duch keldi. Chunki ularning bu faoliyati chinakam fidoyilik edi. Hukumat mahalliy maktablarni va muallimlarini iqtisodiy ta`minlamagani yetmaganday, o`qituvchilari, o`qitadigan darslik va kitoblari, hatto o`quvchilarigacha qattiq nazorat ostiga olgan edi. Abdulla Avloniy nomidagi Xalq Ta`lim xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish Markaziy institutidagi A. Avloniy memorial muzeyida Sirdaryo viloyat xalq o`quv yurtlari inspektorining A. Avloniy nomiga yozgan so`rovnomasini saqlanadi. Mazkur xujjat rus tilida bo`lib, tarjimasi shunday:

**“Toshkentning ruslar qismida yashovchi Mulla Abdulla Avlonovga”**

1914-yil 26-fevraldag'i arizangizga qo'shimcha yozma ravishda quyidagi larni talab qilaman: Siz ochgan mакtabda darslar qaysi darslik va dastur asosida olib boriladi? Darsliklar mualliflarining familiyalari kimlar? Darsliklar qachon va qayerda nashrdan chiqqan? Sirdaryo viloyat xalq o'quv yurtlari inspektori: imzo.

Bunday ta'qib va tazyiqlar natijasida Avloniyning Mirobodda ochgan mакtabi 1908-yilda yopib qo'yildi. 1909-yilda u ikkinchi marta Degrez mahallasida mакtab ochdi. Usuli jadid maktablari ochish, ularni xalq o'rtasida targ'ib-tashviq qilish bilan ish bitmas edi. Ularda yangicha o'qitish usullaridan kelib chiqqan holda tuzilgan yangi darsliklar, o'quv jihozlari suv bilan hovodek zarur edi: usuli savtiya metodi asosida yaratilgan alifbo darsliklari, o'qish kitoblari, majmualar, turli fanlar bo'yicha darsliklar yo'q darajada edi. Jadid pedagoglaridan Hoji Muin Shukrullayevning quyidagi so'zlari zamirida katta haqiqat yotar edi: «1901-yildan e'tiboran Qo'qon va Toshkentda, 1903-yildan Samarqandda yangi maktablar ochila boshladi. Bu maktablar Turkistonning katta shaharlarida son jihatidan (taqlidiy suratda) bir daraja ko'paygan bo'lsa ham 4-5 yildan keyin yana kamayib, faqat ba'zi tuzuklari davom etdi. Buning bir sababi kitobsizlik bo'lsa, boshqa sababi o'qituvchilarning usuli ta'limdan xabarsizliklari edi».

Darsliklar yaratish, ularni nashrdan chiqarish ishlari katta bilim, malaka hamda mablag` talab qilar edi. Shuning uchun ham Toshkentda Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxon o'g'li, Samarqandda Mahmudxo'ja Behbudiy, Buxoroda Abdulvohid Munzim, Shamidxo'ja Mehriy, Sadriddin Ayniy, Qo'qonda Hamza Hakimzoda, Ashirali Zohiriylar o'lkada faoliyat ko'rsatgan dastlabki xayriya jamiyati va shirkatlarining asoschilari edilar.

A.Avloniy 1909-yilda «Xayriya jamiyat» ochdi. Bu jamiyat Turkiston o'lkasida ochilgan birinchi rasmiy jamiyat edi. Bu haqda Orenburgda chiqadigan «Vaqt» hamda «Sadoyi Turkiston» gazetalarida xabar bosilgan. Jamiyatning 1909-yil 12 mayda rasmiy ro'yxatdan o'tkazganligi haqidagi Nizomda uning faoliyat doirasi aniq belgilangan. Unda yoshlarni o'qitish, iqtidorli yoshlarni taraqqiyot etgan chet el oliy o'quv yurtlariga yuborish, ularni stipendiya bilan ta'minlash, yangi ochilayotgan

maktablar uchun darsliklar nashr etish, kambag`al bolalarni bepul o`qitish va o`quv qurollari bilan ta`minlash kabi 41 moddadan iborat masalalar mavjud edi. Ushbu jamiyat qoshida «Turkiston kutubxonasi» shirkati tashkil etiladi. Shirkat o`z oldiga maktablar uchun darsliklar nashr etish, Rusyaning turli o`lkalarida nashr etilgan darsliklarni sotib olish va Turkiston maktablariga arzon narxlarda tarqatish maqsadini qo`ygan edi.

Turkiston o`lkasida yaratilgan deyarli hamma darsliklar «Turkiston kutubxonasi» da bosmadan chiqqan. Bunday darsliklar oxirida muallifi, narxi va qayerdan sotib olish manzili berilar edi. Masalan, Muhammad Rasul Rasuliyning «Bolalar bog`chasi» darsligi oxirida shunday e`lonni o`qiyimiz: «Ibtidoiy maktablarning birinchi sinf shogirdlari uchun turli kitoblardan olinub, ochiq til va yengil tarkiblar ila yozilish qiroat kitobidur. Nashiri «Turkiston kutubxonasi». Murojaat uchun adres: Eski Toshkand «Turkiston kutubxonasi». Xayriya jamiyati o`lkadagi barcha hur fikrli ziyoli yoshlarni, boylarni o`z atrofiga birlashtirdi.

Abdulla Avloniy usuli jadid maktablarini darsliklar bilan ta`minlash ishiga alohida e`tibor berdi. 1905-1917-yillar orasida o`nga yaqin darslik va qo`llanmalar yaratdi. Ushbu alifbo darsligi ikki qismdan iborat bo`lib, birinchi alifbo qismida harflar tanitiladi, ularning so`z o`rniga qarab oladigan shakllari o`rgatiladi. O`qitishni soddarоq shaklga ega bo`lgan harflardan boshlaydi, ya`ni darslar soddadan murakkabga o`tib boradi. A.Avloniy darslik tuzishda ham, dars berish jarayonida ham didaktik prinsiplarga to`la amal qildi. Darslikning alifbo qismi olti oyga mo`ljallangan. Ushbu qismda o`qish bilan parallel yozishga ham o`rgatib boriladi.

Darslikning ikkinchi qismi bolalarbop pand-nasihatlar, ta`limiy-tarbiyaviy xarakterdagи kichik-kichik hikoyalar, she`riy manzumalardan tashkil topgan. «Birinchi muallim» darsligidagi pandnomalarda o`zbek mumtoz adabiyotining yirik namoyandası Poshshoxo`ja (1480 - XVI-asr birinchi yarmi)ning «Miftox ul-adl» («Adolat kaliti») hamda «Gulzor» hikoyalar to`plamlardagi mashhur hikoyalarni bolalarbop qilib qayta ishlaganligi ham seziladi. Ma`lumki, Poshshoxo`ja to`plamlarida axloqiy-ta`limiy masalalarga bag`ishlangan hikoyalar anchagina. Shu

nuqtai nazardan to`g`rilik, rostgo`ylik g`oyasini ilgari suruvchi “Sulton Sanjar Moziy va to`g`ri daraxtli kampir” hikoyasi e`tiborga loyiq. A.Avloniy ushbu hikoyaga ijodiy yondashgan, bolalar ruhiyatiga, tarbiyasiga ancha yaqinlashtirgan. Avloniy hikoyasi shunday mazmunda:

Bir kampirning hovlisida tut daraxti bor bo`lib, nihoyatda tik va to`g`ri o`sgan edi. Kampir tut pishgan vaqtda uni quritib sotar va tirikchiligini shundan o`tkazar edi. Podshoh bir ayvon qurdirmoqchi bo`ladi, ustun uchun to`g`ri yog`och topish ancha mushkul kechadi. Oxirida kampirning hovlisidagi tut daraxti podshoh ayvonga mos kelishi ma`lum bo`ladi. Podshoh tut daraxtini ming oltinga sotib oladi, kampir «boy xotin» nomini oladi. Nihoyatda to`g`ri o`sgan tut daraxti ayvonga go`zallik bag`ishlaydi. Poshshoxo`janing «Gulzor» to`plamiga kirgan «Sulton Sanjar Moziy va to`g`ri daraxtli kampir» hikoyatida ayvонни va ustunni tomosha qilgани kelgan kampir ustun bo`lgan daraxtiga shunday murojaat qiladi: «Ey yag`och, rostlig`ingdin o`zingni ham, meni ham tillapo`sh qilding». A.Avloniyda «To`g`rilik» nomi bilan berilgan ushbu hikoyada kampir ustun bo`lgan tutining to`g`ri o`sganligiga «qissadan hissa» sifatiga shunday murojaat qiladi:

Ey tutim, to`g`riliq`ing qildi bizi davlatga yor,  
Egri bo`sang, san o`tun bo`lg`ay eding, man xor-zor.  
To`g`rilar jannatning ayvonindadur,  
O`g`rilar ranju alam konindadur.

A.Avloniy «Birinchi muallim» asarini Saidrasul Saidazizovning «Ustodi avval» hamda Munavvarqori Abdurashidxon o`g`lining «Adibi avval» asarlaridan keyin tilga oladi: «Uchinchi - «Birinchi muallim». Bu alifbo 1912-yilda Abdulla Avloniy tomonidan yozilib, Toshkentda «Maktab» kutubxonasining xarji bilan bosildi. Oktabr o`zgarishigacha 4-5 qatla bosilib chiqdi». Muallif alifboni yaratishda bolalarning yosh xususiyatlari alohida e`tibor berdi, o`qishning eng oson usullarini qo`llashga harakat qildi. Bu haqda A.Avloniy yozadi: «Muhtaram muallim

afandilarimizdan rijo qilurmanki, bizning «Birinchi muallim»imizdan ham olub, tajriba qilub, o`qutub ko`rsalar. Chunki har gulning bir isi, har mevaning ta`m va mazasi bordur. Bu «bo`y» va ta`m esa tajriba sohiblarina kashf va ma`lum o`lur. Shoyad, millat bolalarina foidabaxsh o`lur umidunda bir necha muallimlarimizning iltijolari ila ko`b vaqt tajriba so`ngidan bu risolai ojizanomani «Birinchi muallim» ismi-la maydoni intishora qo`ydim. Maorifparvar muallim birodarlarimiz iltifotsiz qoldirmasalar kerak».

Abdulla Avloniy 1912-yilda usuli jadid maktablarining ikkinchi sinfi uchun o`qish kitobi sifatida «Ikkinchi muallim» darslik majmuasini yaratdi. Muallif maqsaddan kelib chiqqan holda ta`lim-tarbiyaga oid mo`jaz, ravon, bolalarbop hikoyalar yaratgan kitobning titul varag`ida:

Shavkati inson erur ilmu adob,  
E`tibor etmas anga molu nasab,

bayti epigraf sifatida berilgan. Darslik «Muqaddima», «Aql», «Salavot» dan keyin badiiy matn sifatida 9-banddan iborat mакtabni ulug`lovchi, ilm-ma`rifatga da`vat etuvchi «Maktab» she`ri bilan boshlanadi. «Ikkinchi muallim» darsligidagi ba`zi bir hikoyalar keyingi yuqori sinflarda nisbatan murakkabroq mavzularni o`z ichiga olgan «Turkiy Guliston yoxud axloq» asarini o`rganishga tayyorlash vazifasini ham bajaradi.

Pedagogning «Ikkinchi muallim» darsligi bilan bog`liq bir muhim masalaga e`tiborni qaratish kerak. Abdulla Avloniy o`z oldiga savol qo`yadi: XX-asrga kelib nima sababdan millat, Vatan ayanchli ahvolga tushib qoladi? Asar muallifi buning asosiy sababini xalqning ilm-ma`rifatdan uzoqlashganida, Olloh in`om etgan aql bilan ish yuritmaganligida deb bildi. Inson, demak, millat aql bilangina barkamollikka erishishi mumkin. Shuning uchun ham u aqlni Olloh bergen eng buyuk ne`mat deb bildi: «Janob haq bizga bergen ne`matlar orasida aqldan aziz va qimmatli narsa yo`qdur».

Mutafakkir «Birinchi muallim»dagi kabi «Ikkinch muallim»da ham birinchi adabiy matn sifatida «Maktab» she`rini kiritgan. Bu bejiz emas. Millat istiqboli, Vatan istiqloli mактабдан boshlanadi, jaholatdan, nodonlikdan qutulishning birdan-bir yo`li maktabdir:

Maktab sizi inson qilur,  
Maktab hayo ehson qilur,  
Maktab g`ami vayron qilur,  
G`ayrat qilub o`qing, o`g`lon!

Maktabdadur ilmu kamol,  
Maktabdadur husnu jamol,  
Maktabdadur milliy xayol,  
G`ayrat qilub o`qing, o`g`lon!

A.Avloniy «Ikkinch muallim» darsligida ushbu ta`sirchan usuldan mohirona foydalangan, ya`ni undagi matnlarning 20 tasi masal janriga mansubdir. Muallif darslikdagi hikoya va masallarning barchasida ikki qarama-qarshi qutb - yaxshilik va yomonlik, ahillik va xudbinlik, mehnatsevarlik va dangasalik kabi ijobiy va salbiy xususiyatlarni bir-biriga muqoyasa qiladi, xulosa - «qissadan hissa»da esa ularni xolisona baholaydi. «Ikkinch muallim»da bolalarning saviyasi, yoshlari o`sganligini hisobga olgan: ulardagi she`rlar va nasriy hikoyalar shaklan va mazmunan, ilgari surilgan masalalar ko`lami «Birinchi muallim»dagiga nisbatan ancha keng.

Mana shunday didaktik masallardan biri «Arslon bilan ayiq» asaridir. Bir kuni Arslon bilan Ayiq do`stlashib ovga chiqadilar, yugurib-yelib oxiri bir kiyikni tutadilar. Endi yemoqchi bo`lib turganlarida oralarida janjal chiqadi. Arslon: «Men kattaman, menga ko`proq tegishi kerak», - deydi. Ayiq: «Men ko`proq harakat qildim, yelib-yugurdim, sen bir joyda qarab o`tirding, shuning uchun sergo`sht joyi menga tegishi kerak», - deydi. Janjal urushga aylanadi, ularning ahvoli shu darajaga yetadiki, hatto qimirlashga ham majollari qolmaydi. Bundan xabar topgan bir necha

bo`rilar tayyor go`shtni pok-pokizasiga urib, suyaklarini qoldirib ketadilar. Bu janjalkash urushqoqlar bir-birlariga afsus bilan shunday der edilar: «Agar bunday urushmaganimizda og`zimizdagini oldirmagan va ulardan qolgan quruq suyakni chaynamagan bo`lar edik». Muallif janjankashlikni qattiq qoralaydi, hamjihatlikni esa ulug`laydi.

Abdulla Avloniy «Ikkinchi muallim» darsligida ifodali hamda yoddan o`qish uchun maxsus she`rlar yaratdi. Shoir bunday she`rlarning tuzilishiga, musiqiyligiga, qofiyalarning, turoqlarning muntazamligiga alohida e`tibor berdi. Odatda, bunday she`rlarga muallif bilan bir qatorda o`quvchining ham his-tuyg`ulari singib ketadi. Demak, ifodali o`qishga qaratilgan she`rlar jarangdor, o`ynoqi, o`quvchining his-tuyg`ulariga she`riyatni-go`zallikni, badiiy so`zni his qilishga o`rgatish vazifasini qo`yadi.

A.Avloniy o`quvchilarni estetik tarbiyalashda, ularning og`zaki nutqini o`stirishda maktabning pastki sinflaridayoq ifodali o`qish metodiga alohida e`tibor beradi. Shuning uchun ham muallifning ushbu «Birinchi muallim» va «Ikkinchi muallim» darsliklari usuli jadid maktablarida ancha keng qo`llangan va bir necha bor qayta nashr qilingan.

A.Avloniyning majmua-darsliklari suhbat usuli bilan bolalarning og`zaki nutqini o`stirishda, badiiy so`zlashuvga o`rgatishda katta ahamiyat kasb etadi. Avloniyning «Adabiyot yoxud milliy she`rlar» va «Maktab guliston» majmualarida ifodali o`qishning qator shakllari – deklamatsiya (individual o`qish), xor bo`lib o`qish, rollarga bo`lib o`qish kabi turlariga oid chiroyli matnlar berilgan. Shuni alohida ta`kidlash kerakki, «Adabiyot» majmuasidagi ba`zi she`rlar («Noma kimniki», «Bizlarda nimalar ko`p») ifodali o`qishning elementar shakllarini o`quvchilarga o`rgatish uchun xizmat qiladi. Bu she`rlarda achchiq kinoya, nafrat ohanglari o`quvchilarning diqqat markazida turadi. Achchiq kinoyali ohang nosog`lom tuzumni fosh etishda asosiy qurol vazifasini o`tagan:

Agar faqir o`lsang, demas holing nadur?

Mehribonlig` oltinu dengoniki.

Eski to`n bulsang, bo`lursan xoru zor,  
Izzatu xurmat to`rni yangoniki.

Ilmdan boylik yuqorida turar,  
Suhbatu majlis silliq salloniki.

Nega xomush o`lding, ey ahli xirad,  
Bo`ldi dunyo kori sharmandonini.

Bunday she`rlar ifodali o`qishning ohangdor chiqishi uchun xizmat qiladi va o`quvchilarni hayajonga soladi.

Ifodali o`qishning o`ziga xos shakllaridan biri xo'r bo`lib o`qish ham A.Avloniyning diqqat markazidan chetda qolmadi. Shu munosabat bilan u o`z she`rlarini xalq ashulalariga uyg`unlashtirdi va o`quvchilarni xo'r bo`lib o`qishga o`rgatish uchun alohida she`rlar yaratdi. Masalan, shoirning barmoq vaznida yozilgan «To`y haqinda» she`ri «Reza» kuyiga solib o`qiladi. Bu haqda shoir o`qituvchilarga quyidagicha metodik ko`rsatma beradi: «Milliy kuylarimizdan biri:

Olma meni toshlar bilan yor-yor, yor-o`v,  
Uqub ketay qushlar bilan yor-yor, yor-ov.

“Milliy she`rdan bir bayt kishi tarafidan o`qilib, so`ngida ko`b kishilar tarafidan jo`r qilib, ikkinchi bayt o`qilur” (Avloniy izohi).

Bu uslubiy ko`rsatma o`quvchilarning ifodali (xor bo`lib) o`qishlari uchun zamin hozirlaydi:

Bir o`quvchi:  
O`g`lingizni o`qitmoqqa bo`lasiz ayyor-o`v,

To`y qilsangiz osh bermoqqa aqchangiz bisyor-o`v.

Bir necha o`quvchi musiqa sadolari bilan xo`r bo`lib aytadi:

Kambaqal kelib to`yga kirsa, nari bor, bor-o`,  
Boylar kelsa, to`rga olib oshu to`n tayyor-o`.

Ma`lumki, o`quvchilarni ifodali o`qishga o`rgatish adabiy o`qish darslarining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. A.Avloniy savod chiqarishga qanchalik katta e`tibor bergan bo`lsa, asarni tushunib o`qishga, ifodali o`qishga, badiiy asarni his qilishga shunchalik ko`p diqqat qiladi. O`quvchilarning xor bo`lib o`qishlarini o`qituvchi Abdulla Avloniy dirijor kabi (chunki u dirijorlik san`atidan ham xabardor edi) boshqarib borgan.

Abdulla Avloniyning «Oila munozarasi» she`rida ota bilan ona o`z farzandlarini o`qitish yuzasidan munozara qiladilar. Ota o`qil va qizlarini o`qitmoqchi bo`lsa, ona erining fikriga qarshi chiqadi. Ota bilan ona o`rtasidagi fikrlar dialog shaklida olib boriladi, bu dialog ikki o`quvchi tomonidan o`qiladi:

Ota:

O`g`il-qiz o`qusa bo`lur olim,  
Johil odamlar bo`ladur zolim.  
Baxtu iqbol ilma bog`liqdur,  
Ilm o`qutmak ahsan a`molim.

Ona:

O`g`il o`qusa, sigirni kim boqadur?  
Qiz o`qusa, olovni kim yoqadur?  
O`qug`onlar bo`ladi beixlos,  
Olamunchoq tumorni kim taqadi?

Abdulla Avloniyning mактабда ifодали о`qishлari juda katta shuhrat qozondi. 1914-yil 27-fevral Toshkentda «Kolizey» teatri 2000 dan ortiq tomoshabin bilan liq то`lgan. Behbudiyning «Padarkush» dramasi sahnaga birinchi bor qo`yilishi. Spektal adabiy o`qishga ulanib ketdi: Avloniy o`quvchilari «Padarkush» dramasiga hamohang ilm-ma`rifatga da`vat ruhi barcha urib turgan «Oila munozarasi» she`rini ifодали о`qidilar, tomoshabinlar zo`r olqish bilan kutib oldilar.

A.Avloniy didaktik qarashida ifодали о`qishning mazkur turlari, birinchidan, o`quvchilarda kitobga, so`z san`atiga havas uyqotsa, ikkinchidan, o`quvchilar faolligini keskin oshiradi, ya`ni dars davomida o`quvchilarning deyarli hammasi faqat tinglovchi emas, ishtirokchi sifatida qatnashadi, ularning butun harakati bir masalani yoritishga qaratiladi. A.Avloniy ifодали о`qishni o`z darslarida estetik tarbiya vositasi sifatida ham qargan.

Didaktik qarashlari va hur fikrlar bilan ma`rifat maydoniga chiqqan Abdulla Avloniy o`z darsliklarida о`qishning elementar shakllari bilangina cheklanib qolmadı, ayni zamonda, o`sha davrda ilm-ma`rifat tarqatish, xalqni ilm-fanni egallahsga chaqirish yo`lida jiddiy ish olib bordi.

1910-1911-yillarda Riga shahridagi «Grammofon» jamiyatı vakilları o`rta Osiyo shaharlariga kelib, o`zbek, qozoq, tojik, qirqiz xalqlari orasidagi mashhur hofizlarning mumtoz maqomlari va qo`shiqlarini plastikaga yozib oladilar. Shu munosabat bilan atoqli san`atkor Mulla To`ychi Toshmuhammedov (1868-1943) ning ijro etgan shashmaqomi ham plastinkalarga yoziladi. O`z zamonasining yirik ma`rifatparvar shoiri, pedagogi bo`lgan A.Avloniy xalqni ilm-ma`rifatga targ`ib qilish maqsadida o`qitishda o`sha davr texnika vositalaridan ham foydalandi. Abdulla Avloniy o`zbek bolalarini maktabga jalb etish, xalq orasida ma`rifat tarqatish, ifодали о`qishning dastlabki namunalarini yaratish maqsadida birinchi bo`lib texnika vositalaridan foydalanadi. O`qituvchi Avloniy «Maktabga targ`ib» she`rini o`quvchilarga xor bo`lib o`qishga o`rgatganidan so`ng 1911-yilda bolalar xorini grammplastinkaga yozdirdi. Unda she`rning 4 misrasi ikki o`quvchi tomonidan, naqaroti esa bir necha o`quvchilar tomonidan xor bo`lib o`qiladi:

Ikki bola o`qiydi:  
Oqil qoshida, millat boshida  
Nurlar sochub, yashnab turgan maktab emasmi?  
Ilmu hunarlar, gullar chamanlar  
Yoshlar uchun ochub turgan maktab emasmi?

Ko`p bolalar musiqa sadolari ostida xor bo`lib o`qiydilar:

O`qusun yoshlarmiz, bid`atni tashlarmiz,  
Ketsun g`aflat! Kelsun himmat! Yashasun millat!

E`tiborli tomoni shundaki, ushbu “Maktabga targ`ib” xori yozilgan noyob plastinka hozirda O`zbekiston xalq artisti Zokirjon Sultonov fonotekasida saqlanmoqda.

Shuni alohida ta`kidlash kerakki, Abdulla Avloniy birinchi o`zbek teatri tashkilotchilaridan edi. U 1913-yilda «Turon» teatr truppasini tashkil qildi1, ko`plab dramatik asarlar yaratdi, ularni rejisyor sifatida sahnalashtirdi. Uning bu faoliyatni o`z maktabida xor, ifodali o`qish hamda musiqa va ashula darslarini tashkil qilishda muhim ahamiyat kasb etdi. U o`quvchilarning xor bo`lib o`qishlariga, timsollarga bo`lib o`qishlariga ham dirijyordek, ham rejisyordek rahbarlik qildi. Xulosa qilib aytganda, A. Avloniy XX-asr tongida maktablarda birinchi bo`lib texnik vositalardan foydalaniб, ifoladi o`qishning yangi turlarini yaratdi.

Turkiy guliston yohud axloq

«Turkiy guliston yohud ahloq» asari muallifi A. Avloniyning o`zi: «Men bu asarimni birinchi maktablarimizning yuqori sinflarida ta`lim bermak ila barobar ulug` adabiyot, axloq havaskorlarining anzori oliylarig`a taqdim qildim», - deb ta`kidlaganidek, asar 1900 yillardan boshlab xalq o`rtasida ancha katta shuhrat qozona boshlagan «usuli jadid» makatablarining yuqori sinflari o`quvchilari uchun

darslik sifatida yaratilgan edi. Ammo asar darslikdan ko`ra pedagogika faninnig ham nazariy, ham amaliy masalalarini yorituvchi ilmiy asar sifatida namoyon bo`ldi. XX asr boshlarida pedagogikaning nazariy va amaliy masalalariga bag`ishlangan asarlari yaratilgan: «Fitratning «Najot yo`li» («Rahbari najot»), hamzaning «Qiroat kitobi» asarlari shular jumlasidandir, ammo A. Avloniy asari ushbu sohada yozilgan birinchi asardir.

Mutafakkirlar mazkur asarlarini «usuli jadid» maktablarining yuqori sinf o`quvchilariga darslik sifatida yaratgan ekanlar, bu maktablarni bitirib chiquvchi va o`zları ham «usuli jadid» maktablarida o`qituvchi bo`lib ishlovchi yosh o`quvchilarni tayyorlash, pedagogika faninnig o`ziga xos nozik tomonlari bilan ularni oshno qilishni ko`zda tutganlar. Chunki XX asr boshlarida ham o`qituvchilar tayyorlaydigan birorta na oliv va na o`rta maxsus bilim yurti yo`q edi. Rus-tuzem maktablari uchun o`qituvchi kadrlar tayyorlaydigan Toshkent o`qituvchilar seminariyasining tub maqsadlari ma`lum edi.

Munavvar qori Abdurashidxon o`g`li, Abdulla Avldoni, Ishoqxon Ibrat, Siddiqqi-Ajziy, Abduqodir Shakuriy maktablarini bitirib chiqqan va o`qituvchilikka muhabbat qo`ygan ko`pi yoshlari ketma-ket ochilayotgan «usuli jadid» maktablarida ustozlari rahbarligida o`qituvchi bo`lib ishlaganlar. Qayum Amazon, Shoarasul Zunnun, aka-uka Sobirjon va Shokirjon Rahimi, Ismatulla Rahmatullayevlar shular jumlasidandir. Barkamol insonlarni voyaga yetkazish, ularni yaxshilikka chorlash, yomonlikdan qaytarish tarbiya orqali amalga oshiriladi. A. Avloniynning pedagogika haqidagi ta`rifi hozirgi zamon ta`rifiga ancha mos keladi: «Tarbiya «Pedago`giya», ya`ni bola tarbiyasining fani demakdur».

«Turkaiy guliston...» asari 2 marta - 1913 va 1917 yillarda bosmadan chiqdi. Bu asar, asosan, inson axloqi, ya`ni yaxshi va yomon xulqlar haqida fikr yuritadi. Asarning boshidayoq inson hayotida tarbiyannig buyuk ahamiyatiga zamondoshlar e`tiborini qaratadi. Inson hech qachon yomon bo`lib tug`ilmaydi yoki yaxshi odamdangina yaxshi farzand yoki yomon odamdangina yomon odam tug`ilmaydi, farzandnnig barkamol inson bo`lib yetishuvida tarbiyaning ahamiyati buyukligini

ta`kidlaydi: Farzand tarbiyasi shaxsiy masala emas, u davlat, jamiyat ahamiyatiga ega bo`lgan buyuk ijtimoiy ishdir, u shu darajada buyuk ishki, Vatan istiqboli ham, millat taqdiri ham tarbiya bilan bog`liq. Avloniy so`zlari bilan aytganda «... tarbiya bizlar uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidur».

A. Avldoniy ta`lim va tarbiya birligiga alohida ahamiyat beradi. Inson aqliy faoliyatinnig ifodasi bo`lmish fikr tarbiyasi orqaligina katta sharafga, barkamollikka erishadi, bu o`rinda o`qituvchinnig fikrlash doirasining kengligi, bilim saviyasinnig har jihatdan yuksakligi o`quvchilari tarbiyasida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Fikrlash qobiliyatini rivojlantirish aql bilan ish tutishga olib keladi: o`quvchilarni yaxshi xulqlar bilan yomon xulqlarni farqlashga, komil inson uchun zarur bo`lgan yaxshi xulqlarni egallashga, insonni zalolatga yetaklovchi yomon xulqlardan uzoq bo`lishga o`rgatadi. Jadidchilik harakati namoyandalari qarbiy Yevropa ma`rifatparvarlari kabi ilm-ma`rifatni, zamonaviy taraqqiyotni bayroq qilib ko`tardilar, taraqqiyotga to`g`anoq bo`layotgan mutaassib ulamolarga, qadimchilarga qarash keskin kurash olib bordilar. Shuni unutmaslik kerakki, o`zbek ma`rifatparvarlarining Yevropa ma`rifatparvarlaridan ajralib turadigan asosiy jihat shundaki, ularnnig faoliyati zaminida millatni mustamlakachilik zulmidan ozod etish, istiqlol g`oyasi yotar edi.

Shuning uchun ham jadid mutafakkirlari oq va qizil imperiyaga birday ma`qul emas edilar. Abdulla Avloniy pedagogik qarashlarida aql va ilmning yuksak darajada ulug`lanishi bevosita insonni ulug`lash bilan uzviy bog`lanadi. Chunki Olloh insonni barcha mavjudodlardan, mahluqotlardan ulug` qilib yaratdi. Unga ikki dunyo saodatiga erishishdek buyuk maqsad uchun Aql berdi. Inson shu Aql yordamida ilm-ma`rifatni, taraqqiyotni egallaydi, dunyoni boshqaradi. Mana A. Avloniyning aqlga bergen ta`rifi: «Aql insonlarning piri komili, murshidi yagonasidur... Janobi haq insonni hayvondan so`z va aql ila ayirlishdur. Rasuli akram nabiyyi muhtaram sallollahu alayhi vassalam afandimiz: «Ey insonlar! Aqlningizga tavoze` qilingiz. Siz janobi haq buyurgan va qaytargan narsalarни aqlningiz ila bilursiz», - demishlar».

A. Avloniy aql, ilm, tajriba bilan kamol topadi deydi. Avloniy fikricha, ilm har ishda bizga rahnamo, ikki dunyo saodatiga etuvchi ulug' ne`matdur. Ilmsiz kishi mevasiz daraxt kabitidur. Asar muallifi ilmni ikki qismga: ilmi diniy va ilmi faniyga ajratadi. Ammo u bu ismlar o`rtasiga to`sinq qo`ymaydi, aksincha, diniy kishi bo`lish uchun ham hisob, handasa, tarix, hikmat, tib, kimyo, ziroat kabi fanniy ilmlarni o`rganish zarurligini ta`kidlaydi. Muallif fikricha, har bir millatning taraqqiy va taoliysi yoshlarning ilm va ma`rifatiga, hunar va san`atiga bog`liqdir. Ammo bizdagi: «Ajabo Qur`onimiz, Payg`ambarimiz o`qingiz, deb amr qilg'on holda, bizlar na uchun harakat qilmaymiz, boshqa millatlarnig o`g`ullari qizlari kecha demay, kunduz demay, yoz demay, qish demay ilm yo`lida jonlarini fido qilub, qovushub, yugurushib, ko`zlarimizni qamashdurib turgan bir zamonda bizlar hamon uyqudan g`aflatdan, jaholatdan boshimizni ko`tarmaymiz, ibrat olmaymiz. Payg`ambarimiz: «Olim bo'l, ilm talab qiluvchi bo'l, yoki ilmni eshituvchi bo'l, hech bo`lmasa, shularga muhabbat qiluvchi bo'l, beshinchisi bo`lma, halok bo`lursan», - demadilarmu?»

Bundan ham kattaroq to`sinq mustamlakachi ma`murlar bo`lib, o`lkada har qanday ijobiy yangilikni, ayniqsa, maorif sohasidagi o`zgarishlarga, «usuli jadid» maktablarining xalq ma`naviyatiga kirib borishiga tish-tirnoqlari bilan qarshilik ko`rsatar, ularga qarshi kurashda mutaassib ulamolardan usta`monlik bilan foydalanan edilar. Zamonaviy kasb-hunar maktablari, oliy o`quv yurtlari ochish, millatni ilm-ma`rifat nuridan bahramand qilishni mustamlaka ma`murlari xayollariga ham keltirmas edilar.

XIX asrnnig 90-yillari oxirlarida rus-tuzem maktablarida o`qiydigan mahalliy millat bolalari uchun S. M. Gromeniskiynnig uch kitobdan iborat «Kniga dlya chteniya» («O`qish kitobi») asari darslik sifatida nashrdan chiqarildi. N. Ilminskiy qarashlari zaminida yaratilgan ushbu darslikda Rusiyani, rus xalqini ulug`lovchi, Rusiyani buyuk vatan sifatida ta`rif-tavsif etuvchi o`nlab nazmiy va nasriy matnlar berilgan edi. Bu darslikning shovinistik maqsadini jidad pedagoglari tushunib yetgan va millat farzandlarini vatanparvarlik, millatparvarlik ruhida tarbiyalash masalasiga

alohida e`tibor qaratgan edilar. Bu hol ular yaratgan har bir darslikda, har bir ilmiy, badiiy asarlarda yaqqol ko`zga tashlanadi. Abdulla Avloniyning «Turkiy guliston...» asarida «Vatanni suymak» degan bob bor.

Vatan tuproqi muqaddas: unda ajdodlarimizning xokilari bor unda kelajak nasllarimiznnig haqlari bor. Shuning uchun ham Vatanni oddiygina sevish mumkin emas, uning istiqboli uchun kyunish, kurashish, kelguvchi avlodlarga to`la-to`kis, ozod farovon holda topshirish hissi ham mavjud. Abdulla Avloniy ona-Vatanga mana shunday yoniq qalb bilan munosabatda bo`ladi.

Xalq maorifini tubdan isloh qilish, darsliklar, o`quv qo`llanmalari yaratish, Abdulla Avloniyning oktabr to`ntarishigacha bo`lgan faoliyatinnig asosini belgilaydi. U 1917 yil avgustda Qozonda Butunrossoya musulmon muallimlarining II Qurultoyida ishtirok etdi, shu yili Toshkentda Munavvarqori Abdurashidxon o`g`li bilan «O`qituvchilar jamiyati»ni tuzdi. Maqsad iqtidorli yoshlarni taraqqiy etgan chet el oliy o`quv yurtlariga yuborish va kelgusida o`lkada ochilajak oliy o`quv yurti uchun milliy mutaxassislar tayyorlash edi.

Avloniy sho`rolar hukumatiga katta umid bog`ladi, ammo bu hukumat dastlabki kunlardan boshlab munofiqona siyosat olib bordi, uning bunday shovinistik, mustamlakachilik siyosatiga bo`lgan munosabati «Afg`on sayohati» ocherklarida o`z ifodasini topdi.

A. Avloniy 1920-yillarda o`qituvchilik faoliyatini davom ettirdi. 1930 yildan SAGU (hozirgi O`zbekiston Milliy universiteti)da pedagogika fakultetining o`zbek tili va adabiyoti kafedrasini professori va mudiri lavozimida ishladi.

Avloniyning mакtab darsliklari suhbat usuli bilan bolalarning nutqini uyushtirishda, badiiy so`zlashuvga o`rgatishda katta ahamiyat kasb etadi. 7-sinflar uchun yaratgan xrestomatiyasida M.Gorkiy, V.Mayakovskiy, G`G`ulom, H.Olimjon, Oybek, K.YAshin, Uyg`un asarlarini birinchi bor mакtab darsliklariga kiritadi hamda ularning hayoti va ijodi haqida ma`lumot beradi. Avloniy butun ongli faoliyatini xalq maorifiga bag`ishladi. Ko`rib chiqqanimizdek, Abdulla Avloniy

o`zbek adabiyotining yorqin siymolaridan biri sifatida o`z davrida qizg`in faoliyat olib borgan.

A. Avloniy 1927 yilda «Mehnat qahramoni», 1930 yilda «O`zbekiston Xalq maorifi zarbdori» unvonlari bilan taqdirlandi. Abdulla Avloniy 1934 yilning 25 avgustida Toshkentda vafot etdi.

**Xulosa** o`rnida yuqorida mutafakkirlarimiz tamonidan aytilgan barkamol shaxs tarbiyalashda avvalo tarbiya shaklanishida ota-onas, inson yashayotgan atrof-muhit, milliy, diniy qadriyatlar, ta`lim, jamiyatdagi insonparvarlik va adolatparvarlik siyosati muhim ahamiyatga ega. Abdulla Avloniyning qarashlari hozirgi kunda ham komil insonni kamol toptirishda kishilarni chinakam tuyg`ular, umuminsoniy ezgu g`oyalar ruhida, vijdoniylik ruhida tarbiyalash borasida qimmatli manba sifatida e'tiborni o`ziga jalb qilib kelmoqda. Abdulla Avloniyning ta`lim-tarbiya sohasidagi qarashlari o`zbek xalqining ruhiyati, turmush tarzi, milliy qadriyatlar bilan chambarchas bog`langan. Uning boy pedagogik merosi milliy maktab, milliy pedagogikani rivojlantirishda qimmatbaho manba bo`lib xizmat qiladi. Shu ma'noda Avloniyning siyoshi, faoliyati biz uchun qadrlidir. Bu ta`lim-tarbiyani amalga oshirishda asosiy mas`uliyat o`qituvchining didaktik faoliyatiga bog`liq bo`lib katta ma`sulyat o`qituvchi zimmasiga tushadi. Shunday ekan Avloniyning pedagogik merosini pedagoklarimiz yanada o`rganib uni ta`lim-tarbiyada o`quvchilarni barkamol shaxs qilib tarbiyalashda qo'llash barkamol shaxs tarbiyalash jarayonida maqsadga erishishdagi ahamiyati katta bo`ladi deb hisoblaymiz.

## **2.2. Abdulla Avloniy qarashlarida barkamol shaxsni tarbiyalashning tajribadagi natijalari.**

Abdulla Avloniyning pedagogikaga oid asar va qo'llanmalari XX asr boshlaridagi pedagogik fikrlar taraqqiyotini o'rganish soxasida katta axamiyatga molikdir. Uning «Birinchi muallim» («Muallimi avval», 1909), «Ikkinchi muallim» («Muallimi soniy», 1912) nomli darsliklari, «Turkiy guliston yoxud axloq» (1913), «Guliston muktab» (1917), «Adabiyot yoxud milliy she'rlar» (1909-1916, 6 qism) kabi asar va qo'llanmalarining ahamiyati nafaqat ta'limda balki oquvchilarni barkamol shaxs qilib tarbiyalshda ham ahamiyati kattadir.

Bitiruv malakaviy ishimizda barkamol shaxsni tarbiyalashda milliy meroslarimiz va qadriyatlarimizdan o'sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvarlik, insonparvarlik, yuksak ahloqiylik ruhida tarbiyalashda ma'naviy merosimiz sarchashmalaridan biri bo'lgan Abdulla Avloniyning marifatparvarlik qarashlari uning asarlari asosida barkamol shaxsni tarbiyalash borasida 9 - muktabning 3-“G” va 3-“D” sinflarida tajriba sinov ishlarini olib bordik. Shu sinflarning 3-“G” sinfini tajriba sinfi, 3-“D” sinfini esa nazorat sinfi qilib oldik.

Tajriba ishimizda 3-“G” sinf tajriba sinfi, 3-“D” sinf nazorat sinflariga quyidagi savollar bilan murojat qildik.

1. Axloq nima?
2. Yaxshi xulq va yomon xulqlar haqida gapirib bering?
3. Diyarat nima?
4. Ilm nima?
5. Sabr toqat deganda nimani tushunasiz?
6. Intizom nima?
7. Vijdonli inson qanday bo'lishi kerak?
8. Hyo nima?
9. Sadoqat nima?
10. Adolat nima?

11. Jaholat nima?

12. Hasadgo'ylik deganda nimani tushunasiz?

13. Vatan nima va uni nima uchun sevamiz?

Yuqoridagi savollar Abdulla Avloniyning asarlarida mazmun mohiyati to'liq ochib berilgan, tarbiyada bularning ahamiyati kata bo'lib tajriba sinf o'quvchilariga singdirish maqsadida "Turkiy guliston yoxud axloq" asaridan bolalarning yosh xususiyatini hisobga olgan holda ushbu savollarni saralab oldik.

### **Quyidagi jadvalda tajriba sinov ishlarini olib borishda**

**3 - "G" va 3 - "D" sinflarining dastlabki natijalari berilgan.**

№1

3 - "G" tajriba sinfi	"5" baho		"4" baho		"3" baho		3 - "D" nazorat sinfi	"5" baho		"4" baho		"3" baho	
Oquvchi soni 30 nafar	soni	%	soni	%	soni	%	Oquvchi soni 30 nafar	soni	%	soni	%	soni	%
Savollar (Yuqorida berilgan)							Savollar (Yuqorida berilgan)						
1-savol	13	43 %	11	36 %	6	20 %	1-savol	15	50 %	10	33 %	5	16%
2-savol	12	40 %	18	60 %	10	33 %	2-savol	16	53 %	7	23 %	7	23%
3-savol	10	33 %	8	26 %	12	40 %	3-savol	13	43 %	12	40 %	5	16%
4-savol	16	53 %	9	30 %	5	16 %	4-savol	18	60 %	8	26 %	4	13%
5-savol	15	50 %	8	26 %	7	23 %	5-savol	17	46 %	8	26 %	5	16%
6-savol	18	60 %	7	23 %	5	16 %	6-savol	20	66 %	7	23 %	3	10%
7-savol	16	53 %	8	26 %	6	20 %	7-savol	17	46 %	7	23 %	6	20%
8-savol	19	63 %	7	23 %	4	13 %	8-savol	20	66 %	7	23 %	3	10%
9-savol	20	66 %	6	20 %	4	13 %	9-savol	21	70 %	6	20 %	3	10%
10-savol	14	46 %	9	30 %	7	23 %	10-savol	16	53 %	8	26 %	6	20%
11-savol	17	56 %	9	30 %	4	13 %	11-savol	18	60 %	8	26 %	4	13%
12-savol	20	66 %	5	16 %	5	16 %	12-savol	21	70 %	6	20 %	3	10%
13-savol	22	73 %	5	16 %	3	10 %	13-savol	21	70 %	6	20 %	3	10%

Tajriba sinov ishimizni tarbiya masalalariga qaratgan holda ikki oy mobaynida odobnama darslarida Abdulla Avloniyning barkamol shaxs tarbiyasidagi qarshlarini qisman holda o'quv darsligini borishini buzmasdan olib bordik. Bu jarayonda axloq, yaxshi xulq va yomon xulqlar haqida tushunchalar berdik, diyonat haqida, sabr toqat haqida, intizom haqida, vijdon, hyo, sadoqat,adolat, jaholat, hasadgo'ylik, vatanni sevish kabi tushunchalarini shakillantirib uy vazifasi sifatida tayyor manbalarni oquvchilarga o'qishlari uchun taqdim qildik. Bularni amalga oshirishda Abdulla Avloniy asarlaridan manba sifatida foydalandik, quyidagi ma'lumotlarda biz aytgan manbalarning bir qismi keltirilgan.

**(Siz tanishmoqchi bo'lgan ushbu ma'lumotlar asl holida taqdim etilgan, boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh hususiyatlarini hisobga olgan holda tajriba ishimiz mobaynida barcha ma'lumotlar o'quvchilar tushunib etishi uchun soddalashtirib aniq holda berilgan edi!)**

## AXLOQ

Insonlarni yaxshilikg'a chaqiruvchi, yomonlikdan qaytarguvchi bir ilmdur. Yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misollar ila bayon qiladurgan kitobni axloq deyilur. Axloq ilmini o'qub, bilub amal qilgan kishilar o'zining kim ekanin, janobi Haq na uchun xalq qilganin, yer yuzida nima ish qilmak uchun yurganin bilur. Bir kishi o'zidan xabardor bo'lmasa, ilmni, ulamoni, yaxshi kishilarni, yaxshi narsalarni, yaxshi ishlarning qadrini, qimmatini bilmas. O'z aybini bilub, iqror qilub tuzatmakg'a sa'y va ko'shish qilgan kishi chin bahodir va pahlavon kishidur. Rasuli akram nabiyyi muhtaram afandimiz: «Mezon tarozusiga qo'yiladurgan amallarning ichida yaxshi xulqdan og'irroqi yo'qdur. Mo'min banda yaxshi xulqi sababli kechasi uxlamasdan, kunduzlari ro'za tutub ibodat qilgan kishilar darajasiga yetar», – demishlar.

So'ylasang so'yla yaxshi so'zlardan,  
Yo'qsa jim turmoqing erur yaxshi.  
O'ylasang yaxshi fikrlar o'yla,

Yo'qsa gung bo'lmoqing erur yaxshi.

Ishlasang ishla yaxshi ishlarni,

Yo'qsa bekorlig'ing erur yaxshi.

## XULQ

Inson ikki narsadan murakkabdur. Biri jasad, ikkinchisi nafsdur. Jasad ko'z ila bor narsalarni ko'rur. Ammo nafs idrok ila yaxshini yomondan, ojni qoradan ayirur. Jasadning ham, nafsning ham biror surati bordurki, yo yaxshi va yo yomon bo'lador. Jasadning surati hammaga ma'lum bir narsadurki, har vaqt ko'zga ko'rinish turadur. Ammo nafsning surati ko'zga ko'rinchaydurgan, aql ila o'lchanadurgan bir narsadurki, buni xulq deb atalur.

Agar bir kishi yoshligida nafsi buzulub tarbiyasiz, axloqsiz bo'lib o'sdimi, «Allohu akbar» bunday kishilardan yaxshilik kutmak yerdan turub yulduzlarga qo'l uzatmak kabidur. Rasuli akram nabiyyi muhtaram sallollohu alayhi vasallam afandimiz: «Bir tog'ning o'rnidan ko'chib ketganini eshitsangiz, ishoningiz, ammo bir odamning xulqi boshqa bo'ldi deb eshitsangiz ishonmangiz», – demishlar.

Xulqi yomon yuz, ko'zlidin na sud

Yuz, ko'zli xulqni qilmas kashud.

Xulq mariziga davo istasang,

Marg davosin berilur qistasang.

Xulqi yomoning keturar ko'p zarar,

Xulqing o'zi boshingga kaltak urar.

Xulqi fano bo'lsa degil alhazar,

Xor-u zalillikda qolur darbadar.

## YAXSHI XULQ, YOMON XULQ

Axloq ulamosi insonlarning xulqlarini ikkiga bo'l mishlar Agar nafs tarbiyat topib, yaxshi ishlarni qilurga odat qilsa, yaxshilikg'a tavsif bo'lub, «yaxshi xulq» agar tarbiyatsiz o'sub, yomon ishlaydurgan bo'lub ketsa, yomonliqg'a tavsif bo'lub «yomon xulq» deb atalur. Janobi Haq insonlarning asl xilqatda iste'dod va qobiliyatli, yaxshi ila yomonni, foyda ila zararni, oq ila qorani ayiradurgan qilub yaratmishdur.

Lekin bu insondagi qobiliyatni kamolga yetkurmak tarbiya ila bo'ladur. «Qush uyasinda ko'rganin qiladur». Inson javhari qobildur. Agar yaxshi tarbiya topib, buzuq xulqlardan saqlanub, go'zal xulqlarga odatlanub katta bo'lsa, har kim qoshida maqbul, baxtiyor bir inson bo'lub chiqar. Agar tarbiyatsiz, axloqi buzulub o'ssa, Allohdan qo'rqlaydurgan, shariatga amal qilmaydurgan, nasihatni qulog'iga olmaydurgan, har xil buzuq ishlarni qiladurgan, nodon, johil bir rasvoysi olam bo'lub qolur.

Rasuli akram nabiyyi muhtaram afandimiz: «Imoni komil bo'lgan kishilar yaxshi xulqli bo'lurlar, sizning eng yaxshilaringiz xotunlariga yaxshilik qilganlaringizdur», - demishlar. Xudoning rahmat-u fayzi hamma insonga yaksardur,

Va lekin tarbiyat birla yetushmak sharti akbardur.

Tug'ub tashlov-la bo'lmas bola, bo'lg'ay balo sizga,

Vujudi tarbiyat topsa, bo'lur ul rahnamo sizga.

Temirchining bolasi tarbiyat topsa, bo'lur olim,

Buzulsa xulqi, Luqmon o'g'li bo'lsa, bo'lg'usi zolim.

Yomonlarga qo'shuldi Nuhning o'g'li, o'ldi beimon,

Yurudi Kahf iti xublar-la bo'ldi oti inson.

## **TARBIYA**

Tarbiya – «Pedagogiya», ya'ni bola tarbiyasining fani demakdur. Ilmi axloqning asosi tarbiya o'ldug'indan shul xususda bir oz so'z so'ylaymiz. Bolaning salomati va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmak, tanini pok tutmak, yosh vaqtidan maslakini tuzatmak, yaxshi xulqlarni o'rgatmak, yomon xulqlardan saqlab o'sdurmakdur. Tarbiya qilguvchilar tabib kabiturki, tabib xastaning badanidagi kasaliga davo qilgan kabi tarbiyani bolaning vujudidagi jahl maraziga «yaxshi xulq» degan davoni ichidan, «poklik» degan davoni ustidan berub, katta qilmog'i lozimdur.

Zeroki, «Hassinu axloqiko'm» amri sharifi uzra xulqimizni tuzatmakg'a amr o'linganmiz. Lekin xulqimizning yaxshi bo'lishining asosiy panjasи tarbiyadur.

Axloqimizning binosining go'zal va chiroyli bo'lishiga tarbiyaning zo'r ta'siri bordur, ba'zilar «tarbiyaning axloqqa ta'siri yo'q, insonlar asl yaratilishida qanday bo'lsalar, shunday o'sarlar, tabiat o'zgarmas», – demishlar.

Yomon xo' tuzalmaydi darmon ila,  
Ipak o'lmas ip, rangi alvon ila.  
Boqing, bir daraxt mevasidur yomon,  
Bo'lur yaxshi payvand, parvo bilan.  
Bilur har kishi aslini rangidan,  
Va yokim ulangandagi zangidan».

Lekin bu so'z to'g'ri emasdur. Chunki tarbiyaning axloqga, albatta, ta'siri bo'ladur. Oramizda masal borki, «sut ila kirgan, jon ila chiqar», mana bu so'z to'g'ridur. Rasuli akram nabiyyi muhtaram salollohu alayhi vasallam afandimiz: «Beshikdan to mozorga borguncha ilm o'rgan», – demishlar. Bu hadisi sharifning ma'nosi bizlarga dalildur. Hukamolardan biri: – «Har bir millatning saodati, davlatlarning tinch va rohati yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog'lidur», – demish. Shariati islomiyada o'z bolalarini yaxshilab tarbiya qilmak otalarga farzi ayn, o'z millatining yetim qolgan bolalarini tarbiya qilmak farzi kifoyadur.

Payg'ambarimiz: «Bolalaringizni yetti yoshida namozga o'rgatingiz. Agar o'n yoshida o'qimasa uringiz», – demishlar.

Har kishining dunyoda oromi joni tarbiyat,  
Balki oxirida erur dorulamoni tarbiyat.  
Tarbiyat hamroh etadur hur ila ruzvonlara,  
Gar desam bo'lmas xato jannat makoni tarbiyat.  
Ey, Otalar! Jonlaringizdan suchuk farzandingiz,  
G'ayrat aylang o'tmasun vaqt-zamoni tarbiyat.  
Moyai zilli xumodur tarbiyatning soyasi,  
Bizda anqo tuxmidek yo'q oshyoni tarbiyat.

## BADAN TARBIYASI

Badanning salomat va quvvatli bo'lmog'i insonga eng kerakli narsadur. Chunki o'qumoq, o'qutmoq, o'rganmoq va o'rgatmoq uchun insonga kuchlik, kasalsiz jasad lozimdur. Sog' badanga ega bo'lмаган insonlar amallarinda, ishlarinda, ibodatlarinda kamchilik qilurlar. Maishatimizni rohatda bo'lmog'i jasadimizning sog'lom bo'lmog'iga bog'lidur. Biz sihatimizni saqlamak ila amr o'linganmiz, shuning uchun vujudimizi hifzi-sihatga zid bo'lgan yomon odatlar ila churitmakdan saqlanmakligimiz lozimdur. Badan tarbiyasining fikr tarbiyasiga ham yordami bordur. Jism ila ruh ikkisi bir choponning o'ng ila terisi kabidur. Agar jism tozalik ila ziynatlanmasa, yomon xulqlardan saqlanmasa, choponning ustini qo'yib astarini yuvub ovora bo'lmoq kabidurki, har vaqt ustidagi kiri ichiga uradur. Fikr tarbiyasi uchun mahkam va sog'lom bir vujud kerakdur. Shuning uchun ota-onalar bolalari kasal bo'lgan zamon beparvolik qilmay, tezlik ila tabib yoki do'xturga boqizmak kerak.

Imom Shofe'i hazratlari: «Ilm ikki xildur: biri badan ilmi, ikkinchi din ilmi», – demishlar. Bunga qaraganda eng avval hifzi sihat qoidalarini bilmak, salomatlikga ters bo'lgan narsalardan saqlanmak ila bo'lador.

Ichkulik, ko'knor, nasha, afyun, taryok, chilim, nos, popirus kabi badanning salomatlikig'a zararli, og'ulik, ba'zisi harom, ba'zisi makruh, ba'zisi isrof bo'lgan narsalardan qochmak, saqlanmak shariat, aql, hikmat yuzasidan lozimdur. Rasuli akram nabiyyi muhtaram sallollohu alayhi vasallam afandimiz:

«Har narsa ko'p ichganda mast qiladurgan bo'lsa, man sizni aning ozginasidan ham nahy qilaman», – demishlar.

Salomatlikni saqlov lozim ishdur.

Gunahdin saqla jisming yoz-u qishdur.

Kasal bo'lsang, bo'lur dunyo qorong'u,

Maishat talk o'lub hasrat chekishdur.

Harom-u shubhadan pok et o'zingni,

Bu dunyo aysh-u ishratdan kechishdur.

Hama ishratchi hijronlikda ketdi,

Bu olamda bir ish ishlab ketishdur.

Turkiy guliston yoxud axloq kitobi

### **FIKR TARBIYASI**

Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko'p zamonlardan beri taqdir qilinub kelgan, muallimlarning diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadur. Fikr insonning sharofatlik, g'ayratli bo'lishiga sabab bo'ladur. Bu tarbiya muallimlarning yordamiga so'ng daraja muhtojdurki, fikrning quvvati, ziynati, kengligi muallimning tarbiyasiga bog'lidur. Dars ila tarbiya orasida bir oz farq bor bo'lsa ham, ikkisi bir-biridan oyilmaydurgan, birining vujudi birig boylangan jon ila tan kabidur. Masalan: joy solinmagan yaxshi bir uyning ichida o'tirmak mumkin o'lmadig'i kabi, ichiga har xil yangi ashyolar to'ldurub ziynatlangan eski imorat ham o'lturushga yaramayduri. Basharti o'ltursa, insonlar: «Eski uyga yangi zoldivor», «kir ko'yakka jun jiyak», «mis qozonga loy tuvoq» deb hajv, kulgi qilurlar.

Fikr agar yaxshi tarbiyat topsa,

Xanjar, olmosdan bo'lur o'tkur.

Fikrning oyinasi olursa zang,

Ruhi ravshan zamir o'lur benur.

### **AXLOQ TARBIYASI**

Axloq tarbiyasi: insonlarga eng muhim, ziyoda sharaf, baland daraja berguvchi axloq tarbiyasidur. Biz avvalgi darsda tarbiya ila dars orasida farq bor, deduk, chunki dars oluvchi-biluvchi, tarbiya oluvchi-amal qiluvchi demakdur. Shuning uchun tarbiya qiluvchi muallimlarning o'zлari ilmlariga omil bo'lub shogirdlarga ham bergen darslarini amal ila chaqushturub o'rgatmaki lozimdu. Bu ravishi ta'lim ila berilgan dars va ma'lumot shogirdlarning diliga tez ta'sir qilub, mulloyi boamal bo'lurlar. Rasuli akram nabiyyi muhtaram salollohu alayhi vasallam afandimiz: «Eng yomon kishilar ilmiga amal qilmaydurgan kishilar», – demishlar. Agar tarbiya qiluvchi muallim o'zi olim bo'lub amalsiz bo'lsa, buning ham shogirdlarning axloqiga zo'r ta'siri bo'ladur. «Domlaning o'zi falon joyda falon ishni

qildi. Ammo bizlarga qilmanglar, haromdur, deb va'z etadur», deb fikr va xayollariga bo'yла shak va shubha tushub qoladur.

### **BAYT**

Minbar uzra jilva aylab va'z etarlar qilma deb,  
O'zlarin xilvatda ko'rsang oni qilmoqda emish.  
Ichma suv derlar biza oltun-kumush asbobda,  
Bilsamiz maqsudlari qo'lтуqg'a urmoqda emish.

### **YAXSHI XULQLAR**

Yaxshi xulq: bir qismi o'z nafsimizga, bir qismini bir-birimizga qarshu ishlatmak uchun kerakli bo'lган yaxshi xulqlar: fatonat, diyonat, islomiyat, nazofat, g'ayrat, riyozat, qanoat, shijoat, ilm, sabr, hilm, intizom, miqyosi nafs, vijdon, vatanni suymak, haqqoniyat, nazari ibrat, iffat, hayo, idrok va ako, hifzi lison, iqtisod, viqor, xavf va rajo, itoat, haqshunoslik, xayrixohlik, munislik, sadoqat, muhabbat va afvdur. Mana bu yozdig'imiz yaxshi xulqlar aql va shar'i sharifga muvofiq. Alloh taolo ham bandalar qoshida maqbul va mu'tabardur. Emdi bu yaxshi xulqlarni qo'lga olmak uchun ota-onas, muallim ustodlarimiz hazratlarining hikmatli nasihatlarini jon qulog'i birla tinglab, doim xotirda tutmoq, axloqi yaxshi kishilar birla ulfat bo'lma, axloqi buzuq yomon kishilardan qochmak lozimdu. Bizim shariati islomiyada «axloqi hasana» – yaxshi xulqlar ila xulqlanmak, har narsaga ibrat ko'z ila boqub, xulqini tuzatmak vojibdur. Rasuli akram nabiyyi muhtaram salollohu alayhi vasallam: «Islomiyatda buzuqlik yo'qdur, buzuqlikni ustiga oluv ham yo'qdur. Islomiyatda eng mu'tabar kishilar yaxshi xulq egalaridur», – demishlar.

### **BAYT**

Yaxshi birla yursa, har kim maqsudi hosil bo'lur,  
Yursa nodonlar ila, bir kun borib qotil bo'lur.  
Kattalar qilgan nasihatni kichiklar olmasa,  
Oqibat xulqi buzuq bir beadab johil bo'lur.

### **DIYONAT**

Diyonat alloh huzurina yaqin qiladurgan muqaddas e'tiqoddurki, olamda mundan suyukli narsa yo'qdur Din va e'tiqodi salomat bo'lмаган kishilar haqni botildan, foydani zarardan, oqni qoradan, yaxshini yomondan ayira olmas, munday kishilardan na o'ziga va na boshqa kishilarga, va na millatga tariqcha foyda yo'qdur. Din janobi Haq tarafidan bandalari uchun qurilmish to'g'ri yo'ldurki, banda dunyo va oxiratda bu yo'l ila sohili salomatga chiqar. Din ulamolari diniy kitoblarda Alloh taologa ibodat qilishning yo'l va qoidalarini bayon qilmishlar.

Ibodat ikki turli bo'ladur: Biri tan ibodati, ikkinchisi ruh ibodati. Tan ibodati tahorat, namoz, ro'za, zakot, haj kabi amallardurki, bularning har birini o'z vaqtida shariatga muvofiq ravishda minnat qilmasdan, riyo qilmasdan dilni poklab, niyatni xolis qilub, shavq va zavq ila ado qilmoq lozimdur. Ruh ibodati qalb ila ado qilinadurgan ibodatdurki, e'tiqodni mahkam, dilni pok qilub, Qur'on, Hadis, fiqh kabi diniy kitoblar oqilganda jon qulog'i ila tinglab asarlanmakdur. Bir kishi tan ibodatini qilub, ruh ibodatini qilmasa, yo ruh ibodatini qilib, tan ibodatini qilmasa o'z vazifasini ado qilmagan bo'ladur. Aql din ila, din amal ila, amal taqvo ila kamol topar. Din insonlarning dilidan saxovat, marhamat, shafqat, ulfat, muruvvat eshiklarini ochub, saodat va salomat bo'stoniga olib borur. Rasuli akram nabiyyi muhtaram salollohu alayhi vasallam afandimiz: «Alloho ni ko'z oldingda ko'rub turgandek ibodat qil, zeroiki, san oni ko'rmasang ham, albatta, Ul sani ko'radur, nafsingni o'lgan hisob et», – demishlar.

## BAYT

Pok qilgil diningni, imoningni,  
Qul huvar-rahmon omanno bih.  
Diningni yoqmasun havas zinhor,  
Va qino rabbano azoban-nor.

## NAZOFAT

Nazofat deb a'zolarimizni, kiyimlarimizni, asboblarimizni pok va toza tutmoqni aytilar. Poklik zehn va idrokingni keng va o'tkur qilur. Xalq orasida e'tibor

va shuhratga sabab bo'lur. Poklik ila har xil kasallardan qutulub, jonioimizning qadrini bilgan bo'lurmiz. Pok bo'lmaq salomatimiz, saodatimiz uchun eng kerakli narsadur. Pok bo'lmanagan kishi Alloh ham xalq qoshida sevimsizdur. Yirtiq, eski kiyimlar kiymak ayb emas, yangi kiyimlarni kir qilub, yog'ini chiqarub yurmak zo'r ayb va gunohdur. Chunki bu ish shariatga ters, tarbiyati badanga zid, ajnabiylar ko'ziga islomiyatni chirkin qilib ko'rsatmoq bo'ladur, ham bir yilga yetadurgan kiyimlar olti oyga yetmay, qirqilub tamom bo'ladur. Bu isrof, mol qadrini bilmaslikdur. Ifloslik balosidan poklik davosi ila qutulmoq kerak. Bاليقىنلىك hayoti suv ila o'ldig'i kabi, insonning salomatligi havo iladur. Agar tan pok bo'lub yuvilib turmasa, quloq kir bo'lsa, eshitmagani kabi badan ham o'ziga kerak bo'lgan havoni ichiga ololmas, ichidagi rutubat ham kirdan o'tub chiqub ketolmas, chunki badan elak kabi ko'zlikdur. Agar ko'zi kir olsa, un turub suv ham o'tmas, shuning uchun tamiz bo'lmanagan kishilar qo'rqinch kasallarga tezgina giriftor bo'lurlar. Shodliqlari g'amda, oltundan qadrli umrlari kasalkxonalarda o'tar. Mana shularni rioya qilub, shariatimiz bizga poklikni farz qilmishdur. Poklik musulmonlig'ning ildizidur. Shuning uchun tani, kiyimi, joynomozи pok bo'lmanagan kishining ibodati ham durust bo'lmaydur. Rasuli akram nabiyyi muhtaram sallollohu alayhi vasallam afandimiz: «Islom dini pok dindur. Bas, pok bo'lingiz, pok bo'lmanagan kishi jannatka kirmas», – demishlar.

Xalqi olam sevgusidur tozalik, pokni,  
Poklik ortturgusidur fahm ila idrokni.  
  
Har kishini ko'ksida poklik nishoni bo'lmasa,  
Tozalik maydonidan quvg'aylar ul bebokni.

### SA'Y VA G'AYRAT

Sa'y va g'ayrat deb ustiga yuklangan ibodat va xizmatlarni harakat birla ado qilmakni aytilar. Shariat ham aql yuzasidan yalqovlik qilub, ishsiz, bekor yurmak durust emasdur. Zeroki, Qur 'oni karim bizlarni sa'y qilmoqg'a amr etmishdur. Dangasalik har vaqt insonni xor, tama balosiga giriftor qilur. Bir ishga mashg'ul bo'lgan kishilar vaqtning o'tganini bilmas, yalqov kishilar uchun bir soat o'tkarmak qiyomatdan qiyindur.

G'ayrat vujudimizga quvvati mas'ud va baxtiyor bo'lismizga sababdur. Shuning uchun har birimiz sa'y qilub, o'z kuchimiz ila maishatimizga kerak bo'lgan narsalarni topub, boshqalarga muhtoj bo'lmay rohat-rohat yashamoq lozimdur. Sihatimiz, saodatimiz, sarvatimiz, qanoatimiz, sabrimiz, fazilatimiz, alhosil, butun hayotimiz harakatimizga bog'lidur. Harakatlik kishilar tezgina maqsudlariga yeturlar. Yalqov kishilar har narsadan mahrum, doim boshqalarning yordamiga muhtoj bo'lub xorlikda qolurlar.

Kishi yosh vaqtida ilm va ma'rifat, hunar va san'atga bo'yin qo'ymasa, taraddud qilmasa, albatta, qora ishchi bo'lub qolur. Shariatga ters, qonunga zid bo'limgan xizmatlarni qilmak ayb emasdur. Agar bunga ham bo'yin qo'ymay bu ko'mirchilik, bu temirchilik menga munosib ish emas deb, dangasalik qilub, ishsiz yursa, zo'r ayb, g'ayratsizlikdur. «Gayratlikdan imon qutilmas» degan masal bor. Bunga qaraganda dunyo va oxiratimiz uchun g'ayratni qo'ldan bermaslik lozimdur. G'ayrat imona, salobati vijdona dalolat etar.

Hazrati Umar eshik oldida bekor o'tirgan bir kishini ko'rub: «G'ayratsiz kishilardan Xudo bezor, islomiyat g'ayrat ila rivoj topdi, sandek yalqov kishilardan islomiyat hazar qilur», – demishlar.

Haq buyurdi: «Laysa lilinsoni illo mo sa'y»,  
G'ayrat ila o'tdi olamdan Muhammad Mustafo.  
Biz-da ummatmiz, qilayluk sa'y ila xayr-u saxo,  
Qilsalar shoyad shafoat sohibi ro'zi jazo.

## RIYOZAT

Riyozat deb savob ishlarni qilub, gunoh ishlardan saqlanmoqni aytilar. Riyozat adabning koni, ruhning darmonidur. Insonlarni to'g'ri yo'lga solub, egri yo'ldan qaytarguvchi riyozatdurdur. Shul sababli riyozat qilguvchilar oqil va fozil bo'lur. Alloh ham xalq qoshida maqbul va mo'tabardur. Yalqovlik, ko'p uxlamak, yomon odamlar ila yurmak, vaqtini bekor o'tkarmak, aysh-u ishrat qilmak, ko'p oshamak, foydasiz so'zlar so'zlamak, samovarlarda, ko'chalarda aziz umrni bo'sh otkarmak kabi ishlarning hammasi riyozatga zid, umrning egovi, Xudoning

g'azabidur. Allohning buyrug'i, Rasulullohning sunnatlari, shariat qil degan ishlarni birin-ketin o'z vaqtida qilmak ibodat ham riyozatdurdur. Riyozatni rioya qilgan kishilar hech vaqt shariat yo'lidan ayrilmas, Alloh buyrug'idan chetga chiqmas va bu yo'l ila oxirat azobidan qutulur, rohat va rahmat saroyiga kirar, riyozatni rioya qilmagan kishilar Alloh taoloning rizosini topolmas, xor-zor bo'lub, oxiratda alamlik azobga giriftor bo'lur.

Aflatun hakim: «Men riyozatdagi lazzatni hech narsada ko'rmadim, zeroki, vujudimning salomati, ruhimning saodatini riyozatda topdim. Shuning uchun riyozat ayni saodatdur deyaram, chunki fikrning, tilning islohi badanning riyozatiga bog'lidur», – demish. Ibn Sino hakim: «Tan riyozatidan ko'proq ruh riyozati lozimdir. Mard kishi o'zini riyozat va adab ila ko'rsatsun, inson ila hayvon orasidagi farq yolg'uz maishatda emas, yaxshi axloq kasb qilmoqdadur», – demish.

Riyozat mevasidur misli bodom,  
Yuzi qattig' ichidur ishta in'om.  
Kishin maqsudina eltar riyozat,  
Riyozatsiz ish o'lg'ay besaranjom.  
Agar sabr-u riyozat cheksang, ey jon,  
Pishub oldingga tushgay mevayi xom.

## **SHIJOAT**

Shijoat deb botir va yurakli bo'lmakni aytilar. Shaji' kishi hech narsadan qo'rqlaydurgan botir va yurakli bo'lur. Sa'y va g'ayratning ziddi dangasa va yalqovlik o'ldig'i kabi shijoatning ziddi qo'rqlaydurdur. Qo'rqlay savdogar foyda qilmas. Qo'rqlay kishi o'zining soyasidan hurkar, hech bir ish qilishga yuragi bo'lmas. Ko'p kishilar vahima va qo'rqlay orqasidan mollaridan, jonlaridan, vatanlaridan ayrilurlar. Shuning uchun har ishda shijoatni qo'ldan bermaslik lozimdir. Shijoat insoniyatning sof oyinasi, iffat, g'ayrat, istiqomat kabi yaxshi xulqlarning nuroniyasidur. Shijoatning haqiqati qalbning matonatindan, ruhning salomatindan iboratdurdur.

Hozirgi zamonda botirlik – boylikda, qaysi davlat va millatning davlati bolsa, shul ustun bo’lmakdadur. Chunki hukumat uchun xalq, xalq uchun hunar, hunar uchun ilm, ilm uchun aqcha lozimdur. Sarvatli millatlar milliyatlarini yo’qotmas, rohat va saodatda yashar. Bu kunda madaniy millatlar urushlarini tijorat va sanoatga aylandurdilar va bu soyada bir-birlariga g’alaba va raqobat qila boshladilar. Sehrgar va jodugarlik ila emas, tijorat va sanoatgarlik ila cholishqon Yovro’pa, Afriqo va Osiyon o’ziga asir va musaxxar qilmakdadur.

Bu zamonda fil ila jang aylamak erlik emas,  
Er o’shaldurkim tutar ilm-u hunarning yoqasin.  
Beshlab, o’nlab so’m topishsa, ilm ila ag’yorlar,  
Biz bo’lub hammol, oladurmiz tiyinlab choqasin.  
Boshqalar san’at, tijorat-la taraqqiy aylasa,  
Bizni el tortar ayog’din o’lgan otning toqasin.

## **QANOAT**

Qanoat deb janobi Haq tarafidan ihson bo’lgan ahvolga yetishdig’imiz ne’mat va molga shukr, boshimizga kelgan faqr, musibat, falokatlarga chidab, sabr qilmoqni aytilur. Qanoat hasad, tama, hirs, xorlik kabi illatlarning davosi, nafsimizning g’inosidur. Qanoat bir xazinadurki, naqdinasi kundan-kun ortar. Bu xazinaga ega bo’lgan kishilar umrlarini shavq va rohatda kechirurlar.

Buning ila barobar qanoatsizlikdan paydo bo’ladurgan hasad degan jonning eng zo’r dushmanidan qutulurlar. Chin insonlar kishining molina, mulkina, saodatina, maishatina hasad qilmas, qanoatdan ayrilmas, umrini rohatda o’tkarur. Inson har bir ishga kuchi yetguncha cholishmoq, janobi Haq taqdirdagi narsasidan nimani bersa, shunga qanoat qilmoq lozimdur.

Zeroki, inson o’z maishatini, nomusini saqlamoq uchun fidoyi jon darajasiga borguncha sa’y qilmoqg’a buyurilmishdur, lekin bu sa’yning mashruyi har bir ishda qanoatni qo’ldan bermaslikdur. Olamda qanoat kabi dilni poklaydurgan narsa yo’qdur. Janobi Haqning amriga itoat qanday saodat esa, taqdiriga qanoat ziyoda baxtiyorlikdur. Hazrati Ali afandimiz: «Dunyoda sa’y-jadali ila maishat o’tkargan

qanoat egasi hech kimg'a muhtoj bo'limgan zo'r boylar kabi rohatda, saodatda yashar», – demishlar. Aflatun hakim: «Insonning saodati qanoatini qo'lda tutmakda, sarvat va maishat to'g'risida janobi Haqning taqdiriga rozi bo'lmaqdadur», – demishlar.

## ILM

Ilm deb o'qimak, yozmakni yaxshi bilmak, har bir kerakli narsalarni o'rganmakni aytilur. Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidur. Ilm inson uchun g'oyat oliy va muqaddas bir fazilatdur. Zeroki, ilm bizga o'z ahvolimizni, harakotimizni oyina kabi ko'rsatur. Zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o'tkur qilur. Savobni gunohdan, halolni haromdan, tozani murdordan ayurub berur, to'g'ri yo'lga rahnamolik qilub, dunyo va oxiratda mas'ud bo'lishimizga sabab bo'lur. Ilmsiz inson mevasiz daraxt kabitur. Chunki ilmsiz kishilar ota-onasiga, qarindosh-urug'iga, yordostiga, din va millatiga foyda yetkurmak bir tarafda tursun o'z ustiga lozim bo'lgan ibodat va toatni ham loyiqicha qila olmas. Ilmning foydasi u qadar ko'pdurki, ta'rif qilg'on birla ado qilmak mumkin emasdur.

Bizlarni jaholat qorong'ulig'idan qutqarur, madaniyat, insoniyat, ma'rifat dunyosiga chiqarur, yomon fe'llardan, buzug' ishlardan qaytarur, yaxshi xulq va adab sohibi qilur, Alloh taologa muhabbat va e'tiqodimizni ortdurur, janobi Haqning azamat va qudratini bildirur. Alhosil, butun hayotimiz, salomatimiz, saodatimiz, sarvatimiz, maishatimiz, himmatimiz, g'ayratimiz, dunyo va oxiratimiz ilma bog'lidur.

Payg'ambarimiz: «Ilmga amal qilguchilardan bo'lingiz, naql va rivoyat qilguchilardan bo'lmaningiz», – demishlar.

Ilm bir daryo ichi to'l mish dur-u gavhar bilon,

Qiymat-u qadrin qachon bilg'ay oni johil yilon.

Olim kishilar har yerda aziz va hurmatlidur. Shariatimizda qaysi ilmga muhtoj bo'lsang, shuni bilmak bizga farzdur. Shuning uchun o'qimak, bilmak zamonlarini qo'ldan bermay, vujudimizning dushmani bo'lgan jaholatdan qutulmakga jonimiz boricha sa'y qilmagimiz lozimdir.

## SABR

Sabr deb boshimizga kelgan balo va qazolarga chidamli bo'lmakni aytilur. Har bir ishda sabr va sovuqqonlik ila harakat qilmak lozimdur. Chunki boshimizga keladurg'on balo va qazo, zahmat va mashaqqatlarning barchasi janobi Haqning irodasi ila o'ldig'i uchun bularg'a sabrsizlik qilgan kishilar ajr va savobdin quruq qolurlar. Sabr insonlar uchun buyuk bir fazilatdurki, janobi haq sobirlarni suyar. Qur'oni karim ichida ko'p yerda sabrni, sobirlarni madh qilmishdur . Shariati islomiyada janobi Haq tarafidan kelgan balo va qazog'a sabr qilmoq farzi ayndur. Inson har bir ishni sabr va matonat ila yurutsa, maqsudiga tinch va rohatda borub yetar.

Hamisha saodatda yashar.

Sekin borgan kishi maqsuda yetgay,  
Shoshub besabrlar kaj yo'lga ketgay.  
Agar sabring bo'lsa nafsingga yo'ldosh.  
Seni tavfiqi rabboniga eltgay.

Nafsi sabr ila rom qilgan kishi har ishda oshiqmay, ohista harakat qilur. Nafsi halokatdan, g'ururdan saqlar. Sabr shunday bir kuchli narsadurki, shahvatni iffatga, g'azabni shijoatga, shiddatni hilmga, kattalikni tavozu'ga, yomonlikni yaxshilikg'a aylandurmakg'a quvvati yetar. Shul xususda so'ylanmish bir hadisi sharifning ma'nosi «ilm imonli kishilarning muhibi, hilm homysi, aql dalili, yaxshi amal sarmoyasi, muloyimat validi, afv axavoni, sabr hokimi vijdonidur», – deyilmish.

Arablar: «Assabru miftohul-farah» – «sabr shodlig'ning kalididur», – deyurlar.

Sabr ila har mushkul ish zoyil bo'lur,  
Sabr edan maqsudina noyil bo'lur.  
Har kishida bo'lmasa sabri jamil,  
Nafs ko'yina yurub soyil bo'lur.  
Sabr qilsang, g'o'radan halvo bitar,

Sabrsizlar o'z oyog'idan yitar.

## INTIZOM

Intizom deb qiladurgan ibodatlarimizni, ishlarimizni har birini o'z vaqtida tartibi ila qilmakni aytilar. Agar yer yuzida intizom bo'lmasa edi, insonlar bir daqiqa yasholmas edilar. Janobi Haq yer-u osmonlarni, oy va yulduzlarni, inson va hayvonlarni, qurt va qushlarni shunday bir nizom ila tarbiyat berib yaratmishdurki, aql bilmakdan, qalam yozmakdan, til so'zlamakdan ojizdur.

Dunyoga kelgan payg'ambarlarning har birlari din va shariatlarini tarbiyat va nizom ila yurutmishlar. Xususan, islom dini mukammal ravishda tartib va nizomni rioya qilmishdur. Va bu soyada ozgina zamonda islom urug'lari butun dunyo yuziga yoyilmishdur.

Islom davlatlarining barposi nizom va intizom ila o'ldig'I kadi barbod va inqirozi ham tartib va nizomsizlik ila bo'l mishdur. «Xayr, o'tkan ishga salovat». Alhosil, har bir millatning taraqqiy va taoliysi ishlarini vaqtida nizomdan chiqarmay tartibi ila yurutmakg'a bog'lidur. Shogirdlar maktab va madrasalardagi zamonga muvofiq ravishda qurilmish, nizom va tartiblarni rioya qilmaklari lozimdir. Chunki tartib va nizomni rioya qilmagan kishilarning ishlari hamma vaqt notamom, o'zlarì parishon bo'lurlar.

Ammo ishlarini tartib uzra yurutgan kishilarning ishlari yerida, o'zlarì tinch va rohatda umr o'tkarurlar. Hozirgi zamonda bizning Turkiston boylarining ishlari to'xtab, sinuvlarining birinchi sababi ishlarini axloqsiz, bilimsiz, musrif, yalqov kishilarga topshiruvlari ila barobar o'zlarining zamonga muvofiq tartib va nizomdan xabarsizliklarining yemushidur. Payg'ambarimiz: «Kasblarning ortug'roqi xiyonatsiz, yolg'onsiz qilg'on savdo va tijorat ila bandaning o'z qo'li birlan ishlagan ishidur», – demishlar.

Davlatni koni, manbayi tartib-intizom,

Sarvatni poydori erur iqtisodi tom.

Muhtojlig' yuzini ko'rар deb gumon qilmang,

Tartibi birla yursa, kishining ishi mudom.

## VIJDON

Vijdon deb ruhimizga, fikrimizga ta'sir qiladurgan hissiyot, ya'ni sezuv – tuymaqdan iborat ma'naviy quvvatni aytilar. Biz har vaqt af'ol va harakotimizni yaxshi va yomonlig'ini, foyda va zararlig'ini onjaq vijdonimiz ila bilurmiz. Vijdon insonning aql va fikrini haqiqiy mezonidurki, bu tarozu ila o'z kamchiliklarini o'lchab bilmak ila barobar boshqalarning ham af'ol va harakotini sezur. Agar ishlagan ishi shariat, aql va hikmatga muvofiq bo'lsa, muhabbat qilur. Qabohat va yomon ishlarni qilsa, nafrat qilur.

Biz janobi Haqning amr va nahiyni fikr va ruhimizning ma'naviy quvvati o'lan vijdonimiz ila ayira bilurmiz. Vijdon yaxshi xulqlarning manbayi o'ldig'indan vijdon sohiblari har bir ishni beg'araz, xolis niyat ila ishlar. Shul sababli har kim nazarida maqbul va suyukli bo'lur. Ammo vijdonsiz kishilarning ishlarida niyat va amallarida, do'st va oshnoliqlarida yashirin bir g'arazlari o'ldig'indan har vaqt hasrat va nadomat chekub, vijdon azobig'a giriftor bo'lurlar.

Har bir insonning haqiqiy foili vijdonidur,

Mevasi yaxshi amaldur, hosili vijdonidur.

Inson diniy vazifalarining uluvviyatini vijdoni soyasida taqdir qila bilur. Chunki, vijdoni salomat kishilar imon va e'tiqodlarini kamolga yetkurmak uchun janobi Haqning buyruqlarini din va millatg'a foydali ishlarni shod va xurramlik ila ishlar. Alhosil, vijdon har kimning af'ol va harakotini ko'rsatadurgan musaffo bir oyinadurki, bu ko'zguga chin nazar qilg'an kishi o'z ayb va kamchiliklarini tuzatmak harakatida bo'lub, boshqalarning ayb va qusurlarini axtarmoqg'a vaqt bo'lmas. Bizim islomiyatda vijdon axloqining islohi uchun sa'y-harakat qilmak lozim o'ldig'indan shul doirada harakat qilg'on kishilar ikki jahonda aziz va mukarram bo'lurlar. Arastu hakim: «Ruhimizning ma'naviy quvvati o'lan vijdonimiz, fikrimizga quvvat berguvchi bir vositayi idrokiya deyilur. Ya'ni, hissiyotimizning ruhimizga ta'sir ettirg'uvchi bir robitayi ilktiriqiyyasidur», – demish. Ibn Sino hakim: «Vijdon ruh va fikrimizni tuyg'un qilmakg'a birinchi vositadur», – demish.

Sof vijdon kabi hech komila mezon o'lmas,

Kishi o'z aybini bilmak kabi urfon o'lma.  
Shod-masrur o'lur insof ila vijdonli kishi,  
Kimki vijdonsiz esa, to'g'ri, chin inson o'lma.

### VATANNI SUYMAK

Vatan har bir kishining tug'ulub o'skan shahar va mamlakatini shul kishining vatani deyilur. Har kim tug'ulgan, o'sgan yerini jonidan ortiq suyar. Hatto bu vatan hissi-tuyg'usi hayvonlarda ham bor. Agar bir hayvon o'z vatanidan – uyuridan ayrilsa, o'z yeridagi kabi rohat-rohat yashamas, maishati talx bo'lub, har vaqt dilining bir go' shasida o'z vatanining muhabbat turar.

Biz turkistonlilar o'z vatanimizni jonimizdan ortiq suydigimiz kabi, arablar arabistonlarini, qumlik, issig' cho'llarini, eskimular shimol taraflarini, eng sovuq qor va muzlik yerlarini boshqa yerdan ziyoda suyarlar. Agar suymasalar edi, havosi yaxshi, tiriklik oson yerkarga o'z vatanlarin tashlab hijrat qilurlar edi. Bobolarimiz «Kishi yurtida sulton bo'lguncha, o'z yurtingda cho'pon bo'l», – demishlar.

Men ayblik emas, ey vatanim, tog'larim,  
Bevaqt tashlab ketdim, oyo, bog'larim.  
Hijron qilodur meni judolig',  
Do'ndi g'ama ro'z-u shab-u chog'larim.

Hammaga ma'lumdurki, eng muqaddas diniy yerimiz o'lan Arabistonga bog'larini, hovlilarini sotub hijrat qilgan hojilarimizning aksari yana o'z vatanlariga qaytub kelurlar. Buning sababi, ya'ni bularni tortib keturgan quvvat o'z vatanlarining, tuproqlarining mehr-u mahabbatidur. Rasuli akram nabiyyi muhtaram salollohu alayhi vasallam afandimiz: «Hubbul – vatani minal imoni – vatanni suymak imondandur», – demishlar.

Vatan, vatan deya jonim tanimdan o'lsa ravon,  
Banga na g'am, qolur avlodima uy-u vatanim.  
G'ubora do'nsa g'amim yo'q vujud zeri vahm,  
Charoki o'z vatanim hokidur go'r-u kafanim.  
Tug'ub o'san yerim ushbu vatan vujudim xok,

O'lursa aslina roje' bo'lurmi man g'amnok?

## HAQQONIYAT

Haqqoniyat deb ishda to'g'rilik, so'zda rostlikni aytilar. Inson bo'stoni salomatga, gulzori saodatga haqqoniyat yo'li ila chiqar.

Insoniyatning ildizi o'lan rahmdillik, haqshunoslik, odillik kabi eng yaxshi sifatlarning onasi haqqoniyatdur. Janobi Haqning shu nomi muborakini muqaddas bilgan kishi hech vaqt haqqoniyatdan ayrilmas, chunki haqqoniyat nuri qaysi dilda jilvagar o'lsa, janobi Haqning tavfiki rabboniysi shu dilda nash'u namo qilur. Aql egalari, vijdon sohiblari har vaqt ko'rgan, qilgan va bilganlarini, haqiqatni va to'g'risini so'zlar. Ishda to'g'rilik birovning nafsigiga, moliga xiyonat qilmov, so'zda to'g'rilik har vaqt rost so'zlamaklikdur.

Rostlig' haqning rizosini topar,

To'g'ri yo'lida yo'q bo'lurmu hech chopar?

Bizim shariati islomiyada agar bir kishining haqiga bo'hton qilinub, qilmagan ishni qildi deb so'z so'ylansa, bilgan kishi rostini so'zlab, shul kishini oqlamak vojibdur. Rasuli akram nabiyyi muhataram salollohu alayhi vasallam afandimiz: «Annajotu fissiddiqi – najot rostlikdadur», – demishlar. Hazrati mavlono Rumi: «Islomiyat ayni haqqoniyatdur. Haqni qabul qiluvchilar huquqi shar'iyani saqlamoqg'a buyurulmishdurlar. Chunki shariat hukmlarining eng asosiy ildizi haqqoniyatdan iboratdur», – demishlar.

Haqshunoslik o'lmoq sharofatdур jahonda odama,

Haqni izhor aylamak birla ko'ruk ver olama.

Yarashur insona sidqu to'g'rilik gar ko'rsa girih,

To'g'rining yordamchisidur haq taolo g'am yema.

To'g'rilarning maskani firdavs ayvonidadur,

Egrilar ikki jahonda g'am-alam konidadur.

## HAYO

Iffat deb nafsimizni gunoh va buzuq ishlardan saqlamoqni aytur. Bizlarni gunoh va ma'siyatdan saqlaguvchi, harom-harishdan nafsimizni asraguvchi faqat iffatimizdur.

Axloq sohibi, iffat egasi qalbini, vijdonini poklab, tilini yolg'on, g'iybat, bo'hton, moloya'ni kabi yomon so'zlardan saqlar. Chunki insonga if fatidan ko'proq til iffati lozimdir. Boshimizga keladurgan kulfat va zahmatlarning aksari yomon tilimizdan, andozadan ortuq so'ylaganimizdan kelur.

Hayo deb ishda, so'zda adabni rioya qilmakni aytur. Hayo dilni ravshan qiladurgan bir nurdurki, inson har vaqt shul ma'naviy nurning ziyofiga muhtojdur. Shariat buyurmagan, odamlar suymagan ishlarni ishlamak – g'iybat, hajv, masxara, safsata, so'kuv kabi odamlarning nafsiga, iffatiga tegadurgan adabsiz so'zlarni so'zlamak zo'r hayosizlikdur. Iffatning pardasi, vijdonning niqobi hayodur. Shuning uchun har bir harakatimizda, so'zimizda hayoni qo'ldan bermaslik lozimdir. Hayo pardasi ila o'ralmish insonlarning iffat pardasi yirtilmas. Va bu chodir shunday muborakdurki, ancha-muncha sahv-xatolarni berkitub yo'q qilur.

Ibn Sino hakim: «Insonda doim turadurgan husn va latofat hayo ila iffatdur. Hayosiz yuz jonsiz jasad kabidur», – demish.

Rasuli akram nabiyyi muhtaram afandimiz: «Alhayo minal imoni» – Hayo imondandur, «Izo lam tastah faasna' moshi'ta» – Hayo qilmaz esang, istagan ishingni ishla», – demishlar. Muhiddin: «Insonning suratidagi qizillik sekin-sekin ketar, hayo qizilligi aslo ketmas. Yoshlik husnining qizil rangi hayo ila ziynat-latofatga ega bo'lur», – demishlar.

Suqrot hakim: «Xotunlarning eng go'zali hayo va iffat pardasiga o'ralganlaridur», – demish.

Hayo nomus, imona dalildur,  
Hayosiz doimo xor-u zalildur.  
Uyalma ma'rifat hosil qiluvdan,  
Maorifsiz kishilar murda dildur.

## IDROK VA ZAKO

Idrok va zako deb ochuq fikrli, xushtabiat, ziyrak bo'lmakni aytilar. Idrok va zako yaxshi xulqlarning ravzayi rizvoni, ibrat ko'zlarining nuri rahmoniysidur. Chunki idrokli kishilarning har bir maqsadi ostida yashirin o'lg'an zamirlarning ma'nolari na yerdan borib chiqishini bilur. Ilm-u ma'rifat sohibi bo'lmak uchun sa'y va g'ayrat kerak o'ldig'i kabi zehn va idrokning ham salomat bo'lmosg'i shartdur. Shuning uchun yoshlikdan boshlab zehn va idrokimizni quvvatlandurmak uchun aziz umrimizni o'yin-kulgi, safsata, moloya'ni kabi behuda so'zlar ila o'tkarmay, har xil kitob, g'azita va jurnallarni o'qub, fikrimizni ochmoq, zehnimizni quvvatlandurmak lozimdir. Zehnsiz kishilarning o'lchovsiz so'zlari o'zlarini uyaltirgoni kabi eshituvchini ham zeriktirur.

Har kishining fikr, idrokin so'zi bildurg'usi,  
Pistayi bemag'z agar lab ochsa rasvo bo'lg'usi.

Idrok sohibi o'zini fozil va ulug' bilub hamjinslariga haqorat ko'z ila boqub: «Bilasanmi? Man qanday boy va obro'li kishiman» deb maqtanub, o'zini katta qilub ko'rsatmas. Ustiga yuklangan diniy, milliy va maishiy vazifalarini har birini o'z vaqtida ado qilur. Mana, shunday kishilar ikki dunyoda obro'lik bo'lub o'lganlaridan so'ng «faloni xo'b, yaxshi zot edi, Xudo rahmat qilsun, millatga ko'p xizmat qildi, xalqg'a foyda yetkurdi», deb boshqalar tarafidan maqtalurlar. Hushyor va ziyrak kishilar kuch va quvvatlari bor vaqtida keladurgan zamonlarini tushunib, pul va mollarini o'rinsiz yerkarda, to'y va ma'rakalarga haddan ortiqcha isrof qilmaslar, o'zlarining rohati, bola-chaqalarining saodati uchun kerak bo'ladurgan yer va bog'larini sotmaslar, zamonaga muvofiq kishi qilmak uchun bolalarini o'qitmak va tarbiya qilmak to'g'risida aqchalarini aslo qizg'anmaslar.

Idrok ila aqling-la ayur yaxshi yomonni,  
Behudaga sarf etma shu qimmatli zamonni,  
Sa'y et, jadal et, ilm-u fununa harakat qil,  
Boq, nayladilar hikmat ila ushbu jahonni.

## IQTISOD

Iqtisod deb pul va mol kabi ne'matlarning qadrini bilmakni aytur. Mol qadrini biluvchi kishilar o'rinsiz yerga bir tiyin sarf qilmas, o'rni kelganda so'mni ayamas. Saxovatning ziddi baxillik o'ldig'I kabi iqtisodning ziddi isrofdur. Alloh taolo isrof qilguvchilarni suymas. Iqtisodni rioya qilgan kishilar hamma vaqt tinch va rohatda yasharlar.

Arilar qish kunida yemak uchun bol yig'ganidek, boshlariga keladurgan qora kunlarni o'ylab, oq pul yig'urlar. «Toma-toma ko'l bo'lur», – demishlar. Har narsa ozdan ko'payur.

Ko'pni ozaytirg'uvchi xotun kishi,  
Ozni ko'payturmak erur er ishi.

Hozirgi zamonda maqsudga yetmak, o'z millatiga xizmat qilmak, xalqg'a maqbul bo'lmak uchun ilm va mol lozimdir. Olamdagi hamma millatlarning hol va qudratlari mol va boyliqlari ila o'lchanur. Har yerda boy millatlar og'ir kelub, pallani bosub xo'ja o'lganidek, faqirlari yengil kelub, qul va asir bo'lub, osilib qoladur.

Mol topmakning eng barakathi yo'llari: hunarchilik, ekinchilik, chorvachilik, savdogarlikdur. Bularning har biriga ham bu zamonimizda bilim lozimdir. Bobolarimizning «bo'lsa bo'lar, bo'lmasa g'ovlab ketar» zamonlari o'tub, o'rniga «bilgan bitar, bilmagan yitar» zamonini keldi.

Amerikalilar bir dona bug'doy ekib, yigirma qadoq bug'doy olurlar, yovrupoqlilar o'zimizdan olgan besh tiyinlik paxtamizni keturub, o'zimizga yigirma besh tiyinga soturlar.

Ammo biz osiyoliklar, xususan, turkistonliklar, dumba sotub, chandir chaynaymiz: qaymoq berub, sut oshiyimiz, non o'rniga kesak tishlaymiz. So'zning qisqasi, hozirgi zamonga muvofiq kishi bo'lmak uchun ilm va ma'rifat ila barobar iqtisod, insof, tunganmas sa'y, bitmas g'ayrat lozimdir.

Rasuli akram nabiyyi muhtaram salollohu alayhi vasallam afandimiz: «So'ng zamonlarda dinni saqlamak mol ila bo'lur. Iqtisod uzra harakatli kishilar faqir bo'lmas», – demishlar. Yana, «Har narsada o'rta iqtisod yo'lini tutmak lozimdir.

Ifrot va tafritdan ihtiroz qilmak kerak, hatto din amrinda ham bir odam ortuq sufiylik sotsa, oxirinda o'zi mag'lub bo'lur», – demishlar.

Xalq ichinda mo'tabar bir narsa yo'q davlat kabi,

Bo'limg'ay davlat jahonda quvvat-u sihhat kabi.

Iqtisod, insof ziynatdur vujudi odama,

Yaxshi ne'mat yo'q kishiga sa'y ila g'ayrat kabi.

## VIQOR

Viqor deb kibr va g'ururdan, manmanlikdan o'z nafsi saqlamakni aytilur. Viqor shar' va hikmat yuzasidan inson uchun eng kerakli yaxshi xulqlarning biridur. Viqorsiz odam e'tiborsiz boyga, kibrli kishi illatli faqirga o'xshaydur. Har kimning qadr va e'tibori nafsining viqori ila o'lchanur. Vuqur kishilar kibr va g'ururga aslo yaqin yurmaslar. Chunki g'urur, manmanlik, takabburlik kishini xor, xalq orasida bee'tibor qilur, har qancha ilm va davlat sohibi bo'lsa ham, bir pulcha qadr va qiymati bo'lmas. «Mani bilursanmi? Munday qilurman, unday saxovat qilurman», – deb o'zini-o'zi maqtamoqlik, riyokorlik, zo'r ayb va viqorsizlikduri. Viqorli kishi yomon xulqlardan pok, adolatli, ishida, so'zida to'g'ri, shafqat va marhamatli, o'z dindoshlariga xayrixoh, millat foydasiga tirtishuvchi, sof qalbli, arslon yurakli bo'lur.

Hazrati Ali: «Vuqur kishi kibr va g'ururdan pok bo'lur. Viqor odamgar-chilikning madori, iftixori, insoniyatning homiyi e'tiboridur. Lekin viqorning haqiqiy darajasiga yetmak uchun ilm va ma'rifat lozimdu», – demishlar.

Afsus bu zamonda biz m e'tibor yo'q,  
Yosh-u qarida g'ayrat-u, nomus-u or yo'q.  
Fisq-u fujur ila giriftor barcha jon,  
Ilmi amalda bizda sabot, viqor yo'q.  
O'tmoqda umr hoyi havas birla bar havo,  
Millat g'amini o'ylag'uvchi hushyor yo'q.

## ITOAT

Itoat deb bo'yinsunmakni aytilur. Alloh taolonning amriga boyinsunuv, ibodat va itoat qilmak farzi ayndur. Rasuli akram nabiyyi muhtaram salollohu alayhi

vasallam afandimiz: «Alloh taoloning amriga muxolif bo’lgan holda hech kimning amriga itoat qilmak vojib emasdur» – demishlar. Ota-on, ustod, muallim kabi o’zidan ulug’ kishilarga bo’yinsunub itoat qilmak eng yaxshi sifatlardandur. Bu sifatga ega bo’lmak uchun har vaqt bularning foydali kengash va nasihatlarini tinglab, buyruqlarini mahkam tutmak lozimdur. Chunki onlar dunyoga bizdan ilgari kelganlar, bizdan ko’proq tajriba hosil qilganlar, vatan va millatning holiga oshno bo’lganlar. Tabiblar dardlarga davo hozirlagandek, bular ham turmush va yashamakning ofati bo’lgan faqirlik, yalqovlik, nodonlik kabi vujudimizni churitadurgan marazlarga davo hozirlaganlar . Shuning uchun bizga qilgan xolisona beg’araz nasihatlari hozirda og’ir va achchig’ ko’rinsa ham, oxiri rohat va totli bo’lub chiqar.

Nasihat bo’lsa xoli gar g’arazdan,  
Achchig’ doru kabi saqlar marazdan.  
  
Biza lozim erur bilmoq, eshitmoq,  
Ziyondan boshqa bir shay yo’q g’arazdan.

### **SADOQAT**

Sadoqat deb kishi o’z vazifasini to’g’rilik ila ishlamakni aytilar. Sodiq kishi din va millatiga, vatan va davlatiga to’g’rilik ila xizmat qilub, obro’ va mukofotlar olur. Sadoqat gulshani salomat, bo’stoni najotdur. Sadafdan inju, ilondan zahar hosil bo’ldug’i kabi rostlikdan foyda, xiyonatdan zarar hosil bo’lur.Janobi Haq sodiqlarni suyar, yolg’onchilarni suymaz. To’g’rilikdan yo’qolgan kishi yo’q, xiyonatdan yo’qolganlar cho’qdur. Rostlik ila xiyonat ikkisi jam’ kelmas. Agar bir kishining diliga to’g’rilik tuxumi ekilsa, har qancha och va suvsiz bo’lsa ham to’g’rilik o’sar. Xiyonat ko’karmas. Axloq yuzasidan to’g’ri faqir yolg’onchi boydan e’tiborlidur. Chunki sodiq kishi ahdig’a vafo qilur. Yolg’onchi esa va’dasida turmay o’zini xijolat, boshqalarni ovora qilur. Sadoqat bir fayzi ma’naviydurki, u fayzdan hissasini olmak har bir kishining muqaddas vazifasidur. Hazrati imom Husaynga hazrati Ali: «So’zingda to’g’ri bo’l, yolg’onchilar kabi munofiq o’linmassan», – deb nasihat qilmishlar. Rasuli akram nabiyyi muhtaram salollohu alayhi vasallam afandimiz:

«To’g’rilikni ixtiyor qilingiz, garchi halokat kabi ko’rinsa ham, najot to’g’rilikdadir. Har qancha najot kabi ko’rinsa ham, yolg’ondan saqlaningiz, zeroki oqibati halokatdur», – demishlar.

Sidq-u safoyi rostlig’ o’lsa qarobating,  
Shuldur jahonda rohat, fayz, saodating.  
Olamda to’g’rilikcha yo’q odamning ziynati,  
Qalbing alifdek o’ldimi, ayni sharofating.

## **ADOLAT**

Adolat deb boshqalarning mol va nomusini rioya qilmakni aytilur. Adolat yaxshi xulqlarning foili, zulmning muqobilidur. Adolat va marhamatli kishilar o’ziga loyiq ko’rmagan bir ishni o’zgalarga ravo ko’rmas. Kishi adolat va insoniyat vazifasini yolg’uz o’zi buzuq ishlardan saqlanmak ila ado qilolmas, balki o’zi ila barobar jiisdoshlarining xato va fanoliqlarini tuzatmak va yaxshi yo’lga sa’y qilmak ila ado qila bilur. Adolatni rioya qilgan kishilar hech bir kishiga jabr-u zulmni xohlamas va jonli narsalarga bekorga ozor bermas. Aql va shariatga muvofiq ravishda harakat qilur. Jabr-u zulm ila boshqalarning dilini ozor qilgan kishilarning yoqalari jazo qo’lidan qutulolmas. Zero, janobi Haqning adolati zolimlarning jazo va sazosini bermakdadur. Rasuli akram sallollohu alayhi vasallam afandimiz: «Alloh rizosini istar esangiz, bolalaringiz haqqinda ham adolat qilingiz! Yana, mazlum kishining duosindan kofir ham bo’lsa saqlaningiz! Chunki mazlumning duosi doimo maqbuldir» – demishlar. Har bir millatning taraqqiy va taoliysi, davlat va hukumatlarning uzun yashamog’i adolatga bog’lidur. Adolatdan ayrılgan podshohlarning davlatlari yo’q bo’lub, tarix sahifalarida faqat ismlari qolganligi hammaga bilgulidur.

Adl o’lsa podshohing, oyog’ ostida palos,  
Boshingda bo’lgusidur oning toji barqaror.  
G’olib bo’lurga chiqsa, agar yengidan qo’li,  
Bo’lg’ay nasib gardanig’a hiyladan tumor.

## **MUHABBAT**

Muhabbat deb bir narsani suymakni aytilar. Dunyodagi insonlar mehr va muhabbat soyasida yasharlar. Har bir ishni muhabbat orqasida ishlarlar. Muhabbatsiz kishi hech bir ishni ishlamakka g'ayrat va jasorat qilolmas, dunyo ne'matidan lazzat ololmas. Agar bir shogird ilm va muallimni suymasa, ishtaha ila o'qimasa, maqsudiga yetolmas. Ye r yuzidagi insonlarni urushma, taloshmalarga qovushdurgan, siynalarini dushman o'qiga nishona qildurgan narsa din va millatlarning, vatan va davlatlarning muhabbatidur. Kishini kecha va kunduz tindurmasdan qul kabi mehnat va mashaqqatlarga ko'krak berub ishlatadurgan narsa vatan va bola-chaqalarning mehr-u muhabbati emasmi? Qush yaxshi ko'rgan donasiga qiziqub, tuzoqg'a ilinub qolg'oni kabi inson suykli narsasiga boylanub, asir bo'lub qolmog'i tabiiydur. Rasuli akram nabiyyi muhtaram salollohu alayhi vasallam afandimiz: «O'z nafsing uchun qaysi narsani suyar esang, shul narsani boshqa kishiga ham suy», yana «Ota muhabbatini saqla! Agar san otag'a bo'lg'an muhabbatni uzsang, Alloh taolo sani har turli fayzlardan mahrum qilur», – demishlar.

Muhabbatlik bahorning kuz husuli hech oz o'lmas,  
Muhabbatsiz kishining ko'ngli qishdur, asli yoz o'lmas.  
Suyub ilm-u funun tahsil edan uchgay havolarga,  
Qayu baxti qaro johil qolur, dasti daroz o'lmas.

## AFV

Afv deb kechurmakni aytilar. Bir kishi qilgan kamchiliklarini bo'yniga olub, o'kunub, kechurmakni so'rasa, afv qilmak lozimdir. Chunki afv yaxshi xulqlarning afzali, insoniyatning akmalidur. Janobi Haq Qur'oni karimda afvni maqtab madh qilmishdur. Olijanob kishilar uzrni qabul qilur. Bir kishi qusur va qabohatini bo'yniga olub uzr aytsa, afv qilur, kechirur. Kattalik va ulug'likning lazzati birovdan o'ch olmakda emas, balki afv qilmakdadur.

Masalan, Ahmad Mahmudga bir yomon ish qilub dilini og'ritdi. Mahmud Ahmaddan o'chini oldi. Bas, Ahmad ila Mahmudning orasidagi yomonlikdagi farq na o'ldi. Holbuki, har ikkisi ham bir-biriga yomonlik qildi. Har ikkisi ham g'amlik va parishon bo'ldi. Bir yomonlik ikki bo'ldi. Agarda Ahmadning qabohatiga Mahmud afv mukofotini bersa, ikkisi ham shod-u masrur o'lur hamda Janobi Haq afv qiluvchilarni suyar. O'zi ham afv mag'firat qiluvchidir. No'shiravon: «Bir gunohkorni afv qilmakdan qanday lazzat olganimni hech kimga aytmayman», – demish.

Ulug'larning ishi afv aylamakdur,  
Kichiklar uzr uchun bel boylamakdur.  
Musulmonlig'da yo'q kin-u adovat,  
Dila afv,adolat joylamakdur.  
Bizim ishlar hasad, bu'z-u xusumat,  
Xududdan chip-chiqub, chet poylamakdur.  
Butun af'olimiz bir-birga zidlik,  
Urub-tortub, og'izni moylamakdur.

## **YOMON XULQLAR**

Insonlarni saodati abadiyadan mahrum qiladurgan, janobi Haq qoshida va xalq nazarida mazmum, hayoti jovidonimiz uchun masnum bo'lgan axloqi zamimalar: g'azab, shahvat, jaholat, safohat, hamoqat, atolat, hasosat, rahovat, anoniyat, adovat, namimat, g'iybat, haqorat, jibonat, hasad, nifoq, tama, zulmdur. Bu sanagan yomon xulqlarning fanoliqlarini, yuqorida sanagan yaxshi xulqlarning go'zalligini insof muvozanasi ila o'lchab, vijdon muhokamasi ila tahqiqlab, yaxshilarini tinglab amal qilmak, yomonlarini anglab, hazar qilmak lozimdir. Zeroki, insonning izzati, dunyoning lazzati yaxshi so'zlarni eshitub va ko'rub hissa olmak, yomon va zararlilarini uqub, bilub o'zini tiymak, qo'ldan kelguncha xalq va millat foydasiga tirtishmak va bu fano dunyodan yaxshilik otini olub ketmakdadur. Chunki har narsaning haddan ortuqchasi isrofdur. Lekin yaxshilik va yaxshi sifat qancha ko'p bo'lsa, shuncha mamduh va maqbuldur. Rasuli akram nabiyyi muhtaram salollohu

alayhi vasallam afandimiz: «Bandalarning yaxshirog'i bandalarga foydali bo'lidanidur», – demishlar.

Yaxshilik bozoridur dorul omon,  
Yaxshilik qil, yaxshilik qilmas ziyon.  
Maktab, dunyoda kasb et yaxshi xulq,  
Farz, vojib, sunnat, istihbobdan ber imtihon.  
Qilma makruh, xarom, kibr-u g'urur manmanlig'ing,  
Chaqma inson jismini yo mor, yo misli chayon.  
Yaxshilik, adl-u saxovatlar sening yoring esa,  
G'ibta aylarlar sanga ins-u malak, hur-u jinon.

## G'AZAB

G'azab deb bir kishi ikkinchi ila shiddat va hiddat ila muomala qilishmakni aytilur. G'azab insonga maxsus bir quvvayi murofiadurki, tabiatda mavjud o'lan g'azab tuyg'usi ila boshqalar tarafidan keladurgan zarar va halokatdan o'z nafsi faqat shu soyada saqlar. Lekin g'azabning jabr va zulm tariqi-la ishlatmakdan nihoyatda ehtiyyot bo'lmak lozimdir. Nafsning g'ururidan paydo bo'lgan g'azab insonni alamlik azoblarga giriftor qiladur. Chunki bu shiddat va haroratning ta'siri vujuddagi qonni buzub, harakat qildurub, dimog'iga hujum qilub, aqlni parishon qilurda kishining ixtiyorini qo'lidan olur va bu soyada o'zini yoxud boshqa bir kishini hasrat va nadomatga duchor qilur. G'azablik kishilar qancha aql va idrok sohibi bo'lsa ham, g'azab qoni qo'zg'algan zamonida o'zini to'xtatolmas, aql va idrokidan ayrilub, bir yomon ishni qilub qo'yar-da, so'ng'idan pushaymon bo'lur. Suqrot hakim: «G'azabning avvali junun, oxiri nadomatdur» -demish. Imom Shofe'i hazratlari: «Qilich va nayza ila hosil bo'lмаган ko'п ishlar yumshoqlik va muloyimlik ila hosil bo'lur. G'azabning zarari egasiga qaytur», – demishlar. Aflatun: «Hayajon ila paydo bo'lgan bir hol, albatta, pushay-monlik ila tamom bo'lur. G'azab g'azab qiluvchidan ko'proq g'azab qiluvchig'a zarar qilur. Aqlni g'azabga soluvchi inson nafsi haroratlari o'tga yoqmish o'lur. Nadomatdan avval matonatni ixtiyor qiluvchilar hech bir tahlika va azobga duchor o'lmaslar», – demish.

Siyuti: «G’azab va shiddat vujud iqlimining dahshatli bir ofatidur. Buning daf’i va chorasi topilmasa, u iqlimni xarob qilur. G’azab bir illati muhlikadurki, yagona davosi sabr va tahammuldan iboratdur . Tadovi etilmagan bir maraz insonning hayotini mahv va barbod etar, hazar qilmak lozimdu», – demish.

G’azablik bo’lmag’il, bo’lg’il muloyim,  
Bo’lursan shod-u xurramlikda doim.  
  
G’azab o’tdur, yoqadur jism-u joning,  
G’azab barbod etadur xonumoning.  
  
G’azablik o’tni bo’s h suv past qilg’ay,  
G’azabni jinni yoki mast qilg’ay.

### **JAHOLAT**

Jaholat deb o’qimagan, bilimsiz hech narsaga tushunmay-durgan nodonlig’ni aytilar. Jaholat insoniyatning eng zo’r dushmani va yomon xulqlarning boshlig’idur. Maorifdan, funun va madaniyatdan mahrum qolgan xalq jaholat panjalarining orasida xamir kabi ezilgandek, af’oli zamimadan ham o’z nafsining yoqasini bo’shatolmas. Ilm va ma’rifat sohiblari, fazli kamollari soyasida har bir ishni tadqiq va mushohada ila qilurlar. Ammo johillar esa bir narsaning mohiyatini mushohada qilurg’a aql va farosatlari yetmas. Chunki jahl xudbin va zohirparastdan iboratdur. Har bir narsaning haqiqati aql va irfon, ilm va donish sohiblarina maxsus bir maziyyat, johil va nodonlara zo’r aziyyatdur. Jaholat arbobi qayu yerda bo’lsa bo’lsun, loyiqi e’tibor o’lmoq sharafindan mahrumdur. Moddiy jihatdan qancha boy va sarvatdor bo’lsa, ma’naviy jihatdan shuncha faqir va zalil hisoblanur. Zeroki, jaholat eng qo’rqinch faqir va muhtojlikdan ziyoda dahshatliroq bir musibatduri. Aql ila ilmning yaxshiligi va fazilati qancha baland bo’lsa, jaholatdan tug’uladurgan yomonliklar balolari shuncha ostin va xorlikdur. Hazrat Ali: «Arbobi fazl-u kamol johildan qancha izo va jafo cheksa, johil ham aql va irfon sohibidan shuncha mutaassir bo’lur», – demishlar.

### **ADOVAT**

Adovat deb birovga xusumat va dushmanlik qilmakni aytilar. Adovat vijdanni behuzur qiladurgon eng yomon xulqlardan o'ldig'ini inson yaxshi bilsa edi, hech vaqt aziz jonini alamlik azobga giriftor qilmash edi.

Suqrot hakim: «Man dushmanim bo'lg'on bir odamga adovat qilmayman. Zeroki, maning adovatim dushmanimning xusumatini ziyoda qiladur. Man adovatga qarshi do'stlik ila muqobala qilub, xusumatni muvaddatga aylandurub, dushman kishilarni o'zumga el qilaman», – demish. Aflatun hakim: «Dildagi adovat temirdagi zangg'a o'xshar. Zang temirni yegani kabi adovat qalbni azobga soladur», – demish. Hazrati Muhiddin: «Xusumat va adovatdan qutulmoq, birovga jabr va zulm bo'ladurgan ishdan ehtiyot bo'lma, dushman paydo qiladurgan harakotdan ihtiroy qilmak ila bo'ladur. Man hech kimg'a adovat qilmoqg'a luzum ko'rmadim. Chunki hozirgacha man hech dushmanga uchramadim», – demish.

Alhosil, yomon xulqlarning yomoni bo'lgan adovat shunday bir yomon sifatdurki, barcha buzuq ishlarni tug'ub, katta bo'lub chiqadurgan yeri adovatduri. Adovat esa nafsoniyatdan paydo bo'lur. Nafsoniyat esa farishtalarning ustodi o'lan Azozilga «Shaytonur-rajim» ismini bergen shoyoni ihtiroy bir sifati zamimadur. Adovat ila nafsoniyat ikkisi tarbiyasiz dilga hosil bo'ladurgan bir illati jismoniyadurki, buning birinchi iloji vijdon va insof uzra hakimona tadbir va harakotimizga bog'lidur. Hamaga ochuq va oydindurki, adovat daraxti xusumat mevasini chiqarur. Agar adovatni kesub tashlab o'rniga muxolasat novdasi ulansa va bu soyada muhabbat va ulfat mevasi nishona qilur. Rasuli akram nabiyyi muhtaram salollohu alayhi vasallam afandimiz: «Allah taoloni suymagan odam xusumat va da'vosinda qattig'lik qilgan odamdur», – demishlar.

Adovat balosi bizlarni netdi,

Adovat qilma deb Haq bizga aytti.

Zidlik qilduk, mol va davlatlar ketdi,

Moldan o'tub, oxir jonlarga yetdi.

## NAMIMAT

Namimat deb so'z yurutmak, chaqimchilikni aytilur. Nammomlik fasodi axloqdan tug'uladurgan yomon xulqlarning biridur. Nammomlik nifoq va fasadning asosi o'ldig'i uchun bu yomon sifatni o'ziga maslak qilgan kishilar xalq nazarida munofiq yod o'lunurlar. Ikki mo'min orasida so'z yurutub, birini biriga dushman qilub, ikki oraga nifoq va adovat otashlarini solub, bir-biridan judo va xonavayron qilmakni dilida zarra qadar imon va insoniyati bor insonlarning vijdonlari aslo qabul qilmasa kerak. Ba'zi adovat va xasadchi kishilar birovning sha'nida yo'q so'zlarni iftiro va bo'hton qilub, ul kishini qadr va obro'sini to'kmak va e'tibordan tushurmak niyatida har kimga so'zlab yururlar. Munday kishilarni shariatda shahodatlari maqbul emasdur, hamda uydurma so'zlarining haqiqati bilinub qolub, birovga qazigan chuqurlariga o'zлari yiqilub, xalq orasida chaqimchilik ismi ila yod o'lunub, tezgina qadr va e'tibordan tushub qolur. Qalbi pok va vijdoni salomat o'lan inson bu kabi hiyla va tazvirdan tilini tiyar. Chunki munday fasod axloqg'a mubtalo bo'lgan arbobi nifoq faqat xalq qoshida emas, janobi Haq nazarinda ham suyumsizdur.

Nammom va g'iybatchi kishilar daraxt ildiziga tushgan buzog'bosh kabi xalq orasida ittifoq va ulfatning kavokini kemurub, umumiylar xalq va millatning yashamog'i uchun lozim bo'lgan muhabbat daraxtini yemururlar. Birovni yomonlamak, yolg'on so'ylamak, haqiqatni berkitmak, mudohana yo'lig'a ketmak, shar'an harom bo'lgan g'iybatni irtikob qilmak bo'ladur. Shaxsiy g'araz yoxud manfaati shaxsiyasi uchun bir kishidan eshitgan so'zini o'z maqsadiga muvofiq bir necha turli ma'nolar ila buzub so'ylamak zo'r ayb va gunohdur. Hosili kalom, o'z jinsiga yomonlik qilmak va yomon so'zlar ila yod qilmakni odat qilgan kishilardan

dochmak va hazar qilmak lozimdur. Rasuli akram nabiyyi muhtaram salollohu alayhi vasallam afandimiz: «As'hobimdan biri ikkinchisining so'zin keturmasun, zeroiki, man sizga sadrim salomat, qalbim rohat o'ldug'im holda uchramakni tuyaram», – demishlar. Hukamolardan biri: «Mol va ashyo o'g'rilaridan ko'proq odamlar orasidan do'stlik, ulfat, muhabbatni o'g'irlaydurgan odamlardan saqlanmak lozimdur», – demish.

## BAYT

Chaqimchilar buzar ulfat hisorin,  
Nifoqa o'g'ratur millatni korin.  
Chaqimchi til yomon ajdar tilidan,  
Solur jonga alamlik zahri morin.  
Yomon til ming tilim bo'lg'oni yaxshi,  
Sochar ummat aro kin-u niqorin.  
Yomon til sohibining dushmanidur,  
Yo'qotgay sha'n-u shavkat e'tiborin.

## G'IYBAT

G'iypat deb bir kishining kamchilik va qusurini orqasidan so'ylamakni aytilur. G'iypat so'ylamak harom o'ldig'i kabi eshitmak ham haromdur. Kishi o'z nafsiiga lazzat umidi-la birovni g'iypat qilub, etini chaynamak gunoh ham insoniyat nomina yarashmagan eng yomon axloqi zamimalardandur. Inson boshqa gunohlarni nafsining lazzati uchun qiladur. Ammo g'iypat sohibi lazzat o'rniga o'z boshiga yoki bir boshqa kishining boshiga bir balo hozirlaydur. Chunki so'z borub g'iypat qilinmis kishining qulog'iga yetar. G'azab qoni harakatga kirar, g'iypatchidan o'ch olmak fursatini poylar. Shunday qilub, g'iypat soyasida ikki musulmon orasiga zo'r dushmanlik tushar. Oxiri o'limgacha borub tiralur. Shul tariqa g'iypatdan tug'ulgan adovat cho'zilmoqg'a oid bo'lub, dushmanlik zo'rayub, o'z oralaridagi xususiy janjallar ila aziz umrlarini uzdirub, umumiy xalq foydasi uchun ishlanadurgan milliy ishlardan mahrum bo'lmaqlari ila barobar aholining orasidan ittifoqning yo'qoluviga sabab bo'lurlar. Alhosil, qaysi bir millatning orasida birlik ko'tarilub, nifoq va adovat hukm surgan bo'lsa, ul qavmning inqiroz dunyosiga yuzlanganlig'i tarix sahifalaridan ma'lumdur. Rasuli akram nabiyyi muhtaram salollohu alayhi vasallam afandimiz: «G'iypatdan saqlaningiz, g'iypat zinodan ham yomonroqdu», – demishlar.

Agar jurm-u gunah bo'lsun desang oz,  
Tilingni saqla g'iypatdan qish-u yoz.  
Qulqqa paxta tiq, g'iypat eshitma,  
Shikoyatchi kishiga bo'lma damsoz.

## HAQORAT

Haqorat deb bir kishining hafsgiga, iffatiga tegadurgan so'zlar ila qadr va e'tiborini tushurmak niyatida yomon muomala qilmakni aytilur. Ulamolar diniy kitoblarda: «Tashbihi zino gunohi kabiradur, -birovni haqorat qilish ulug' gunohlardandur», – demishlar. Lekin bizlarning oramizda xotun-qizga borushub, bir-birimizni haqorat qilmak odat hukmig'a kirmishdur. Buning sababi axloqsizlik, gunoh va savobni farq qilmog'onimizning samarasidur. Haqorat tahqir qilingan kishining diliga o'rashub,

shunday yomon jarohatlarni ochurki, fursatni g'animat topub o'ch va intiqom olmaguncha tuzalmaydurdur. Rasuli akram nabiyyi muhtaram afandimiz: «Ikki odam bir-birini so'ksa, gunoh boshlovchiga bo'lur. Magar qarshi bo'lgan kishi ortuq ketsa, har ikkisi ham gunohda o'rtoq bo'lurlar. Yana mo'min qarindoshini so'kmak fosiqlik, onlar ila urushmak kufrdur», – demishlar. Shul xususda

Mirzo Bedil:

Zi harfi no muloyim zahmati dilho mashav Bedil,

Ki har jo jinsi sangi hast, boshad dushmani ayno.

Tarjimas:

Yomon so'zlar ilan dillarga zahmat bermagil Bedil,

Ne yerda toshni jinsi bo'lsa, bo'lg'ay shishaga dushman,

deb insonlarning dilini shishaga, haqorat va yomon so'zlarni toshga tashbih qilub, yomon so'z kishining shisha kabi nozuk dilini parcha-parcha qiladur, – demishlar.

Mol va dunyoga mag'rur bo'lub, har kimga haqorat ko'z ila qaragan kishilar tezgina o'zлari ham xor va haqoratga duchor bo'lurlar. Haqorat va birovni xo'rلamak so'z va ish ila o'ldig'i kabi qalam va yozuv ila ham bo'ladur. Ba'zi adab va tarbiyadan mahrum muharrir va shoirlar bo'ladurki, dillariga kelgan narsalarni qaytarmasdan, axloq va adabni rioya qilmasdan, xalqdan ibo qilmasdan, bachcha va juvonlar sha'niga muvashshahmi, yoki bir mo'min birodarlarining haqida hajv va istehzomi yozub, matbuot va adabiyot dunyosini iflos va mulavvas qilmak ila barobar o'zlariga

hamsuhbat bo'ladurgan yoshlarning axloqini buzulmog'iga sabab va namuna bo'lurlar.

Ko'p o'turma yomonning suhbatida,

Pok bo'lsang, seni qilur iflos.

Ko'r nechuk oftob ravshandur,

Xira qilsa bulut, ko'rub bo'lmas.

## HASAD

Hasad deb bir odamga janobi Haq tarafindan berilgan he'mat va davlatning zavolini tilamakni aytilar. G'iybat, bo'hton, su'izan kabi yomon xulqlar hasaddan tug'ilur. Hasad axloqi zamimalarning eng zararligidur. Janobi Haq Qur'oni karimda «va min sharri hosiden izo hasad» deb hosidning sharrindan o'ziga sig'inmoqni amr etmishdur. Hukamolar hasadni otashga o'xshatmishlar. «Otash o'zidan-o'zi yonub kul bo'lgani kabi hasudlarning jasadi hasad o'ti ila erub, mahv va barbod bo'lur», – demishlar. Hasadning yomonlig'ining sababi Alloh taologa qarshu e'tiroz o'ldig'indandur. Zeroki, hasudning «Oh! Falonchining mol va davlati, izzat va saodati manda bo'lsa, rohat va safoni man sursam edi» zimnindagi xayoloti harisonasi janobi Haqning o'lchab bergen rizqiga qanoatsizlig'ining nishonasidur. Holbuki, janobi Haq bir ne'matni birovga abas va bekorga ihson qilmaydur. Buning sir va hikmati o'zining ilmi azaliysiga ma'lum shaylardandur. Banda hasad qilgani ila yo'q, yordam qilgani ila bor qilolmaydur. Alhosil, hasud doimo ya's va hasrat orasida umrguzaronlig' qilur. Qancha mol va dunyoga molik bo'lsa, yana hasadindan farog'at va rohat yuzini ko'rmasdan dunyodan ketar. Rasuli akram nabiyyi muhtaram salollohu alayhu vasallam afandimiz: «Mo'min g'ibta qilur, munofiq esa hasad qilur», – demishlar.

G'ibta deb bir odamning daraja va molining zavolini orzu qilmay, «koshki men ham shunday bo'lsam edi» orzusida bo'lmoqni aytilar. G'ibta esa mazmum emas, mamduh bir sifatduri. Inson dunyoda yaxshi ishlarga g'ibta qilub, o'rnak olub, o'zini saodati abadiyaga erishdirur. Hazrati Ali: «Hasad hosidning adovatindan, kibr va shaqovatindan paydo boladurgan axloqi zamimadur. Shuning uchun hasud doimo

azobi ruhoniy ichinda yashar. Bir kishining saodatini ko'rgan zamon hasad otashiga yonar. Hosidga mundan qattiq jazo bo'lurmi?», – demishlar. Suqrot hakim: «Hasadchi kishi bir on va bir zamon rohat va farog'at yuzini ko'rmas. Dunyoda qancha mehnat va musibat bo'lsa, barchasi ul bechorani o'rab olmishdur», – demish. Arastu hakim: «Dunyoda hammadan hosidning yuki og'irdur, chunki ul bechora butun dunyodagi shod va masrur odamlarning qayg'ularini o'z ustiga yuklab yuriydur», – demish. Rasuli akram nabiyyi muhtaram salollohu alayhi vasallam afandimiz: «Hasad qiluvchilar, so'z yurutkuvchilar, g'aybdan xabar berguvchilar mandan, man ham onlardan emasman», – demishlar.

## BAYT

Butun bo'lmas hasudning parcha noni,  
Kuyar hosidning doim jism-u joni.  
Hasadchi xoh faqir o'lsun va yo boy,  
Hasad norila yongay ustuxoni.  
Ochar doim kuyub maqsuda hosid,  
Chiqar tandan aziz ruhi ravoni.

## KIZB

Kizb deb yolg'on so'zni aytilur. Yolg'onchi kishilarni kazzob deyilur. Payg'ambarimiz: «Al kazzobu lo ummati» – yolg'onchi mening ummatimdan emasdur, – demishlar. Janobi Haq Qur'oni karimda: «Kizbni imoni yo'q kishilar so'ylarlar», – demishdur. Oqil va diyonatli kishilarga yolg'on so'zlardan tillarini saqlamak ila barobar, avlodlarini yolg'onga odat qildurmasdan tarbiya qilmaklari eng muqaddas vazifayi insoniyalaridur.

Ba'zi o'g'rilikka odat qilg'an o'g'rilar bo'lur emishki, birovning molini o'g'irlamoqg'a qodir bo'lmasalar, o'z mollarini o'g'irlar emishlar. Shunga o'xshash yoshlikdan yolg'onga xo'y qilgan va yolg'ondan lazzat olgan kishilar birovni aldamak gunohligini bilsalar ham «tarki odat amri mahol» mafhuminchal tillarini yolg'ondan tiyolmaslar. Ba'zi vaqtarda o'z oilalarini ham vayron va parishon qilmakdan tortinmaslar. Hech bo'lmasa nammomlik va mudohana yo'llariga ikki

mo'min orasiga nifoq va adovat solub, hatto butun bir oilaning buzulishiga sabab bo'lurlar. Rasuli akram nabiyyi muhtaram salollohu alayhi vasallam afandimiz: «Yolg'ondan saqlaningiz, chunki yolg'on imondan yiroqdur», – demishlar. Payg'ambarimiz faqat uch yerda yolg'onning mubohligini bayon qilub, «biri muhoraba zamonida, ikkinchi er va xotunni rizo qilmoqda, uchinchi ikki mo'min orasini tuzatmakda yolg'on so'ylov joizdur», – demishlar.

## BAYT

Agar qilsa kishi yolg'onga odat,  
Razolatda yashab chekg'ay nadomat.  
Xaloyiq ichra bo'lmas e'tibori,  
Tegar boshiga cho'q sangi malomat.  
Kiming bo'lsa agar yolg'onchi ismi,  
Bu ismi o'zga bo'lmas to qiyomat.  
Ishonmas el yolg'onching so'ziga,  
Agar bo'lsa so'zi kashf-u karomat.

## ZULM

Zulm deb birovning joniga yoki moliga zarar yetkurmakni aytilur. Janobi Haq butun yer yuzidagi insonlarni huquqda musoviy –barobar qilub yaratmishdur. Mansab va davlatga, kuch va quvvatga mag'rur bo'lub, birovning haqig'a taarruz va tajovuz qilmak zulmdur. Kattalikning izzati zulm va taaddida emas, shafqat va marhamatdadur. Kichiklikning lazzati nafrat va qarshulikda emas, sadoqat va hurmatdadur. Shul xususda Shayx Sa'diy:

G'ami zeri doston bexo'r, zinhor,  
Betars az zabardastiye ruzgor.

Tarjimasi:

Quvvatsizlar g'amin yeb yur hamisha,  
Quvvatlilardan etgil xavf pesha.

deb kichiklarni izzat qil, kattalarni hurmat qil, maolindagi hikmat va ibratlik she'ri balig'asini so'ylamishlar.

Dunyoda mazlumning ohidan o'tkur narsa yo'qdur. Mazlumning duosi ijobatga yaqindur. Qo'rwmak va hazar qilmak lozimdur. Bobolarimiz: «Pichoqni o'zingga, og'rimasa, boshqaga ur», – demishlar. Bir kishi zulmning yomonlig'ini bilmak uchun boshqa bir odam tarafidan o'z nafsiga qilinsa, chekadurgan azobini o'ylasa, yomon fanoligi ochiq ma'lum bo'ladur. O'tkan zamonalardagi hukumatlarning barposi adolat ila poydor o'ldig'i kabi, inqiroz va barbodi ham zulm ila poytaxtga yetub va ul zolim hukumatlarning tarix sahifalarida faqat ismlari qolganligi hammaning ma'lumidur. Rasuli akram nabiyyi muhtaram salollohu alayhi vasallam afandimiz: «Ey bandalar! Allohdan qo'rqingiz, Allohning ismi ila ont ichamanki, bir mo'min bir mo'minga zulm qilsa, Alloh taolo qiyomat kunida ul odamdan o'ch olur», – demishlar.

## BAYT

Adolat obi hayot-u sitam erur zulumot,  
Bu zulmat ichra kiranlarga yo'q hayot-u najot.  
Hazon zamoni kelsa, guliston yo'q o'lgandek,  
Na yerda hukm surar zulm, mahv o'lur barakot.

Olib borilgan tajriba sinov ishimizning natijalarini bilish maqsadida tajriba sinfimiz 3 - “G” sinf natijalarini, nazorat sinfi 3 - “D” sinfi bilan taqqosladi. 3 - “D” sinfda ham 30 ta oquvchi bo'lib ularning barchasi savollarda ishtrok etdi. 3 - “D” nazorat sinfida faqat darslikni o'zidan foydalanilgan bo'lsa. Tajriba 3-“G” sinfida esa Abdulla Avloniyning ijodi asosida tarbiya masalalari berib borilgan edi.

**Quyidagi jadvalda tajriba sinov ishlarini 3 - “G” va 3 - “D” sinflarining yakuniy natijalari berilgan.**

№2

3 - “G” tajriba sinfi	“5” baho		“4” baho		“3” baho		3 - “D” nazorat sinfi	“5” baho		“4” baho		“3” baho	
Oquvchi soni 30 nafar	soni	%	soni	%	soni	%	Oquvchi soni 30 nafar	soni	%	soni	%	soni	%
Savollar (Yuqorida berilgan)	Savollar (Yuqorida berilgan)						Savollar (Yuqorida berilgan)	Savollar (Yuqorida berilgan)					
1-savol	25	83 %	5	16 %			1-savol	20	66 %	7	23 %	3	10%
2-savol	24	80 %	5	16 %	1	3%	2-savol	21	70 %	7	23 %	2	6%
3-savol	20	66 %	8	26 %	2	6%	3-savol	17	56 %	11	36 %	2	6%
4-savol	26	86 %	4	13 %			4-savol	21	70 %	8	26 %	1	3%
5-savol	25	83 %	4	13 %	1	3%	5-savol	21	70 %	8	26 %	1	3%
6-savol	24	80 %	5	16 %	1	3%	6-savol	23	76 %	6	20 %	1	3%
7-savol	26	86 %	4	13 %			7-savol	20	66 %	8	26 %	2	6%
8-savol	23	76 %	6	20 %	1	3%	8-savol	20	66 %	7	23 %	3	10%
9-savol	24	80 %	6	20 %			9-savol	22	73 %	7	23 %	1	3%
10-savol	25	83 %	4	13 %	1	3%	10-savol	21	70 %	8	26 %	1	3%
11-savol	23	76 %	6	20 %	1	3%	11-savol	20	66 %	9	30 %	1	3%
12-savol	25	83 %	5	16 %			12-savol	23	76 %	7	23 %	1	3%
13-savol	30	100 %					13-savol	26	86 %	4	13 %		

Yuqorida berilgan natijalar tahlili asosida shuni aytish mumkinki barkamol shaxsni tarbiyalashda Abdulla Avloniyning qarashlaridan foydalanishning o’rniga kattadir. Buni biz tajribada 3 - “G” va 3 - “D” sinflarining natijalarida ko’rib turibmiz. Yuqorida ko’rinib turibdiki tajriba 3 - “G” sinfida olib borilgan ishlar o’z natijasini berib oquvchilarning tushunchalari o’rtacha 15 % ga oshgan.

Biz yuqorida Abdulla Avloniyning ta’lim-tarbiyatagi qarashlarini o’rganish chog’ida shuni tushundikki uning bizlar uchun qoldirgan ma’naviy merosidan yoshlar

tarbiyasida ko'proq foydalanilsa samarali bo'ladi. Biz barkamol shaxsni tarbiyalashda milliy meroslarimiz qadriyatlarimizdan, mutafakkirlarimiz, ma'rifatparvar olimlarimiz merosidan foydalanib o'sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvarlik, insonparvarlik, yuksak ahloqiylik ruhida, bilimli qilib tarbiyalashda Abdulla Avloniyning barkamol shaxsni tarbiyalashdagi qarashlarining ham o'rni beqiyos ekanligini olib brogan izlanishlarimiz asosida tishunib etdik.

## **Umumiy xulosa va tavsiyalar.**

Mustaqil davlatimiz ma'naviy-ruhiy tiklanish davri shiddat bilan rivojlanib bormoqda. Biz bu jarayonni davlatimizning milliy meroslarimiz qadriyatlarimizni qayta tiklash, o'sib kelayotgan yosh avlodni har tamonlama barkamol qilib tarbiyalashda davlat dasturlarida, qonunlarida o'z ifodasini ko'rishimiz mumkin.

Hammamizga ma'lumki muqaddas kitoblarimiz, buyuk mutafakkir ajdodlarimizning ma'naviy meroslari bizni doimo xalol mehnat bilan yashashga, mardlik, saxovat va kamtarlikka chaqiradi, lekin, shu bilan birga, hayotda bu kabi da'vatlarga amal qilishga intiladigan odam ko'pincha turli qiyinchiliklar, hatto azobu uqibatlarga duch kelishini kuzatish qiyin emas buni Abdulla Avloniyning hayoti va o'z davridagi katta to'siqlar misolida ham ko'rishimiz mumkin ammo biz qahramonimizning vatan deya o'z jonini havf xatarda qoldirib o'z maqsadi sari odimlashini anglashimizning ozi qanchalik ibratlidir. Shu o'rinda birinchi pezidentimiz I.A. Karimovning quyidagi fikrini keltirmoqchimiz "Tan olish kerakki yuksak ma'naviyat tushunchalari bilan yashashga harakat qiladigan odamning ko'p mashshaqtatlarni, og'ir sinov va to'siqlar, muammolarni engib o'tishga to'g'ri keladi".<sup>21</sup> degan fikri yodimizga tushadi.

Biz har tomonlama barkamol shaxsni yuksaltirish masalasini o'z oldimizga asosiy vazifa qilib qo'yar ekanmiz, bugungi kunda ma'naviyatimizni shakllantiriladigan va unga ta'sir o'tkazadigan barcha omil va mezonlarni chuqur tahlil qilib, ularning bu borada qanday o'rin tutishni yaxshi anglab olishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi. Albatta har qaysi xalq va millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf-odat va an'analari, hayotiy qadriyatlardan ayri holda tasavvur qilib bo'lmaydi.

Ajdodlarimiz tafakkuri bilan yaratilgan manbalaridan tortib, bugungi kunda nafaqat bizning mamlakatimiz, balki jahonning eng yirik kutubxonalarida saqlanayotgan ming-minglab qo'lyozmalar, ularda mujassamlashgan na'llim, narbiya, tarix, adabiyot, san'at, siyosat, ahloq, falsafa, tibbiyot, matematika, minerologiya,

---

<sup>21</sup> Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch.–T.: Ma'naviyat,2008-yil

kimyo, astronomiya, me'morlik, dehqonchilik va boshqa sohalarga oid qimmatbaho asarlar bizning buyuk ma'naviy boyligimizdir.

Mana shunday ma'naviy boyliklarimizdan biri Abdulla avloniyning barkamol shaxs tarbiyalashdagi qarashlaridir.

Abdulla Avloniy o'z davrining buyuk insoni, chuqur bilimli, donishmand kishisi edi. U jamiyatning ahloqiy tamoyillarini tarannum etish bilan ta'lim-tarbiya sohasida o'ziga xos uslubini yaratdi.

Biz bitiruv malakaiy ishimizda Abdulla Avloniyning ma'rifatparvarlik qarashlari asosida barkamol shaxsni tarbiyalash borasidagi amaliy ishlarni tashkil etdik, o'quvchilar bilan hamkorlikda Abdulla Avloniyning barkamol shaxsni tarbiyalash g'oyasini yoshlar ongiga ta'sirining qanchalik muhim ekanligini anglab etdik.

Umuman olganda Abdulla Avloniyning hayoti va ijodi o'z mazmun mohiyati bilan barcha yoshdagi, barcha ksb-hunar egalari uchun ham g'oyat tarbiyaviy ta'sir imkoniyati cheksiz ekanligi va uni o'rganish, ta'lim-tarbiya jarayonida balkim ijtimoiy hayotimizda ham o'z o'rniga egadir.

## **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. I.A.Karimov "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q", - Toshkent: "O'zbekiston" 1999-yil. 26-bet.
2. I.A.Karimov "Istiqlol va ma'naviyat" , Toshkent: "O'zbekiston" 1994-yil. 48-bet.
3. Karimov I.A. "Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyoti poydevori" - T: "Sharq" nashriyoti. 1997-yil. 64-bet.
4. Karimov I.A Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin. «Tafakkur»jurnali. 1998-yil, 2-son, 29-bet.
5. Karimov I.A. "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda" T: O'zbekiston. 2000-yil. 18-bet.
6. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch" T: Ma'naviyat. 2008-yil 31-bet.
7. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lif to'g'risida»gi Qonuni. Toshkent. 1997-yil. 21-bet.
8. Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asari.
9. A. Boboxonov, M. Maxsumov, "A. Avloniy pedagogik faoliyati" 1999 yil. 31-36-bet.
10. Nuraliev A. "Buyuklar xazinasi" Toshkent "Fan" 2001-yil. 101-bet.
11. Soqiev B "Ma'rifat ulashib". Toshkent. 2005-yil. 73-bet
12. B. Qosimov. Ma'rifat darg'alari. Toshkent. 1988 yil. 66-bet.
13. B.Tuxliev. "Bilim ezgulik yo'li" Toshkent: "Fan" nashriyoti. 1999-yil. 41-bet.
14. Zununov A va boshqalar. "O'rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar". Toshkent: "Fan" 1996-yil. 125-bet.
15. Zununov A "O'zbek pedagogikasi tarixi" (o'quv qo'llanma) T: "O'qituvchi", 1997-yil. 88-bet.
16. Ibragimov X. "Ma'naviy qadriyatlar asosida ta'lifni tashkil etish" T: "Meros" 2001 yil. 67-bet.
17. K.Hoshimov va boshqalar. "Pedagogika tarixi" (pedagogika oliy o'quv yurtlari va universitet talabalari uchun qo'llanma) Toshkent. O'qituvchi, 1996-yil. 86-bet.

18. Hoshimov K va boshqalar. Pedagogika tarixi. – Toshkent., O'qituvchi, 1996-yil. 63-bet.
19. Hoshimov K. Safo Ochil "O'zbek pedagogikasi antalogiyasi". Toshkent: "O'qituvchi", 1995-yil. 96-bet.
20. Zunnunov A. Pedagogika nazariyasi. Toshkent. «O'qituvchi» 2003- yil. 14-bet.
21. K. Hoshimov, M. Inomova. "Pedagogika tarixi" Toshkent. 2006-yil. 128-bet.
22. <http://www.bilimdon.uz>
23. <http://www.ziyonet.uz>
24. <http://www.fikr.uz>
25. <http://www.pedagog.uz>